

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK

UMAROV ANVAR SHUXRATOVICH

IKKI DARYO (AMU-SIR) ORALIGI IBTIDOIY DAVR
ARXELOGIYASI
(TOSH DAVRI MISOLIDA)

5A 220206-Arxeologiya mutaxassisligi

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTASIYA

Dissertasiya ish ko'rib chiqildi va
himoyaga ruxsat berildi.

«Arxeologiya» kafedrasi mudiri:

t.f.n. Djurakulova D.M. _____

Ilmiy rahbar:

prof. Djurakulov M.J. _____

MO'

SAMARQAND – 2013

Mundarija		betlar
Kirish		4-7
I BOB	Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasining qadimgi tosh davri yodgorliklari	
1.1	Selung'ur g'or makoni	8-15
1.2.	Ko'lbuloq makoni hamda uning atrofidagi paleolit davri yodgorliklari	15-23
1.3.	Obiraxmat g'or makoni	23-27
II BOB	Zarafshon vohasi va Janubiy O'zbekiston hududlari qadimgi tosh davri yodgorliklari	
2.1.	Qo'tirbuloq va Omon-Qo'ton makonlari	28-33
2.2.	Samarqand makoni yuqori madaniy qatlami materiallarini trassologik tadqiq qilinishi (1961 – 1967 yillardagi qazishma materiallari asosida)	33-45
2.3.	Teshik-tosh va Amir-Temir g'orlari	45-51
2.4.	Qashqadaryo voxasi paleolit davri makonlari	52-60
III BOB	Ikki daryo oralig'i mezolit va neolit davri arxeologiyasi	
3.1	O'zbekistonda mezolit davri yodgorliklari va madaniyatlari	61-81
3.2	O'zbekistonda neolit davri yodgorliklari va madaniyatlari	81-91
	Xulosa	92-97
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	98-104
	illyustrasiyalar	

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ilm-fanning barcha soxalari qatori tarix fani rivoji uchun xam keng imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, vatandoshlarimiz ongiga milliy istiqlol g'oyasini to'la singdirishda, jamiyat a'zolarining erkin demokratik tafakkurli, barkamol inson bo'lib etishishida tarix xamda arxeologiya fanning roli ortmoqda. Vatanimiz mustaqillikka erishgan yillardayoq Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov tarixni o'rganishni jaxon standartlari darajasiga ko'tarish masalasini dolzarb qilib qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, "Oz tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q".¹

Shulardan kelib chiqib, I.A.Karimovning tarix fani vakillari bilan uchrashuvidagi suxbatlarida ushbu fanning dolzarb muammolari muxokama qilinib, O'zbekistonning ko'xna tarixini rivojlanish qonuniyatlarni har tomondan chuqur o'rganish, ko'p asrlik tarixni va madaniy jarayonlarni yoritish kabi masalalar qo'yilgan edi.²

O'rta Osiyo tosh davri xo'jaligi moddiy madaniyatini tadqiq qilishda katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Bu borada A.P.Okladnikov, G.E.Markov, D.N.Lev, V.A.Ranov, V.M.Masson, A.V.Vinogradov, U.Islomov, G.F.Korobkova, M.R.Qosimov, T.Mirsoatov, E.Bijanov, M.J.Jo'raqulov, N.U.Xolmatov kabi olimlarning xizmatlari kattadir. Keyingi yillarda arxeolog olim U.Islomov, V.A.Ranov, E.Bijanov bu sohada keng qamrovli tadqiqot ishlarini olib bordi va shu tadqiqotlari asosida O'rta Osiyo tosh davri umumiy xronologiyasi va xususiyatlarini ochib berildi.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyingi 22 yillik davr mobaynida boshqa jabhalarda bo'lgani singari arxeologiya sohasida ham misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekiston arxeologiyasi jahonga yuz tutdi. Boy hamda qiziqarli o'tmishimiz jahon hamjamiyatini e'tiborini tortib keldi va dunyo olimlari yurtimizdagi arxeologik yodgorliklarni o'rganishga katta qiziqish bildirdilar. Biroq, faqat mustaqillikdan keyingina bunday imkoniyatlar tug'ildi. O'zbek arxeologlari bilan dunyoning eng ilg'or arxeologik maktablari mutaxassislari o'rtasida ilmiy hamkorliklar yo'lga qo'yildi.

Taklif qilinayotgan ish O'zbekistonda tosh asri yaxlit umumlashma tarixini yaratish, bu borada olib borilgan 70 yillik arxeologik izlanishlar natijalarini umumlashtirish va davr tarixini bugungi kun nuqtai-nazaridan obyektiv talqin qilishga bag'ishlangan.

Muammoning o'rganilish darajasi. O'zbekistonda qadimgi tosh davrini o'rganish 1938 yilda o'rta paleolit davriga oid mashhur Teshik-tosh g'orining ochilishi bilan boshlangan³ bo'lsa, mustaqillikdan keyin eng qadimgi

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият, 2008-4-бет.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.-Тошкент: Ўзбекистон, 1998.-31-бет.

³ Окладников А.П. Неандертальский человек и следы его культуры в Средней Азии (Предварительные данные и выводы о раскопках в гроте Тешик-Таш) // СА, вып. 6. 1940а. - С. 12-14; Первобытный человек Узбекистана // Наука и жизнь. № 1. 1940б. - С. 52-67.

o'tmishimizni o'rganishning yangi bosqichi boshlandi va buning asosini xalqaro hamkor ekspedisiyalar faoliyati tashkil qiladi. Hozirda O'zbekiston paleoliti muammolari bo'yicha dunyoning turli nashrlarida o'nlab ilmiy maqolalar va qator monografiyalar chop etilgan. Biroq, ular hanuzgacha umumlashtirilgan holda bir tizimga solingan emas. Ushbu dissertasion ish bu borada amalga oshirilayotgan ilk qadamdir.

Tadqiqotning davriy chegarasi O'zbekiston xududidagi qadimgi tosh, ya'ni paleolit davrini o'z ichiga qamrab oladi (1 500 000 - 4 000 yilliklar).

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. O'zbekiston xududidagi tosh davri yodgorliklari, ularda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, ibtidoiy davr madaniyatlari va muammolarini jahondagi ilg'or uslublar, yangicha yondashuvlar va nazariyalar yordamida tahliliy tadqiq qilish, tosh davri tarixini yangicha taxlil va talqin qilish;

- tosh davri yodgorliklarining o'rganilish tarixini davrma-davr tahlil qilish, ma'lum bir tizimga solish va umumlashtirish;

- tosh davri arxeologiya yodgorliklarining geografik, Geologik joylanishiga aniqliklar kiritish va ularning Yevroosiyo paleolitida tutgan o'rnini ko'rsatib berish;

- tosh davrida mehnat qurollarining davrma-davr rivojlanishi va o'zgarishini aniq materiallar asosida yoritish;

O'zbekiston hududida ibtidoiy odamlarning jismoniy tiplari va ularning davrma-davr ko'rinishiga aniqliklar kiritish;

Ibtidoiy jamoa tarixining tosh davriga oid qismining har bir bosqichida yuz Bergan iqtisodiy va ijtimoiy tub o'zgarishlarni O'zbekiston yodgorliklari asosida yoritish.

Tadqiqot predmeti va obyektlari. O'zbekiston miqyosida 1938-2012 yillar mobaynida tadqiq qilingan qadimgi tosh davriga oid yodgorliklar va ularni o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan arxeologik ashyolar.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslari. dissertasiya ishida tadqiq etilayotgan masalalarga tarixiy haqiqat va xolislik nuqtai-nazaridan yondashilgan. Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida tarixiy tadqiqotlar oldiga qo'ygan vazifalardan Kelib chiqib, mavzuni yoritish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish ko'zda tutilgan. Ilmiy muammoni o'rganish va tahlil qilishda tarixiy – falsafiy uslublardan, ya'ni analiz va sintez, sistemalashtirish, mavhumlikdan murakkablikka intilish, qiyosiy solishtirma, obyektiv holatni tahlil qilish kabi Metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqotda XIX-XX asrlarda tosh davrini o'rganishda qo'llanilgan evolyusion nazariyadan farqli ravishda, yangi va zamonaviy progressiv ketma-ketlik nazariyasi asos qilib olindi.

Tadqiqotning manbalari. O'zbekiston hududidagi tosh davri materiallarini ilmiy tahlili natijalari, Respublikamizda va xorijda nashr etilgan ilmiy adabiyotlar, arxivlarda saqlanayotgan hisobotlar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Ilmiy ishda tosh asri arxeologiyasi manbalari umumlashtiriladi, davrni o'rganish muammolari muhokama etiladi.

- O'zbekiston tosh asri madaniyatlarining xususiyatlari, shu davrda yashagan gominidlarning fizik tiplari xaqida malumotlar umumlashtiriladi.

- O'zbekistonda tosh asri arxeologiyasini o'rganishning istiqbollari belgilab beriladi.

-Ilmiy ishda Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyingi paleolit davrini o'rganishdagi xalqaro hamkor ekspedisiyalarning tadqiqotlari natijalari umumlashtirildi va ma'lum bir tizimga solindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

O'zbekistonda mustaqillikka erishilgan keyingi yillarda paleolit davrini o'rganish borasida amalga oshirilgan natijalarni umumlashgan holda tadqiq qilish, ularning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilash amalga oshirildi. Ushbu ilmiy ish O'rta Osiyodagi tosh davri arxeologiyasi bo'yicha to'planayotgan manbashunoslik bazasini yanada kengaytiradi.

Natijalarning amaliyotga qo'llanilish darajasi. Ilmiy ishning natijalaridan O'zbekiston tarixining qadimgi davrlariga oid maxsus boblarini yozishda, Oliy o'quv yurtlari maxsus kurslar uchun ma'ruzalar hamda ilmiy-amaliy qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin. dissertasiya materiallaridan esa yurtimizda chop qilinayotgan "O'zbekiston arxeologiyasi" va "O'zbekiston tarixi" kabi nashrlarning maxsus boblarini yozishda foydalanilishi mumkin. dissertasiya materiallaridan respublikamiz oliy o'quv yurtlarining tarix fakultetlarida maxsus kurslarida ma'ruzalar o'qishda, tosh davri arxeologiyasi va tarixini yozishda qo'llanilishi mumkin.

dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. dissertasiya kirish, 3 ta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ilmiy ishning hajmi 104 bet, unga 26 ta illyustrativ materiallardan iborat albom ilova qilingan.

I BOB. FARG'ONA VODIYSI VA TOSHKENT VOHASINING QADIMGI TOSH DAVRI

1.1. Selung'ur g'or makoni

O'zbekiston hududi yer shari miqyosida insoniyat dastlab shakillangan mintaqalar sirrasiga kiradi va madaniyat markazlaridan biri xisoblanadi. Yevroosiyo hududlarida bo'lgani singari yurtimiz tarixi ham paleolit yoki qadimgi tosh davridan boshlanadi. Mamlakatimizda shu davrga oid qator makonlar qayd etilganva o'rganilgan. Ular qatoriga Farg'ona vodiysidagi Selung'ur, Chashma, Toshkent viloyatidagi Ohangaron daryosi vodiysidagi Ko'lbuloq va Qizilolma yodgorliklarining quyi qatlamlari, Jarsoy topilmalari hamda Qizilqum hududlaridagi Bo'kantog' kabi yodgorliklarni kiritish mumkin. Shulardan eng ahamiyatlisi Selung'ur g'ori hisoblanadi.

Selung'ur g'ori So'x daryosi vodiysida, Qirg'izistonning O'zbekiston bilan chegaradosh bo'lgan Haydarkon qishlog'i chekkasida dengiz sathidan 2000 m balandlikda joylashgan. G'orning kirish qismi So'x vodiysi tubidan 50 m yuqorida, Qatrantov tizmasining quyi qismidan o'rin olgan. G'orning eni kirish qismida 34 m, balandligi 25 m va chuqurligi 120 m ga yetadi. Yodgorlikda dastlabki qazish ishlari A.P. Okladnikov va P.T. Konoplyalar tomonidan 1955- yilda amalga oshirilgan. 1964 -yili M. R. Qosimov eski qazishma devorini tozalash natijasida 110 sm chuqurlikdan jigarrang kremniylashgan jinsdan ishlangan tosh buyumlarni

topgan⁴. A. P. Okladnikov bilan M. R. Qosimovlar ishlari oralig'ida g'orni A. Poshka tadqiq etgan. Uning xabar berishicha, 1,5 m chuqurlikdan gulxan, bir nechta kvarsit buyumlar, suyak teshgich va bigiz qoldiqlari topilgan. A. Poshkaning ta'kidlashicha, "keng, quruq va yetarlicha yorug' g'or, qulay kirish qismiga ega bo'lib, unda yozda ham va qishda ham qulay harorat hukm surganligi eng qadimgi davr odamlarining diqqatini tortmasligi mumkin emas edi"⁵. Bu fikr, 1980 -yillarda boshlangan stasionar qazish ishlari natijasida o'z tasdiqini topdi.

G'orning kirish qismida olib borilgan qazish ishlari natijasida paleolit davriga oid beshta madaniy qatlam aniqlangan, keyinchalik uchinchi madaniy qatlam yana uchta mikroqatlarga ajratilgan. Madaniy qatlamlarning qalinligi 20 sm. dan 40 sm. gacha oralig'ida va ular 0,3 m. dan 1 m. gacha qalinlikdagi sof qatlamlar bilan ajralib turadi. G'orning yotqiziqlari tuflar, alevritlar, tosh siniqlarini o'z ichiga olgan qumoq tuproqdan iborat bo'lib, 8,5 m. gacha chuqurlikda qazilgan. paleolit davri materiallari esa, 2,5 m. dan 6,5 m. gacha chuqurliklardan joy olgan. Ularning eng ko'p to'plangan joyi qazilgan joyning janubiy qismi bo'lib, shimol tomonga qarab madaniy qatlamlar nurab boradi. Biroq, qazishmalar plani hanuzgacha chop etilmagan.⁶ Ma'lum qilinishicha, 1981 -yilda 64 kv. m. joy ochib o'rganilgan. G'orning kesmalari asosida geologik tadqiqot olib borgan M.X. Godin uni ikkita ritmoqalinlikka ajratadi: ularning quyisi 5 va 4 madaniy qatlamlarni o'z ichiga olib, asosan loyli alevritli qatlamlardan iborat; yuqorigisi esa, g'or tomidan qulab tushgan shag'alli valunli materiallar orasida ohak loyli va tufli mayda qatlamlardan tarkib topgan. Yuqori ritmoqalinlik 4 marta yuvilgan, unga 3, 2 va 1 madaniy qatlamlar kiradi. Ushbu qatlamlarning barchasi buzilmagan va ular geologik jihatdan ancha sokin davrda paydo bo'lgan.

Selung'ur makoni tadqiqoti jarayonida 5000 ga yaqin tosh buyumlar qo'lga kiritildi. Yodgorlikda tosh buyumlarni yasashda sariq, jigarrangli yashma, kulrang yashil gilli slanes hamda to'q kulrangli vulqon jinslaridan foydalanilgan. Xomashyo yodgorlikning pastidagi daryo o'zanidan galka shaklida olib kelingan va bu tabiiyki, Selung'ur industriyasining umumiy ko'rinishiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Yodgorlik tosh buyumlari to'plamidagi uchirindilari orasida yirik va qo'pol, zarb

⁴ Касымов М.Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. // ИМКУ. Вып. 7. 1966. - С. 7-13.

⁵ Пошка А. Пещера Сел-Ун-Хур // ВА вып. 2. 1960, -С. 38.

⁶ Исламов У.И. Первая нинепалеолитическая пещерная стоянка в Ферганской долине // ОНУ. №8. 1984. - С. 4; Исламов У.И. Итоги и перспективы изучения пещерной стоянки Сель-Унгур // Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988. -С. 12; Исламов У.И., Оманжулов Т. Пещерная стоянка Сель-Унгур // ИМКУ. Вып. 19. 1984, -С. 5; Исламов У.И., Зубов А.А., Харитонов В.М. Палеолитическая стоянка Сель-Унгур в Ферганской долине // ВА. Вып. 80. 1988, -С. 66; Батыров Б.Х., Батыров А.Р. Ископаемые млекопитающие пещеры Сел-Унгур // Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988. -С. 7; Величко А.А., Кременецкий К.В., Маркова А. К., Ударцев В.П. Палеоэкология ашельской стоянки Сель-Унгур (предварительное сообщение) // Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988, -С. 24; Величко А.А., Арсланов Х.А., Герасимова С.А., Исламов У.И., Кременецкий К.В., Маркова А. К., Ударцев В.П., Чиколени Н.И. (Советская Средняя Азия) Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1990. -С. 76-79; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Некоторые проблемы палеоэкологической реконструкции ашельской стоянки Сель-Унгур // ОНУ. № 12. 1990. -С. 7; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сель-Унгур // Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск. 1992. -С. 50-51.

maydonchalari keng va zarb burchagi katta bo'lganlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Odatda ular kalta o'lchamli, plastinalar deyarli uchramaydi. Levallua tipidagi uchirindilar ham juda kamyob. Aniqlanishi qiyin bo'lgan tosh bo'laklari, fragmetnlari va chiqindilar ko'p uchraydi. Nukleuslar to'plamda ko'p emas, ular asosan haddan tashqari ishlov berilgan tashlandiq ko'rinishlarga ega⁷.

Ikkilamchi ishlov berilgan tosh buyumlar foizi yodgorlikdagi umumiy toshlarning o'ndan birini tashkil qiladi. Tosh qurollar orasida chopperlar, to'g'ri yoki bo'rtib chiqqan qirrali qirg'ichlar, o'yib-kertib ishlangan qurollar, retushlangan tosh bo'laklar va uchirindilar mavjud. Bundan tashqari, to'plamda kliverlar (tosh bolta), qo'l cho'qmorlari, paykonlar va limaslar (ikki uchli paykonlar) uchraydi.

Selung'ur g'ori materiallari madaniy jihatdan Osiyocha ashel madaniyatiga kiritilgan. Ma'lumki, ashel ilk paleolitning Yevropaga xos madaniyatlaridan biri bo'lib, ular asosan bifaslar ishlab chiqarilishi bilan xarakterlanadi. Osiyocha ashel esa undan biroz farq qilib, bifaslar, ya'ni qo'l cho'qmorlari bilan birga kliverlarni ham uchrashi bilan ajralib turadi. Yodgorlik materiallari Old Osiyodagi ilk paleolit davriga oid Ubaydiya makoni materiallari bilan o'xshash ekanligi aniqlangan⁸.

Ilk paleolit davriga oid stratigrafiyalashgan yodgorliklardan tashqari Selung'urga yaqin bo'lgan Chashma qishlog'idagi So'x daryosi terrassasidan ayrim yig'ma materiallar ham topilgan⁹. Bu yerdan juda kam materiallar yig'ilganligi sababli, ularni ilk paleolitga oid deyish qiyin. Bunga o'xshash materiallar Farg'ona depResiyasining bir qator joylaridan topilgan. Bunga A.p. Okladnikov tomonidan 1954 -yili Qayrag'och qishlog'idagi Xoja Baqirg'on daryosi kesmalaridan topilgan chopperik ni ham misol sifatida keltirish mumkin¹⁰.

Ilk paleolit davriga oid yana bir yodgorlik Ko'lbuloqning quyi (1- 22) qatlamlaridir¹¹. Yodgorlik 1962 -yili O. M. Rostovsev tomonidan ochilgan va 1963 -yildan 1990 -yillargacha M. R. Qosimov tomonidan o'rganilgan. Ko'lbuloq Angren shahridan 6 km g'arbroqda, Chotqol tizmasining janubi-sharqiy etaklarida, Qizilolmasoy hamda Jarsoy oralig'ida dengiz satxidan 1000 m baladlikda

⁷ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сель-Унгур // Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск. 1992. - С.143-163;

⁸ Исламов У.И. Первая нижнепалеолитическая пещерная стоянка в Ферганской долине // ОНУ. №8. 1984. - С. 4.

⁹ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Древнепалеолитические орудия труда из Ферганской долины // ОНУ. № 4. 1987. -С. 6.

¹⁰ Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург. 1996. -С. 107.

¹¹ Окладников А.П. Исследования памятников каменного века Таджикистана // МИА. № 66. 1958 а. -С. 68; Касымов М.Р. Многослойная палеолитическая стоянка Кульбулак в Узбекистане // МИА. № 185. 1972 б. - С. 17; Касымов М.Р. Результаты работ Ахангаранского палеолитического отряда по данным раскопок 1975 г. // ИМКУ. № 14. 1978. -С. 12; Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана // Автореферат док. Дисс. Новосибирск. 1990. -С. 40; Касымов М.Р., Тетюхин Г.Ф. К вопросу об археолого-геологическом возрасте многослойной палеолитической стоянки Кульбулак // ИМКУ. Вып. 16. 1980, с. 13; Касымов М.Р., Годин М.Х. О комплексном исследовании палеолитической стоянки Кульбулак // ИМКУ. Вып. 17. 1982. С. 9; Касымов М.Р., Годин М.Х. Важнейшие результаты исследований многослойной стоянки Кульбулак // ИМКУ. Вып. 19. 1984. -С. 8; Касымов М.Р., Тетюхин Г.Ф., Годин М.Х., Хусанбаев Д.И. К вопросу о комплексном исследовании многослойной палеолитической стоянки Кульбулак в Узбекистане // КСИА. Вып. 181. 1985, с. 10;

joylashgan. Shurflar va qazishmalar asosan shu nomli buloqning atrofida o'tkazilgan.

Ushbu 22 ta qatlamlardan 4000 ga yaqin tosh buyumlar yig'ib olingan bo'lib, ular orasida o'yib-kertib ishlangan, tishsimon qurollar, qirg'ichlar, qo'pol va yirik nukleuslar hamda mikok tipidagi qo'l cho'qmorlari aniqlangan. Ularni tayyorlashda malla va kulrang kremniydan, yashma, kremniylashgan ohaktosh, kvars kabi qator tosh jinslaridan foydalanilgan hamda ular sarg'ish patinalarga ega. Biroq bu qatlamlar juda kam maydonda (9 m^2) aniqlangan. Qazishmaning chuqurligi 19 m. gacha yetadi.

Ko'lbuloqning ilk paleolit davriga oid quyi qatlamlari tipologik jihatdan 550 000 yillar bilan sanalangan, madaniy jihatdan esa yodgorlik materiallari O'rta Osiyo va Qozog'istonda yagona bo'lgan Ko'lbuloq madaniyatiga ajratilgan¹².

Ko'lbuloqdan 1 km. shimoliy-g'arbda Qizilolmasoy 2 topilma joyining g'arbiy chekkasidan N. K. Anisyutkin tomonidan yana bir ilk paleolitga oid qatlam aniqlangan¹³. Bu yerdan Neogen yotqiziqlarining bevosita ustki qismidan 20 sm. qalinlikdagi qatlamdan 214 ta tosh buyum yig'ib olingan. Ular orasida Ko'lbuloqning quyi qatlamlaridagiga o'xshash bifas limand topilgan. Bu holat Qizilolmadan ma'lum vaqt mobaynida ko'lbuloqliklar ustaxona sifatida foydalanganliklaridan dalolat beradi. Yodgorlik keyingi tadqiqotlar uchun keng istiqbollarni ochib berishi mumkin.

Ohangaron vodiysidagi ilk paleolit davriga oid topilmajoylardan yana biri Ko'lbuloqdan 1 km. shimoliy- sharqda Qizilolma bilan bir xil balandlikdagi ohaktosh qoyalar etagida joylashgan Jarsoy 2 topilma joyi hisoblanadi. Bu yerdan ikkita qo'pol ishlangan bifas va atipik kliverlarni eslatuvchi tosh qurollar topilgan. To'plamning artefaktlari orasida levallua texnikasining foizi juda yuqori bo'lib, bunday industriya O'zbekistonning boshqa hududlarida uchramaydi.

Ilk paleolit davriga oid ayrim yig'ma materiallar Qizilqum hududlaridan ham topilgan. Bunga 2000 yili M. Xo'janazarov tomonidan Bo'kantog' etaklaridan topilgan bir dona kremniylashgan ohaktoshdan ishlangan bifas yorqin misol bo'la oladi. Qizilqumdagi ilk paleolit materiallari hanuzgacha chop etilmagan. Ilgari ilk paleolitga oid deb topilgan hamda chop etilgan Qizilqumdagi Yesen 2, Qoraquduq, Shaxpaxti, Ko'kayoz 1, 2 va 3 yodgorliklari keyingi olib borilgan tadqiqotlar natijasida so'ngi paleolitga o'tish davriga xos deb topilgan¹⁴.

O'zbekiston paleolit davrining turli-tuman va ilmiy jihatdan qiziqarli arxeologiya yodgorliklariga boy bo'lishi bilan birga, bu davr tarixi, yodgorliklarning talqini borasida bir qator munozarali muammolar yechilmagan masalalar ham mavjuddir. Quyida ushbu muammolar to'g'risida baholi qudrat fikr yuritamiz.

¹² Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана \\\ Автореферат док. Дисс. Новосибирск. 1990. -С. 40.

¹³ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. Новые исследования палеолита в Ахангаране (Узбекистан). Санкт-Петербург. 1995. -С. 12-27.

¹⁴ Сайфуллаев Б.К., Курбонбоев И.М. Қизилқумдаги палеолит даври устахоналарини ўрганишга доир (Есен 2, Қорақудуқ, Шахпахти, Кўкаёз 1, 2 ва 3 материаллари асосида). ИМКУ. № 36. 2008. -С. 12.

Qadimgi tosh asri nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyoda shakllangan kishilik jamiyatining eng ko'hna qiziqarli va muhim ahamiyatga molik tarihiy davridir. Ushbu davr yodgorliklaridan biri Farg'ona vodiysidagi Selung'ur manzilgohidir. U texnik-tipologik, paleontologik, ximik (Uran-ion uslubi asosida sanalash), palinologik, geologik, paleoantropologik va boshqa uslublar bilan anchayin yaxshi o'rganilishiga qaramasdan, yodgorlik materiallarining tahlili atrofida bir qator munozaralar mavjud bo'lib, dastlabki va asosiysi Selung'ur sanasi masalasidagi munozarali fikrlardir. Yodgorlikni bevosita o'rgangan tadqiqotchilar¹⁵ manzilgohning sanasi 1,5 million yillar bilan belgilashgan. Biroq, qator chet el adabiyotlarida uning anchayin yoshartirilgan xronologik davrlarga xosligi to'g'risida fikrlar mavjud¹⁶. Tilga olingan xorijiy mualliflar Selung'ur qatlamlarining sanasini 300-250 ming yillar bilan davrlaganlar. Yodgorlikdan topilgan antropologik materiallarning o'rganilishi ham munozaralarga sabab bo'lishi mumkin. Negaki, bu topilmalar arxantropolarga xos deb talqin qilingan. Biroq, arxantrop termini o'tgan asrning 50 -yillarida qabul qilingan bo'lib, ular qatoriga gibbonlar ham kiritilgan. Keyingi yarim asrdan ziyodroq vaqt mobaynida qilingan kashfiyotlar gominidlarning nisbatan aniqroq fizik tiplarini belgilash imkonini berdi va arxantrop termini ilmiy muomiladan chiqarib tashlandi. Bu narsa paleantrop va neantrop terminlariga ham taalluqlidir. Ushbu ilmiy yangiliklarga ko'ra, hozirda arxantrop termini odam ajdodlarining fizik tipini belgilamaydi. Selung'ur tadqiqotchilari yodgorlikning barcha madaniy qatlamlarini ashel davriga oid deb hisoblaydilar¹⁷. Biroq, Selung'urni bunday sanalash ayrim mutaxassislar tomonidan shubha ostiga olingan. "Selung'ur industriyasini ashel deb, talqin qilish jiddiy shubha uyg'otadi: to'plamda haqiqiy qo'l cho'qmorlari bo'lmagan holatda ashel to'g'risida gapirish mumkinmi? Boshqa bir tomondan, xom-ashyoning xarakteri qayroqtosh (daryo galkasi), chopperlarning mavjudligi, tipologik jihatdan aniq nukleuslarning yo'qligi, kalta va yirik yo'nalg'ilarning ko'pligi hamda plastinalar yoki ularga yaqin yo'nalg'ilarning uchramasligi Selung'urni O'rta

¹⁵ Исламов У.И. Первая нинепалеолитическая пещерная стоянка в Ферганской долине // ОНУ. №8. 1984, с. ; Исламов У.И. Итоги и перспективы изучения пещерной стоянки Сель-Унгур // Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988, с. 12; Исламов У.И., Оманжулов Т. Пещерная стоянка Сель-Унгур // ИМКУ. Вып. 19. 1984, с. 24; Исламов У.И., Зубов А.А., Харитонов В.М. Палеолитическая стоянка Сель-Унгур в Ферганской долине // ВА. Вып. 80. 1988, с. 66; Батыров Б.Х., Батиров А.Р. Ископаемые млекопитающие пещеры Сел-Унгур // Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988, с.; Величко А.А., Кременецкий К.В., Маркова А. К., Ударцев В.П. Палеоэкология ашельской стоянки Сель-Унгур (предварительное сообщение) // Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988, с. 72; Величко А.А., Арсланов Х.А., Герасимова С.А., Исламов У.И., Кременецкий К.В., Маркова А. К., Ударцев В.П., Чиколини Н.И. (Советская Средня Азия) Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1990, с. 166; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Некоторые проблемы палеоэкологической реконструкции ашельской стоянки Сель-Унгур // ОНУ. № 12. 1990, с. 11; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сель-Унгур // Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск. 1992, с. 32.

¹⁶ Исламов У.И. Первая нинепалеолитическая пещерная стоянка в Ферганской долине // ОНУ. №8. 1984, с. ; Исламов У.И. Итоги и перспективы изучения пещерной стоянки Сель-Унгур // Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988, с. ; Исламов У.И., Оманжулов Т. Пещерная стоянка Сель-Унгур // ИМКУ. Вып. 19. 1984, с. 47;

¹⁷ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сель-Унгур // Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск. 1992, с. 32;

Osiyoning, xususan Qoratorov va Laxuti yodgorliklari materiallari bilan yaqinligini ko'rsatadi. Agar Selung'urning barcha qatlamlari materiallarini umumlashgan holatda olinsa, bunday deyish, toki yodgorlikning har beshala qatlamlari materiallari qatlam-qatlam sinchiklab o'rganilguniga qadar yagona to'g'ri xulosa bo'lib qoladi. Bu holda Janubiy Tojikiston materiallari bilan taqqoslanganda, Selung'urda ayrim mustega xos tosh buyumlar shakllari mavjud va hatto Selung'ur biroz arxaik ko'rinishga ega. Aftidan, Selung'urni ilk paleolitga xos yodgorlik, deb hisoblash bilan birga, uni ashelga emas, qayroqtoshli madaniyatlar doirasiga kiritish to'g'ri bo'lur edi. Ammo, bunday xulosaga kelgan yuqoridagi mutaxassislar Selung'urda qo'l cho'qmorlarining seriyalari mavjudligidan bexabar ko'rinadi.

Selung'ur qatlamlarining geologik qadimiyligi ham hozirda o'zining to'liq isbotini topgan emas. O'. I. Islomov va uning xodimlarining maqolalarida yodgorlik qatlamlarining ilk pleystosenga oidligi ishonch bilan ta'kidlanadi. Biroq, buni isbotlovchi dalillar hali yetardi emas¹⁸. Palinologik va faunistik materiallarning guvohlik berish icha, yodgorlik materiallari o'rta pleystosen davriga xosdir¹⁹. Tosh buyumlarining texnik-tipologik tahlili esa, yodgorlikning absolyut sanasi haqida yetarli ma'lumotlarni bermaydi²⁰. Shunday bo'lsada, Selung'ur O'rta Osiyoda hozirda ma'lum bo'lgan yodgorliklar ichida eng qadimgilaridan biridir. Bu haqda antropologik, paleontologik va arxeologik materiallarning birgalikda topilishi hamda yuqori madaniy qatlam ustidan olingan travertin bo'lagi bo'yicha amalga oshirilgan Uran-ion uslubi bilan sanalash natijalari:²¹ 126 +/-5 ming yil (LU- 936) shundan guvohlik beradi²². Shunisi achinarliki, yuqorida keltirilgan ayrim munozarali fikrlar yodgorlik materiallarini yaxshi bilmaslik asosida kelib chiqadigan, tushunmovchiliklardan boshqa narsa emas. Shuning uchun, yodgorlik materiallari butun dunyo olimlarini qiziqtirib qolgan bir paytda uning haqida to'liq va aniq texnik-tipologik tip-varaqalari ishlab chiqilishi lozim.

1.2. Ko'lbuloq makoni hamda uning atrofidagi paleolit davri yodgorliklari.

Ohangaron daryosi vohasi qadimiy va xushmanzara maskanlardan biri bo'lib, bu yerda qadimgi tosh davriga oid ko'plab yodgorliklar mavjud. Paleolit davriga oid dastlabki yodgorliklar 1962 yilda Samarchuk hamda Obliq qishloqlari atrofidan O.M. Rostovsev boshchiligidagi yosh o'lkashunoslar tomonidan topilgan.

¹⁸ Вишняцкий Л.Б. Изучение палеолита Средней Азии (материалы, методы, концепции) \ \ СА. № 1. 1989а, с. 15;

¹⁹ Ранов В.А. О восточной границе мустьерской культуры \ \ Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1990, с. 264;

²⁰ Ранов В. А., 1993. Decouverte des civilisations d'Asie Centrale. Les dossiers d'Archeologie №185 /Septembre 1993. Paris, p. 6.

²¹ Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург. 1996, с. 107; Величко А.А., Арсланов Х.А., Герасимова С.А., Исламов У.И., Кременецкий К.В., Маркова А. К., Ударцев В.П., Чиколлини Н.И. (Советская Средня Азия) Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1990, с. 78-79.

²² Ранов В.А., Додонов А.Е. О периодизации и стратиграфии нижнепалеолитических стоянок Средней Азии \ \ Проблемы взаимосвязи природы в каменом веке Средней Азии. Ташкент. 1988, с. 71-72.

dala-qidiruv ishlari natijasida Ko'lbuloq makoni hamda bir qator toshga ishlov berish ustaxonalari aniqlangan.

Ohangarondagi ochiq tipdagi yodgorliklardan madaniy qatlamlari saqlanib qolgan Ko'lbuloq makoni alohida ahamiyatga egadir. Ushbu makon Angren daryosining o'ng qirg'og'ida, Obliq qishlog'idan 5 km shimoli-g'arbda joylashgan. Ko'lbuloq makonini o'rganishni uchta bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich arxeolog, olim M.R. Qosimov nomi bilan bog'liq bo'lib, u yodgorlikning ochilishidan, ya'ni 1962 yildan 1990 yillargacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Ushbu davrda amalga oshirilgan tadqiqot natijalari qator ilmiy maqolalarda hamda M.R. Qosimovning doktorlik dissertatsiyasida o'z aksini topgan²³.

M.R. Qosimov tomonidan²⁴ Ko'lbuloqda olib borilgan ko'p yillik tadqiqotlar natijasida 600 m² maydon ochib o'rganilgan va bu yerdagi №3 shurfdan ashel (22 ta qatlam), muste (24 ta qatlam) hamda so'ngi paleolit davriga oid (3 ta qatlam) 49 ta madaniy qatlamlar aniqlangan bo'lib, ulardan ko'plab tishsimon, o'yib-kertib ishlangan, qirg'ichlar hamda tayyak tipidagi tosh qurollar topildikim, bu O'rta Osiyoda o'xshashi yo'q madaniyatga xos edi²⁵.

M.R. Qosimovning fikriga ko'ra, Ko'lbuloq makonining mohiyati, uning ashel, muste va so'ngi paleolit davriga mansub ko'p qatlamliligidadir. Shuningdek, bu qatlamlar ustma-ust joylashib, bir-birini uzluksiz davom ettiradi, ya'ni paleolitning ashel davridan muste bosqichiga va o'z navbatida, mustedan so'ngi paleolit davriga o'tish jarayonlari yodgorlikda o'z aksini topadi: «shu ma'noda Ko'lbuloq bir tomondan, Old Osiyo va Kavkaz, ikkinchi tomondan, Oltoy, Sibir, Mo'g'uliston, Hindiston va pokiston hududlarini o'rganishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Hozirda O'rta Osiyoda yagona bo'lgan, paleolit davrining barcha bosqichlarini o'zida aks ettirgan va yaxshi stratigrafiyalashgan ko'p qatlamli Ko'lbuloq makoni ushbu hududlarning eng qadimgi tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi...»²⁶.

²³ Касымов М.Р. Культуры и варианты палеолита Узбекистана // Каменный век Средней Азии и Казахстана. Ташкент, 1972. – С. 16; Касымов М.Р. Многослойная палеолитическая стоянка Кульбулак в Узбекистане // МИА, № 185. М. 1972а. – С. 31; Касымов М.Р., Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана. Автореф. дисс. докт. ист. наук. Новосибирск, 1990 – С. 13; Касымов М.Р. О проблемах изучения палеолита на территории Средней Азии и Южного Казахстана // ОНУ, № 9, Ташкент, 1990а. – С. 22; Касымов М.Р., Годин М.Х. Важнейшие результаты исследований многослойной стоянки Кульбулак // ИМКУ, вып. 19. Ташкент. 1984. – С. 46-48; Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердыев Т.Н., Домустьерские культуры на территории Узбекистана // Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной, Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992. – С. 18-20; Касымов М.Р., Дуке Х., Гречкина Т.Ю. О новых данных по каменному веку Туябугуза // ИМКУ, вып. 15. Ташкент. 1979. – С. 11-15; Касымов М.Р., Коробков И.И., Годин М.Х. Стратиграфия, литология и характеристика каменной индустрии многослойной стоянки Кульбулак // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988. – С. 42-43.

²⁴ Касымов М.Р. Культуры и варианты палеолита Узбекистана // Каменный век Средней Азии и Казахстана. Ташкент. 1972. – С. 17.

²⁵ Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана. Автореф. дисс. докт. ист. наук. Новосибирск, 1990. – С. 13.

²⁶ Касымов М.Р. О проблемах изучения палеолита на территории Средней Азии и Южного Казахстана // ОНУ, № 9, Ташкент, 1990а. – С. 22; Касымов М.Р., Годин М.Х. Важнейшие результаты исследований многослойной стоянки Кульбулак // ИМКУ, вып. 19. Ташкент. 1984. – С. 46-48; Касымов М.Р., Годин

O'zbekiston-Rossiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasining ushbu qazishmalarida Ko'lbuloqning so'ngi paleolitga oid uchinchi madaniy qatlami uchramagan. Yodgorlikning ba'zi zonalarida uchinchi madaniy qatlamning uchramasligi ilgari ham qayd etilgan edi.

Shunday qilib, 1994-1995 yillarda Ko'lbuloq makonida olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan quyidagi xulosalar olingan:

1) yodgorlik ko'p qatlamli, garchi ularning soni turli qazishmalarda turlicha bo'lsa-da;

2) so'ngi paleolit davriga oid yuqori qatlamlarning tosh inventari ko'plab tishsimon va o'yib-kertib ishlangan qurollarga ega va bu M.R. Qosimovning O'zbekiston hududlarida industriyasi alohida tishsimon xarakterdagi "Ko'lbuloq madaniyati" hukm surganligi haqidagi fikrini tasdiqlaydi, garchi, bu yetarlicha asoslangan bo'lmasa-da;

3) uchinchi va qisman to'rtinchi madaniy qatlamlarning industriyasi tipik mustega oid tosh buyumlar – qirg'ichlar, paykonlar, o'yib-kertib ishlangan shuningdek, tishsimon qurollarning son jihatidan ustunligi bilan xarakterlanadi. Biroq, o'yib-kertib ishlangan va tishsimon qurollarning ko'pchiligi inson faoliyati bilan bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Shu ma'noda, F. Bordning tishsimon mustega bergan xarakteristikasini eslash joiz: "tishsimon mustening asosiy belgilaridan biri unda paykonlarning uchramasligi yoki ozchilikni tashkil qilishi hamda, tipik qirg'ichlarning kamligidir". Ushbu holatlar N.K. Anisyutkinning Sharqiy Ovro'padagi tadqiqotlarida ham o'z isbotini topgan²⁷.

N.K. Anisyutkinning xulosa qilishicha, 4-qatlamning industriyasi tashqaridan emas, balki yodgorlikning hududidagina aralashib ketgan tosh buyumlardan iborat. Agar muste davriga oid turli qatlamlardagi yemirilgan buyumlarning uchrashini hisobga olsak, aftidan, yodgorlikda u yoki bu darajada deformasiyaga uchragan qatlamlarning mavjudligini e'tirof etish mumkin.

Ko'lbuloqning birinchi va uchinchi qatlamlarini V.A. Ranov bitta yagona qatlam va bu qatlam buloq botig'ining relefiga monand ravishda hosil bo'lgan, deb hisoblaydi²⁸: «ushbu qatlamlarni muallif so'ngi paleolit davriga oidligini tan oladi. Ulardan quyidagi muste davri qatlamlari ko'rinmaydi. Ta'kidlash joizki, ushbu muste davri qatlamlarining ayrim joylari turli xil belgilarga: ayrim joylari kul dog'larga, ammo ko'pincha, tosh qurollarning mavjudligiga ko'ra aniqlangan. Ammo, artefaktlar qatlamlarning oraliq maydonlarida ham uchraydi va aftidan, ushbu qatlamlar shartli ravishda ajratilgan. Bu holat shuning bilan ham tasdiqlanadiki, VI madaniy qatlam yashil loyli qatlamning tagi bilan tutashgan va qisman uning ichki qismidagi cho'kindilarga borib taqaladi. Bundan kelib chiqib, ushbu qatlamning hamma joyini bir vaqtda paydo bo'lgan, deb bo'lmaydi ehtimol, bu 4-madaniy qatlamdan boshlab barcha madaniy qatlamlarga ham tegishlidir.

М.Х., Худайбердыев Т.Н., Домустьерские культуры на территории Узбекистана // Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной, Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992. – С. 18-20.

²⁷ Анисюткин Н.К. 1990. – С. 25.

²⁸ Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. Душанбе. 1974. – С. 193.

Uchinchi va to'rtinchi madaniy qatlamlarning tarkibi bir xil cho'kindi jinslardan iborat». Ko'lbuloqning madaniy qatlamlari Z.A. Abramova tomonidan «Paleolit SSSR» nomli tomida ham tilga olingan. Z.A. Abramova M.R. Qosimov singari yodgorlikning so'ngi paleolit davri materiallarini mahalliy mustedan o'sib chiqqanligini va uning alohida ko'lbuloq madaniyatiga oidligini tan oladi²⁹.

Ko'lbuloq makonini o'rganishning **uchinchi bosqichi** 2007 yilda O'zbekiston-Rossiya-Belgiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan boshlandi. Bundan maqsad yodgorlikning stratigrafik holatini o'rganishda aniqliklar kiritish, aniq stratigrafiyalashgan qatlamlardan yangi arxeologik materiallar qazib olish, uning qatlamlarini sanalash uchun na'munalar olish hamda Ko'lbuloqni yangi tabiiy-ilmiy fanlar uslublarini jalb qilish asosida tadqiq qilishdan iborat edi.

Ushbu bosqichda olib borilgan tadqiqotlar (2007-2010 yy.), yangi qazishlar hamda eski qazishmalarni tozalashlar natijasida 12 ta stratigrafik qatlamlar aniqlandi. Qazishmalar 5 m² maydonda olib borildi va natijada, tosh buyumlarga juda boy yuqori qatlamlar ochildi (2-3 litologik qatlamlar). Qazishmalar jarayonida 2-qatlamdagi artefaktlar kichik sof qatlam bilan ajralgan ikkita qismda konsentrsiyalashganligi aniqlandi. Har ikkala qatlamlarning industriyasi tipologik jihatdan o'xshash va faqat yosh jihatidan bir biridan biroz farq qiladi. Stratigrafik va Sedimentologik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu qatlamning genezisi prolyuvial jarayonlar bilan bog'liqligi aniqlandi. Ammo ularning shakllanishida sel oqiziqlari ham qisman ishtirok etgan va bu qatlamdagi materiallarning qisman aralashib ketishiga olib kelgan³⁰. Shunday bo'lsa-da, ushbu qatlamdagi arxeologik materiallarning planigrafik tahlili, shuningdek, bu joyda tosh parraxalarning (Cheshuyki) ko'pligi qatlamning juda kam miqdorda aralashib ketganligini ko'rsatmoqda. Undan quyidagi 3-qatlamning materiallari esa, buyumlarning katta aralashuviga xos belgilarga ega. Yana xulosa qilinadiki, 5-dan 10-qatlamgacha bo'lgan katta stratigrafik qalinlik arxeologik jihatdan sof yotqiziqlar hisoblanadi.

2008 yildagi tadqiqotlar tufayli genezisi Lesssdan bo'lgan 12-litologik qatlam ochib o'rganildi. Ushbu qatlamdan o'rta paleolit davriga oid yuzasi yaxshi saqlangan bir nechta tosh buyumlar qazib olindi. Aytish mumkinki, bu "insitu" madaniy qatlamdir, deya talqin qilingan. 2-litologik qatlamning tosh buyumlarini yasash uchun asosan mahalliy to'q-kulrang, oq va sarg'ish chaqmoqtoshdan, ba'zan jigarrang va to'q kulrang chaqmoqtoshlardan foydalanilgan.

2-madaniy qatlamdan olingan tosh buyumlarning bir qismi yorqin mikroplastinka qiyofasiga ega. Bu yerda toshlarni chaqmoqlashdan asosiy maqsad plastinkalar hamda to'g'ri yoki biroz egik profilli plastinalar ajratib olish bo'lgan. Ular ensiz yoki prizmasimon nukleuslardan chaqmoqlab olingan.

2-madaniy qatlam industriyasidagi chaqmoqlash jarayoni plastinalar (22,2%),

²⁹ Абрамова З.А. Палеолит Средней Азии и Казахстана. В томе: Палеолит СССР. М.: Изд-во «Наука». 1984. – С. 308.

³⁰ Деревянко А.П., Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Фляс Д. Страницы истории древней культуры Узбекистана // Ўзбекистон пойтахти 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция, Тошкент, 2009. – Б. 7-16.

plastinkalar (21,1%) va mikroplastinkalar (21,7%) olishga qaratilga³¹. Biroq, ta'kidlash joizki, plastinalar hamda mikroplastinalar chaqmoqlab olish texnikasi turli xil strategiyalarda amalga oshirilgan bo'lib, ular hyech qachon bitta nukleusdan davomiy ravishda olinmagan. Zarb maydonchalarning tipologik tahlili shuni ko'rsatdiki, plastinalar, uchirindilar va texnik yo'nilg'ilar olish uchun odatda Tekis zarb maydonchalar shakllantirilgan bo'lsa, plastinkalar hamda mikroplastinkalarning zarb maydonchalari nuqtasimondir.

2009 yilgi mavsumda Ko'lbuloqning so'ngi paleolit davriga oid qatlamlaridan 18 m² maydoni ochib o'rganildi (ta'kidlash joizki ushbu bosqich tadqiqotlarida M.R. Qosimov tomonidan aniqlangan 1-madaniy qatlam uchramagan)³². Makonning so'ngi paleolit davriga oid gorizontlari ikkinchi litologik qatlamda joylashadi va u prolyuvial genezisga ega bo'lib, yashil-kulrang loyli (supes), turli hajmdagi qumli hamda shag'alli aralashmalardan iborat. Ushbu qatlam prolyuvial xarakterga ega bo'lishiga qaramasdan, undagi arxeologik materiallar juda kam aralashgan. Bu haqda to'plam artefaktlari orasida ko'p sonli tosh parraxalarning mavjudligi hamda tosh buyumlarning gorizonttal xolda qorni bilan yotganligi guvohlik beradi. 2-qatlamning materiallari ikkiga ajralgan qatlamchalarda konsentrsiyalashgan holatda yotadi va bu shu davrda odamlar makonni qisqa mavsumlar oralig'ida ikki marta o'zlashtirganliklaridan dalolat beradi. Shuning uchun 2-litologik qatlam ikkiga ajratilgan bo'lib, yuqori 2.1-madaniy qatlam qisqa vaqt mobaynida o'zlashtirilgan bo'lsa, ikkinchi 2.2-madaniy qatlam ibtidoiy odam tomonidan uzoq vaqt davomida intensiv istiqomat qilinganligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, texnik-tipologik ma'lumotlarga asosanib, Ko'lbuloqning 2-madaniy qatlami industriyasini so'ngi paleolitning ikkinchi yarmi bilan sanalash mumkin. Yodgorlikning har ikkala qatlami komplekslari madaniy xosligiga ko'ra yagonadir va genetik jihatdan yaqindir. Bundan tashqari, tadqiq qilingan maydon industriyasining tarkibiga ko'ra, uni uzoq vaqt mobaynida yo'nilg'i-tanovorlar hamda tosh qurollar ishlab chiqarishga mo'ljallangan ustaxona deyish mumkin.

Ko'lbuloq atrofidagi yodgorliklarning o'rganilishi.

Qizilolma-2. Ushbu topilmajoy Ko'lbuloqdan 1 km shimoli-g'arbda, sharqdan g'arbgga qarab cho'zilib ketgan oxakli qoyalarning pastki qismida va dengiz sathidan 1200 m balandlikda joylashgan. Yodgorlik 1962 yilda O.M. Rostovsev tomonidan ochilgan³³. Qizilolma-2 yodgorligidan o'rta paleolit davriga

³¹ Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Фляс Д., Павленок К.К., Исламов У.И., Лукьянова Г.Д. Индустрия слоя 23 стоянки Кульбулак по материалам раскопок 2010 года // Проблемы археологии, этнографии и антропологии Сибири и сопредельных территорий: Мат-лы годовой сессии Ин-та археологии и этнографии СО РАН 2010 г. – Новосибирск: Изд-во Ин-та археологии и этнографии СО РАН, 2010. – Т. XVI. – С. 106.

³² Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Фляс Д., Павленок К.К., Исламов У.И., Лукьянова Г.Д. Индустрия слоя 23 стоянки Кульбулак по материалам раскопок 2010 года // Проблемы археологии, этнографии и антропологии Сибири и сопредельных территорий: Мат-лы годовой сессии Ин-та археологии и этнографии СО РАН 2010 г. – Новосибирск: Изд-во Ин-та археологии и этнографии СО РАН, 2010. – Т. XVI. – С. 107.

³³ Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана. Автореф. дисс. на соискание ученой степени доктора наук. Новосибирск. 1990. – С. 8.

oid kompleks aniqlangan bo'lib, u toshlarni chaqmoqlash hamda qisman tosh qurollar yasashga mo'ljallangan ustaxona ekanligi³⁴ shuningdek, xom-ashyo konlari yaqinida joylashganligi aniqlangan. Yodgorlikning ustki qismidan yig'ib olingan materiallar o'rta va so'ngi paleolit davrlariga oid deb topilgan. Qizilolma-2 ning sharqiy qismi buldozer yordamida Neogen davri qatlamlarigacha kesib yuborilgan va ushbu Neogen davri qatlamining ustidan 25 sm lik madaniy qatlam aniqlanib, undan 214 ta tosh buyum yig'ib olingan edi. Ushbu tosh buyumlar orasida qirg'ichlar, o'yib-kertib ishlangan qurollar va bir dona bifas-limand va boshqalar aniqlangan. Ushbu tosh buyumlar ilk paleolit davri bilan sanalangan va Toshkent vohasidagi eng qadimgi materiallar hisoblanadi.

1994 yilgi Ko'lbuloq va uning atrofidagi tadqiqotlar O'zbekiston-Rossiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan amalga oshirildi. Unga O'zbekiston tomonidan akademik O'.I. Islomov, Rossiya tomonidan esa RFA MMTI professori N.K. Anisyutkinlar boshchilik qilishdi. O'sha paytlargacha Qizilolma-2 ustaxonasi o'rta hamda so'ngi paleolit davriga oid hisoblanardi. Bu yerdagi Neogen qatlamlarning bevosita ustki qismida yotadigan ilk pleystosen davriga oid qatlamdan yig'ilgan materiallar Qizilolmani ilk paleolit davrida ham hukm surganligini ko'rsatdi³⁵.

2007-2008 yillarda O'zbekiston-Rossiya paleolitchilar guruhi Qizilolma-2 da tadqiqot ishlarini davom ettirdi, natijada uni o'rganishda qator aniqliklar kiritildi. Qizilolma 2 ustaxonasi Ko'lbuloqdan 66 m balandlikda joylashgan. Mazkur ustaxonada arxeologik materiallar argonogen oxaktoshlarga tutashgan adirli-Lessli yotqiziqlardan tarkib topgan. 2007 yilda ushbu joyda bir qator tozalash ishlari olib borildi va qazishmalar uchun qulay maydon belgilab olindi. 2008 yilda esa, yodgorlikda 8 m² ni tashkil qiluvchi qazishma amalga oshirildi. 4 m gacha chuqurlikdagi ushbu qazishmadan topilmalarga boy 3 ta litologik qatlam aniqlandi. Yuqori qatlam (1-qatlam) qadimda qayta hosil bo'lgan va dellyuvial aralash Lesssdan iborat. 2-qatlamning yotqiziqlari selli genezisga ega, 3-qatlam esa anchayin sokinlik davrida xosil bo'lgan yotqiziqlardan iborat. Har uchala qatlamlardan topilgan arxeologik materiallar so'ngi paleolit davriga xos ko'rinishga ega³⁶ bo'lib, ushbu qatlamlardan olingan tosh industriyalar so'ngi paleolit davrining birinchi yarmiga oid deb topildi.

Jarsoy. Ushbu topilmajoy Ko'lbuloqdan 1 km shimoli-sharqda joylashib, 1994 yilda K.A. Kraxmal tomonidan aniqlangan. 1995 yilda ushbu soydan 30 ga yaqin tosh buyumlar yig'ib olinib, artefaktlar o'rta paleolit davriga oid deb aniqlangan. Ushbu industriyaning o'ziga xos xususiyati unda Levallua texnikasining yuqori darajada taraqqiy topganligi hisoblanadi va uning

³⁴ Касымов М.Р. Памятники каменного века в долине Ангrena // ОНУ. Ташкент, 1967. №2. – С. 57-58; Касымов М.Р. Кремнеобрабатывающие мастерские и шахты каменного века Средней Азии. Ташкент, 1972. – С. 31.

³⁵ Исламов У.И., Анисюткин Н.К., Крахмаль К.А. Древнепалеолитический памятник Кызылалма // ОНУ. Ташкент, 1994. № 9-10. – С. 53-54.

³⁶ Деревянко А.П., Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Фляс Д. Страницы истории древней культуры Узбекистана // Ўзбекистон пойтахти 2200 ёшда. Тошкент шахрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция,- Тошкент, 2009. – Б. 7-16.

O'zbekiston paleolitida qiyosi yo'q. Jarsoy materiallariga analogiya sifatida Tojikistondagi Xudji materiallari keltiriladi³⁷. So'ngra, 100 m chamasi yuqoriroqdan Jarsoy-2 punkti aniqlanib, undan ham bir necha o'nlab tosh buyumlar yig'ib olingan. Ular o'zining arxaikligi bilan ajralib turadi va tarkibida qo'pol bifaslar hamda kliverlar (tosh bolta) uchraydi. Shuning uchun ham, uning industriyasi ilk paleolit davri bilan sanalangan. Jarsoyning har ikkala industriyasi ham yashmadan yasalgan buyumlardan iborat³⁸.

Toshsoy. O'zbekiston-Rossiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan 1994 yilda ilk paleolit davriga oid yangi Toshsoy yodgorligi ochib o'rganildi. Yodgorlik Toshkent viloyatining Ohangaron tumani hududida, Ko'lbuloqdan 1,5 km shimolroqda, Angren daryosining o'ng irmog'i hisoblangan Toshsoydan 250 m g'arbroqda joylashgan³⁹. Yodgorlikning xarakterli xususiyati, uning qadimgi yuqori terrasada joylashganligi shuningdek, chopperlar, o'yib-kertib ishlangan qurollar hamda klekton tipidagi uchirindilardan iborat qadimiy industriyaga egaligidadir. Yodgorlikning tosh buyumlari orasida yashmasimon va mallarang hamda kulrangli chaqmoqtosh g'o'lalar bo'laklaridan yasalgan chopquvchi qurollar ham mavjud. Toshsoy daryosining o'ng qirg'og'idagi o'rta terrasasidan topilgan o'nlab mustye-levallua fasiyasiga mansub tosh buyumlar to'plami ham juda qiziqarlidir⁴⁰. To'plam yo'nilg'ilarining ustki tarafi konvergent hamda parallel negativlar izlariga ega bo'lib, ularning barchasi fasetkalashtirilgan va bo'rtib chiqqan zarb maydonlidir.

1.3. Obiraxmat g'or makoni.

Yodgorlik Ya.G'. G'ulomov rahbarligida Burjimo'la qishlog'i atrofidagi Tyanshonning janubi-g'arbiy tizmalari va Chorvoq suv ombori hududlarini o'rganish jarayonida ochilgan. G'or Toshkent shahridan 100 km sharqroqda joylashgan. Obiraxmat g'ori yumaloq shaklli oxaktosh qoyasida shakllangan ayvon bo'lib, og'zi janubga qaragan: eni 20 m, chuqurligi 9 m, shiftining maksimal balandligi 11,8 m. Qatlamlarining qalinligi 10 m va ular 21 ta litologik qatlamga ajratilgan⁴¹. Qatlamlarning paleolit davriga oid qalin madaniy qoldiqlarga egaligi qadimgi odamlarning bir necha o'n ming yilliklar davomida moddiy-madaniy jihatdan dinamik evolyusiyasini kuzatish imkonini beradi. Yodgorlik arxeolog,

³⁷ Ранов В.А., Амосова А.Г. Раскопки мустьерской стоянки Худжи в 1978 г. Археологические работы в Таджикистане. №18. 1984. – С. 11-47.

³⁸ Исламов У.И., Анисюткин Н.К., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. «Охангарон палеолитчилар гурухи 1995 йилги ёзги ва кузги мавсумларда олиб борилган дала-таджикот ишларининг ҳисоботи». Самарқанд. 1996. – Б. 21; Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Хушвактов Н.О. Новые исследования палеолита в Ахангаране (Узбекистан). ИИМК, Санкт-Петербург 1995. – С. 27-28.

³⁹ Исламов У.И., Крахмаль К.А., Анисюткин Н.К. Ташсай-новый древнепалеолитический памятник Узбекистана // ОНУ, №1-2-3, 1995. – С. 47-48.

⁴⁰ Исламов У.И., Анисюткин Н.К., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. Отчет о проделанной работе кульбулакским отрядом в 1994 г. «Палеоэкология и пути первоначального заселения и обживания северо-востока Узбекистана». Самарканд. 1995. – С. 16.

⁴¹ Насриддинов Х.К. Грот Оби-Рахмат // ИМКУ. Вып. 5. Ташкент, 1964. – С. 12-17; Сулейманов Р.Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 16; Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Таймагамбетов Ж.К., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Зенин А.Н., Крахмаль К.А., Алимов К.А. Результаты возобновления исследований грота Оби-Рахмат // ЎММТ, №30. Самарқанд, 1999. – Б. 10-14.

olimlar X.K. Nasriddinov, M.M. Gerasimov, A.R. Muxamadjonov (1963 y.), hamda R.X. Suleymanovlar tomonidan o'rganilgan (1964-1965 y.)⁴². keyingi yillarda yodgorlik T. Omonjulov va K.A. Kraxmallar tomonidan ahyon-ahyonda (1966 - 1986 y.) tadqiq qilingan.

R.H. Suleymanovning Obiraxmatdagi ilmiy faoliyati 1964-1965 yillarga to'g'ri keladi. Tadqiqotchi g'ordagi qazishmalar jarayonida tosh buyumlarni texnik-tipologik tadqiq qilar ekan, Obiraxmat g'or makoni industriyasining mohiyatini tushuntirib bera oldi. Shuningdek, R.H. Suleymanov tomonidan Obiraxmat g'orida 10 m qalinlikda joylashgan 21 ta buzilmagan kulrangli yoki to'q jigarrangli madaniy qatlamlar mavjudligi aniqlandi.

Ushbu madaniy qatlamlarning bir qismi o'rta asrlarda qilingan yer osti xandagi tufayli buzilgan edi. Madaniy yotqiziqlarning quyi qismi (15-21 qatlamlar) cheklangan maydonda ochilgan. Qatlamlardan yig'ib olingan tosh industriya gomogen xarakterda bo'lib, bu ularning o'n ming yillar davomida o'zining texnik an'alarini saqlab qolgan yagona paleolit davri industriyasi ekanligi ma'lum bo'ldi.

Obiraxmat g'ori arxeologik materiallarini ilmiy ishlov berishda matematik-statistik uslub muvaffaqiyat bilan qo'llanilgan⁴³. Ma'lum qilinishicha, Obiraxmatning industriyasi Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoning gardishsimon hamda levallua texnikasi aralashgan plastinasimon industriyalari qatoriga kiradi.

Obiraxmat makoni industriyasi qurollari uchun retushlangan plastinalar, uzunchoq paykonlar, kesgichlar xarakterlidir. Shuningdek, uchlari yo'nilgan plastinalar ham ko'pchilikni tashkil qilib, ular yog'ochga ishlov beradigan tosh randalar (скобели и стругии) deb talqin qilingan. Bundan tashqari, to'plamda qirg'ichlar, kam sonli yo'nilg'i uchlari shakllantirilgan va yirik qirg'ichchalar ham mavjud. Ammo, eng muhimi bu yerdagi 10 m qalinlikdagi qatlamlarda tosh inventarlar qatlamdan qatlamga asta-sekin rivojlanib, o'zgarib boradi⁴⁴. Uchirindilar olishga mo'ljallangan nukleuslar soni sistematik ravishda kamayib boradi va prizmatik plastinalar chaqmoqlanadigan o'zaklar soni oshib boradi. Qirg'ichlar va retushlangan uchirindilar nisbati kamayadi hamda so'ngi paleolit davri uchun xos tosh qurollar soni ortadi, shu jumladan, kombinasiyalashgan tosh qurollar ham. Obiraxmat g'orining industriyasi quyidan yuqoriga qarab 5 ta ketma-ket xronologik kompleksga ajratilgan. Quyi kompleks (A) o'rta paleolitning finali; ikkinchi (B) – o'rtadan so'ngi paleolitga o'tish davri, deb tasniflangan; yuqori – V, G va d komplekslari esa Obiraxmat g'orining so'ngi paleolit davri bosqichi, deb tasniflangan.

Texnik-tipologik ko'rsatkichlariga ko'ra Obiraxmatning industriyasi Teshik-tosh, Xo'jakent, Janubi-G'arbiy Farg'ona materiallariga o'xshash deb topilib, yagona Obiraxmat madaniyatiga birlashtirilgan. Ushbu madaniyatga A.p. Okladnikov va V.A.

⁴² Исламов У.И., Деревянко А.П., Кривошапкин А.И., Анойкин А, Сайфуллаев Б, Кулькова И.А. Исследования грота Оби-Рахмат в 1999 г. Ташкент, 1999. Научный архив ИА АН РУз. Фонд 07. 01. №154. – С. 2 – 21.

⁴³ Сулейманов Р.Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 171.

⁴⁴ Сулейманов Р.Х. Грот Оби-Рахмат и проблемы палеолита Центральной Азии // Ўзбекистон археологияси. № 1. Самарканд, 2010. – Б. 25-29.

Ranovlar tomonidan topilgan Qayroqqum GES materiallari ham kiritilgan⁴⁵. Shuningdek, ushbu madaniyat levallua-mustye fasiyasi nomini olgan.

O'rta va so'ngi paleolitga oid tosh qurollar hamda uchirindilar va plastinalar nisbatini hisoblab chiqish natijasida yuqorida tilga olingan Obiraxmat madaniyati yodgorliklarida ularning foiz nisbati turlichaligi aniqlandi. Bu holat ularning davriy ketma-ketligini aniqlash imkonini berdi. Ulardan eng arxaigi Teshik-tosh, so'ngra Janubiy Farg'ona, Xo'jakent va eng taraqqiy etgan kompleks esa Obiraxmat g'ori industriyasi ekanligi aniqlandi⁴⁶.

1998 yilda O'zR FA akad. Ya.G'. G'ulomov nomidagi arxeologiya instituti bilan Rossiya FA SB tarix va etnografiya instituti o'rtasida paleolit davrini o'rganish bo'yicha xalqaro shartnoma imzolandi. Loyiha: "O'zbekistonning qadimgi tosh davri arxeologiyasi va paleoekologisi", deb nomlandi. Akademiklar O'.I. Islomov hamda A.P. Derevyankolar boshchiligidagi xalqaro kompleks tadqiqotlar ekspeditsiyasi tuzildi.

Xalqaro kompleks tadqiqotlar obyekti sifatida Markaziy Osiyo paleolitida muhim rol o'ynaydigan, Toshkent viloyatida joylashgan Obiraxmat g'or makoni tanlandi.

Xalqaro ekspeditsiyaning Obiraxmatda ish olib borishdan asosiy maqsadi yodgorlikning absolyut sanasini aniqlash, qadimgi atrof-muhitni rekonstruksiya qilish hamda ushbu hududda o'rta paleolitdan so'ngi paleolitga o'tish davridagi qadimgi aholining o'zgarishlarini aniqlashdan iborat bo'ldi⁴⁷.

Obiraxmat industriyasining barcha qatlamlarida kuzatiladigan asosiy xususiyati o'rta hamda so'ngi paleolit davriga xos texnologik va tipologik belgilarning birga kelishidadir. To'plamning yetakchi o'rin tutadigan nukleuslari orasida so'ngi paleolitga oidlari, avvalombor, ensiz o'zaklar, nukleus-kesgichlar, prizmasimonlar va uchirindilardan yoki yirik plastinalardan ishlangan turli xil mikronukleuslar egallaydi. Biroq, o'rta paleolitga xos yo'nilg'ilarni yuza bo'ylab chaqmoqlash strategiyasi saqlanib qoladi.

Levallua tipidagi o'zaklar kam sonli bo'lib, aksariyat hollarda ular so'ngra plastinalar yoki plastinkalar olishga mo'ljallangan so'ngi paleolitga xos ensiz nukleuslarga aylantirib yuborilgan. Obiraxmat industriyasi yo'nilg'ilari orasida plastinalar muhim o'rin tutadi va asosiy tosh qurollar ham ulardan ishlangan. Yodgorlikning ko'pgina qatlamlarida plastinalar nisbati 50 % dan oshiqni tashkil qiladi.

⁴⁵ Литвинский Б.А., Окладников А.П., Ранов В.А., Древности Кайрак – Кумов, Труды Ин – та истории АН Тадж . ССР, т. 33, Душанбе, 1962.

⁴⁶ Сулейманов Р.Х. Грот Оби-Рахмат и проблемы палеолита Центральной Азии // Ўзбекистон археологияси. № 1. Самарканд, 2010. – Б. 28; Сулейманов Р.Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 171.

⁴⁷ Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Кривошапкин А.И., Алимов К., Аношкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б. Исследования грота Оби-Рахмат (Республика Узбекистан) в 1999 г.// Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН. – 1999. – С. 60-66.

Obiraxmat industriyasi uchun o'rta paleolitning uzunchoq paykonlari (ostrokonechnik) bilan so'ngi paleolitning plastinalari o'rtasidagi oraliq shaklni tashkil qiladigan uchli plastinalarning mavjudligi xarakterlidir⁴⁸.

Yodgorlikning tosh qurollari deyarli bir xil shaklli. Eng ko'p sonni paykonsimon qurollar (retushlangan paykonlar, uchli plastinalar), retushlangan plastinalar, kesgichlar (ko'pincha yonlama tipdagi) tashkil etadi. Tosh qurollarning sezilarli qismini tashkil qiladigan qirg'ichchalar tipologik jihatdan unchalik yorqin emas. Levallua shakllar kam sonli va ular asosan, uzunchoq ko'rinishda. Qirg'ichlar yodgorlikning barcha qatlamlarida mavjud bo'lib, asosan plastinasimon yo'nalg'ildan ishlangan, ko'pincha ularni retushlangan plastinalardan ajratish qiyin. To'plamda tipologik jihatdan yorqin kichik hajmli muste tipidagi paykonlar katta o'rin egallaydi.

Obiraxmatda olib borilgan tadqiqotlar natijasida ushbu hududlarga o'rta paleolit davri odamlarining migrasiyasi haqidagi g'oya ilgari surildi. Bu so'ngi paleolit davriga o'tish davrini o'zida aks ettirgan, umumiy asosga ega bo'lgan va konvergent rivojlangan Yaqin Sharq, O'rta Osiyo va Oltoy industriyalarining o'xshashliklariga asoslangan edi. Ta'kidlanishicha, madaniyatlar evolyusion o'zgarishlarining konvergentligi umumiy asoslaridan tashqari, o'xshash paleoekologik sharoitlar bilan ham xarakterlanadi. Shu ma'noda, Levant, Oltoy hamda O'rta Osiyo qadimgi aholisi tog'larda va tog'oldi hududlarida yashagan bo'lib, bu joylarda tabiat o'zining murakkab tuzilishi va juda turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Birgina, vodiya bir vaqtning o'zida igna va yapoloq bargli o'rmonlar, mayda bargli tayga o'simliklari, quruq dasht va o'tloq dashtli assosasiyalar hukm surgan. Bu holat ibtidoiy odamlarga turli fasllarga qarab o'zlari uchun qulay ekologik muhitni tanlash imkonini bergan.

Shunday qilib, Yaqin Sharqdan migrasiya qilgan guruhlar aholisining madaniy evolyusiyasi o'xshash ekologik sharoitlarda sodir bo'lgan va bu (populyasiyalarning filogenetik va madaniy yaqinligidan tashqari) so'ngi paleolit davri madaniyatlarining shakllanishidagi umumiy adaptasion jarayondir degan xulosaga kelindi.

II BOB. ZARAFSHON VOHASI VA JANUBIY O'ZBEKISTON HUDUDLARI QADIMGI TOSH DAVRI YODGORLIKLARI

2.1.Qo'tirbuloq va Omon-Qo'ton makonlari

⁴⁸ Деревянко А.П., Кривошапкин А.И., Аношкин А.А., Ринн П.Дж., Исламов У.И. Каменная индустрия грота Оби-Рахмат // Грот Оби-Рахмат. Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2004. – С. 5 – 33; Исламов У.И., Кривошапкин А.И. Индустрия грота Оби-Рахмат (Узбекистан) в контексте появления современного поведенческого комплекса на территории Центральной Азии // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2006-2007 йиллар. №6.- Тошкент, 2009. – Б. 131-135.

Zarafshon vohasining qadimgi tosh davriga boy hududlari ham xalqaro hamkor ekspeditsiyalarning diqqatini tortmay qolmadi. Ushbu hududlarda paleolit davrini o'rganish borasida O'zbekiston-polsha, O'zbekiston-Rossiya hamda O'zbekiston-AQSh kabi xalqaro hamkor ekspeditsiyalar faoliyat olib bordi.

Zarafshon daryosi vodiysining tosh davrini o'rganishga bag'ishlangan O'zbekiston-polsha xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi 1994 yilda ish boshladi. Ekspeditsiya O'zR FA arxeologiya instituti bilan Varshava universiteti o'rtasidagi kelishuv asosida tarkib topdi. Tadqiqotlarning o'sha paytdagi holati bilan tanishilgandan so'ng ilmiy izlanishlarni uch yo'nalishda olib borish rejalashtirildi va ulardan biri Zarafshon vohasining o'rta paleolit davrini o'rganishga qaratildi. dala qidiruv ishlari 1995 yilda Ko'tirbuloq makonini qazish ishlari bilan boshlandi va bundan ko'zlangan asosiy maqsad yodgorlikning stratigrafik holati hamda xronologiyasiga aniqliklar kiritishdan iborat bo'ldi.

Qo'tirbuloq makoni Zarafshon daryosining o'ng qirg'oq yuqori terassasida, shu nomli buloq bo'yida, Samarqand shahridan 100 km g'arbroqda joylashgan. Yodgorlik 1971 yili O'zR FA arxeologiya institutining Yu.F. Buryakov boshchiligidagi arxeologik guruh tomonidan ochilgan bo'lib⁴⁹, 1971-1972 yillarda N.X. Toshkenboyev va R.X. Suleymanov tomonidan o'rganilgan va olingan natijalar bir qator ilmiy maqolalarda hamda «Культура древнекаменного века долины Зарафшана» nomli monografiyada umumlashtirilgan⁵⁰.

1995 yil O'zbekiston-polsha xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan qadimgi qazishmalarning taxminiy o'rni aniqlanib, ularning davomidan 5x5 m hajmli yangi qazishma amalga oshirildi. Natijada, yodgorlikning 1-4- qatlamlari mexanik aralashuvga uchraganligi aniqlandi. Qazishmalar yer sathidan 1 m gacha va reper nuqtadan 1,89 m gacha chuqurlikda amalga oshirildi

Ta'kidlanishicha, yodgorlikning 7-4-qatlamlari tarixiy davrlarda amalga oshirilgan qandaydir qurilishlar hamda buloqni tozalash ishlari oqibatida shakllangan. Mavsum davomida Qo'tirbuloqdan jami 873 ta tosh buyum qazib olingan bo'lib, ulardan 538 ekzemplari madaniy gorizontlarga va 335 tasi aralash qatlamlarga to'g'ri keladi.

Avvalgi tadqiqotlardan farqli o'laroq, Qo'tirbuloq manzilgohi industriyasida asosan qayroqtoshlardan⁵¹ emas, balki bazalt toshlardan foydalanganligi aniqlandi. Bunday xom-ashyo Zarafshon daryosi va uning ochiq terassalarida qayroqtosh shaklida ko'plab uchraydi. Qo'tirbuloqliklar ularning qayroqtoshlarini sifatiga ko'ra tanlab olganlar va tosh qurollar yasaganlar. Shuningdek, to'plamda chaqmoqtosh, chaqmoqtoshli oxaktosh, qumli va chaqmoqtoshli slaneslardan

⁴⁹ Буряков Ю.Ф., Крикис Я.К., Равшанов Р., Ростовцев О.М. Археологические работы в Самаркандской области. // АО 1971 г. – М., «Наука», 1972. – С. 9-14.

⁵⁰ Ташкенбаев Н.Х. Новые памятники древнекаменного века в Самаркандской области // ОНУ, №11.– Ташкент, 1971.–С. 8–13; Ташкенбаев Н.Х. Исследование новой мустьерской стоянки Кутурбулак (Самаркандская область) // Тезисы докладов совещания по каменному веку Средней Азии и Казахстана. – Ташкент, 1972. – С. 5 – 13

⁵¹ Сайфуллаев Б.К. Палеолит долины реки Зарафшана и Северо-Восточных Кызылкумов. Автореф. дисс. канд.ист. наук. Самарканд, 2003. – С. 17; Сайфуллаев Б.К. Каменная индустрия среднепалеолитического местонахождения Кутурбулак (в свете новых исследований). ИМКУ. Вып. 32. – Ташкет, 2001. – С. 38.

ishlangan buyumlar ham bo'lib, ular Zirabuloq tog'lari etaklarida kichik hajmli qayroqtoshlar shaklida uchraydi.

Kolleksiyaning nukleuslari ishlanish darajasiga ko'ra turli bosqichlarga oid. Ular orasida preformalardan tortib haddan tashqari ishlov berilganlarigacha uchraydi. Tipologik jihatdan ushbu o'zaklarni gardishsimon hamda qo'pol prizmasimonlarga ajratish mumkin. prizmasimonlar bir yoki ikki zarb maydonli yakka ish yuzalilarga hamda ko'p zarb maydonlilarga ajraladi. Nukleuslarning katta qismi haddan tashqari ishlov berilgan yoki o'zaklar siniqlarini tashkil qiladi.

To'plamda tosh qurollar ko'p emas. Ikkilamchi ishlov berishda sifati past mayda va ko'rimsiz retushdan foydalanilgan. Ammo, bunda tosh buyumlarning dastlabki ko'rinishini o'zgartirib yuborgan tabiiy faktorlarni ham hisobga olish joiz. Buni, o'z vaqtida N.X. Toshkenboyev hamda R.X. Suleymanovlar ham ta'kidlashganlar⁵². Gap shundaki, ochib o'rganilgan madaniy gorizontlar intensiv ravishda yer osti suvlari ta'sirida bo'lgan va bu holat tosh buyumlarning saqlanish darajasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Sabab – buloq suvi ishqorli va sho'r. Tosh buyumlarning bir qismi yuzasi silliqlangan, qirralari o'tmaslashgan, retushlarning fasetkalari go'yoki "erib" ketgan. Yer osti suvlari avvalombor, qayroqtoshdan ishlangan buyumlarga o'z ta'sirini o'tkazgan, chaqmoqtoshdan ishlangan buyumlarning holati esa yaxshi saqlagan. Ikkilamchi ishlov berilgan tosh buyumlar orasida qirralari o'yib-kertib ishlanganlari ham mavjud va bu qirralarga tishsimon xarakter bergan. Ko'pincha, yirik o'yib-kertib ishlangan qurollar qirralari qo'shimcha retushlangan.

Shunday qilib, Qo'tirbuloqning tosh buyumlari orasida mayda noregulyar retushlangan plastinalar, uchirindilar uchraydi va bu retushlash ba'zan, har ikkala yuza bo'ylab ketma-ket almashib holatda amalga oshirilgan. Ba'zan bunday retushlash yo'nilg'ilarning dorsal yoki ventral taraflarida amalga oshirilgan. Shuningdek, to'plamda qirralarini o'tmaslashtiruvchi qiya retushlar yordamida kesilgan plastina va uchirindilar ham uchraydi. Kolleksiyaning qirg'ichchalari (кребок) kichik hajmli uchirindilardan ishlangan bo'lib, odatdagidek ularning ish qirralari yarim oy shaklida. Ko'tirbuloqning tosh qurollari orasida tipologik jihatdan eng yorqin na'munalari bu paykonlardir. Ular orasida siniqlari va butunlari ham uchraydi. paykonlar asosan to'g'ri proporsiyali, qalin muste tipidagi plastinalardan ishlangan. Qirralari tik retushlar va yirik fasetkalar yordamida ishlangan va mayda retushlash yordamida qo'shimcha tarashlangan. Qo'tirbuloqning madaniy qatlamlaridan tosh buyumlardan tashqari, hayvon suyaklari qoldiqlari ham topilgan. Ammo ular juda yomon saqlangan.

Umuman, O'zbekiston-polsha qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan 8 m² ga yaqin maydonda konsentrsiyalashgan tosh buyumlar to'plami qazib olinib, o'rganilgan. Yodgorlik industriyasi uchun eng xarakterli buyumlar bu uchirindilar olishga mo'ljallangan nukleuslar (shu jumladan, gardishsimonlar), qirg'ichlar, retushlangan uchirindilar, bir nechta uchburchak paykonlar, yo'nilg'i uchlarida

⁵² Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. – Ташкент, Изд-во «ФАН», 1980. – С. 41.

shakllantirilgan qirg'ichchalar, ayrim kesgichlar va cho'qmorsimon shaklli tosh qurollardir. Shuningdek, to'plamda keng va yirik plastinalardan ishlangan buyumlar seriyalari ham mavjud bo'lib, ***Qo'tirbuloq tipidagi paykonlar*** shular jumlasidandir. 1995 yilda O'zbekiston-polsha qo'shma ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan D.N. Lev tomonidan ochilgan⁵³ o'rta paleolit davriga oid Omon-Qo'ton g'or makoni tadqiq qilindi. Natijada, g'orning kirish qismidan 7-8 m ichkariroqdan va uning chap devori tomonidan qo'ng'ir loyli buzilmagan maydon aniqlandi. Ushbu maydon g'orning devoriga juda yaqin joylashgan. Bu joydan bir nechta hayvon suyaklari qoldiqlari hamda stalaktitlar bo'laklari topildi. Bu joydagi loy va stalaktitlardan bir bo'lagi analiz qilish uchun na'muna sifatida olindi. Ikkinchi na'muna g'orning kirish qismiga yaqin o'ng devori tagidan, uchinchi na'muna esa g'orning ancha ichkarisidan olindi. Polshalik prof. T. Madeyskayaning ta'kidlashicha, g'orda ikki xil davrga oid generatsiya kuzatiladi⁵⁴.

G'or to'liq o'rganilgan deb hisoblanishiga qaramasdan, uning ayrim joylarida inson faoliyati qoldiqlarini hamda g'orda istiqomat qilgan hayvonlar izlarini saqlab qolgan, hamda qazilmagan maydonchalarni uchratish mumkin.

G'ordan absolyut sanalar olish muhimligi va buning barcha imkoniyatlari mavjudligi ko'rinib turardi. Negaki, Zarafshon vohasi paleolit davri yodgorliklari aksariyatining sanasi nisbiyligicha qolmoqda edi⁵⁵. Biroq, olingan natijalar hozircha chop etilmadi.

2002 yilda Qo'tirbuloqda O'zR FA arxeologiya instituti hamda RFA SB arxeologiya va etnografiya instituti hamkorligidagi xalqaro qo'shma ekspeditsiya tadqiqot ishlarini davom ettirdi⁵⁶. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, yodgorlikni kompleks o'rganish, uning stratigrafik holatiga aniqliklar kiritish, hamda buloq atrofida o'tkaziladigan keyingi izlanishlarning istiqbollarini belgilashdan iborat edi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun 1971-1972 yillardagi qazishmalar joyi chamalab aniqlab olindi va ulardan 15 m janubi-g'arbroqdan 18m² qazishma 1,4 m chuqurlikda amalga oshirildi.

Qazishmadan 7 ta madaniy gorizont aniqlanib, ularning qalinligi 0,15 m dan 0,5 m gacha yetadi. Ulardan yuqorigi 4 tasi keyingi davrlar materiallari bilan aralashib ketgan. Qazishmadan olingan artefaktlar asosan o'rta va yirik hajmli bo'lib, tartibsiz joylashgan. Yer sathidan 1,4 m chuqurlikda yerosti suvlari sizib turadi.

⁵³ Лев Д.Н. Древний палеолит в Аман-Кутане. (Исследования 1953-1954 гг.) \ Труды Узбекского гос. Ун-та. Нов. Серия. Вып. 61. 1956.

⁵⁴ Гречкина Т.Ю., Хужаназаров М., Худайбердиев Р., Хмелевский В., Шимчак К., Мадейская Т., Кауван Г., Левандовский М., Багинская С. Научный отчет об археологических работах Зарафшанского палеолитического отряда в 1995 году. – Самарканд, 1996. Научный архив ИА АН РУз. Фонд 04. 01. №243. – С. 34.

⁵⁵ Шимчак К., Гречкина Т.Ю. Польско-Узбекская археологическая экспедиция. Первый сезон полевых работ. \ Новые археологические открытия и изучение культурных трансформаций. – Санкт-Петербург, 1996. – С. 61.

⁵⁶ Деревянко А.П., Аношкин А.А., Борисов М.А., Сайфуллаев Б.К. Новые данные о стоянке Кутурбулак (Республика Узбекистан) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2002. - Т.8. – С. 56-63.

2002 yilgi qazishmalar natijasida 18 ta sopol siniqlari va 200 dan ziyod tosh buyumlardan iborat kolleksiya yig'ib olingan va ular 1971-1972 yillarda qazib olingan materiallarga o'xshashdir. To'plamda ko'plab nukleussimon formalar orasida kichik hajmli radial ravishda chaqmoqlanganlari katta qismni tashkil qiladi. Kolleksiyaning tosh qurollari uzunasiga ishlangan qirg'ichlar, retushlangan paykonsimon qurollar, retushlangan plastinalar hamda uchirindilardan iborat. To'plamda shuningdek, uncha ko'p bo'lmagan yo'nilg'ilar, yo'nilg'i uchlarida hamda yon tomonlarida shakllantirilgan qirg'ichchalar va bir dona yo'nilg'i burchak qismida ishlangan kesgich ham mavjud. Qo'tirbuloqdan ushbu mavsumda yig'ilgan uchirindilarning katta qismi noregulyar va noaniq retushlash izlariga ega. Ushbu tosh buyumlar yuzasining turli darajada saqlanganligi diqqatni tortadi. Artefaktlardan 20 tasining yuzasi yuqori hamda o'rta darajadagi deflyasiyaga uchragan va bunday buyumlar barcha qatlamlarda uchraydi.

Topilmalarning qatlamlarda joylashuvi holatini tahlil qilish natijasida, ilgari mualliflar tomonidan ta'kidlangan, yodgorlikning yuqori qatlamlari aralashgan, degan fikri tasdiqlandi (1-3 qatlamlar)⁵⁷. Bu haqda ushbu qatlamlarda o'rta paleolit davriga oid tosh buyumlar bilan bir qatorda keyingi davrlarga xos sopol buyumlarining aralashib yotganligi ham guvohlik beradi. Quyi qatlamlar, avvalombor 4V hamda 4G qatlamlari kamroq buzilgan, ammo, qator kuzatishlar ulardagi materiallarni "in situ" deyish imkonini bermaydi. Ulardagi artefaktlar tartibsiz joylashgan va madaniy gorizontlar yoki to'plamlar hosil qilmaydi. 4-qatlamning yuqori qismida asosan kichik hajmli buyumlar to'plangan, yirik hajmli buyumlar esa kesmaning pastki qismida konsentrasiyalashgan. Bunday joylashuvlar joyidan ko'chgan yopishqoq-plastik tuproqlar uchun xarakterlidir. Bundan tashqari, qatlamlardagi materiallarning aralashganligi haqida noregulyar retushli buyumlarning ko'p sonliligi hamda bir qatlamda joylashgan buyumlarning turli darajada deflyasiyaga uchraganligi ham guvohlik beradi. Qo'tirbuloqning materiallarini umuman, o'rta paleolit davriga oid deyish mumkin bo'lsa-da, 1995 va 2002 yillardagi qazishmalarda tosh davrining keyingi bosqichlari uchun xarakterli bo'lgan buyumlar ham uchraydi.

Shunday qilib, 1995 va 2002 yilgi O'zbekiston-polsha hamda O'zbekiston-Rossiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyalari tadqiqotlari natijalariga ko'ra, Ko'tirbuloq o'rta paleolit davriga oid materiallar bilan keyingi davrlar buyumlari aralashib ketgan aralash qatlamlardan iborat yodgorlikdir va bu aralashuv pleystosen davrida boshlangan hamda keyingi tarixiy davrlarda antropogen ta'sirlar tufayli ham davom etgan. Ushbu fikrlar yanada to'laroq isbot qilishni talab etadi. Biroq yodgorlik atrofida olib borilayotgan faol qishloq xo'jalik ishlari va yer osti suvlarning yaqinligi bunga imkon bermaydi.

Yuqorida aytilgan fikrlarga xulosa yasab, 1995 yilda K. Shimchak tomonidan Qo'tirbuloq qatlamlariga berilgan xarakteristikani keltirish mumkin: «Hozirgi kunda Qo'tirbuloq arxeologik materiallarining katta qismi aralashib ketgan va bu

⁵⁷ Деревянко А.П., Аношкин А.А., Борисов М.А., Сайфуллаев Б.К. Новые данные о стоянке Кутурбулак (Республика Узбекистан) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2002. – Т.8. – С. 62.

aralashuv faol antropogen ta'sirlar oqibatida yuzaga kelgan. Biroq, yodgorlikning quyi qatlamlaridagi tosh buyumlar va hayvon suyaklari qoldiqlari aralashmagan holatda yotganligiga ham to'la ishonch yo'q».

2.2. Samarqand makoni yuqori madaniy qatlami materiallarini trassologik tadqiq qilinishi (1961 – 1967 yillardagi qazishma materiallari asosida)

1939 yilda N.G. Xarlamov tomonidan ochilgan Samarqand makoni O'rta Osiyoda tosh davrini o'rganishdagi tayanch yodgorliklardan hisoblanadi. Makon Samarqand shahri hududidagi Chashmasiyobning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Yodgorlikning ochilganligiga ko'p vaqt o'tib, anchayin yaxshi o'rganilgan bo'lsada, mutaxassislar orasida unga qiziqish to'xtaganicha yo'q. Turli xil tadqiqotlarda yodgorlikning stratigrafik, arxeologik, paleozoologik, geologik jabhalari aks ettirilgan. Shuningdek, uning materiallarini tipologik⁵⁸, trassologik, matematik-statistik⁵⁹ tahlil qilish ishlariga ham katta e'tibor berilgan. Samarqand makoni industriyasi tarkibida qayroqtoshli, uchirindili va plastinali buyumlar to'plamining omuxtaligi ko'plab tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

1998-1999 yillarda G. F. Korobkova Samarqand makoni yuqori qatlamining industriyasini mikroskop ostida sinchiklab o'rganib, ularning texnologik xarakteristikasi hamda funksional xususiyatlarini aniqladi⁶⁰. Natijada, hozirda oxirigacha aniqlanmagan bir qator interpretasion masalalarni ko'rib chiqish imkoni tug'ildi. Masalan, Samarqand so'ngi paleolit yodgorligi yagona makonmi yoki bir nechdami? Agar u ikkita makon bo'lsa, u holda, ular sinxronmi yoki turli davrlarga oidmi? Bu yerdagi quyi terrasaning madaniy qatlamlari yagona kompleks mi yoki xronologik jihatdan turlichami? Har bir konkret qatlamda va umuman, makonda toshlarni chaqmoqlash texnologiyalari qanday bo'lgan? Samarqand makonining qattiq taqqoslanib kelinayotgan Sibir so'ngi paleolit davri kompleks lari bilan munosobati qanaqa? Yodgorlikning O'rta Osiyodagi sinxron texnokompleks lar bilan aloqasi bormi? Samarqand makoni Markaziy Osiyo Regionida fenomen yodgorlikmi yoki u Sharqiy Osiyo madaniyatlari doirasiga kiradimi? Yodgorlikning funksional ahamiyati qanaqa? Shunday va shunga o'xshash savollar Samarqand makoni haqidagi nashrlar bilan tanishish jarayonida paydo bo'lishi tabiiydir. Ushbu masalalarni yechimi yodgorlikning materiallarini anchayin aniq va sinchiklab o'rganadigan tipologik-morfologik, texnologik, eksperimental hamda trassologik uslublar bilan o'rganishni taqozo etadi. Makonni o'rganishdagi

⁵⁸ Лев Д.Н. Итоги работы археологического отряда Самаркандского Госуниверситета имени А.Навои в 1966 г. // Материалы по истории и археологии Узбекистана / Тр. СамГУ. Вып. 218. Самарканд, 1972. –С. 3-67; Джуракулов М. Д. Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии. Ташкент; Фан. 1987. – С. 187.

⁵⁹ Джуракулов М. Д., Холюшкин Ю. П. 1975. Некоторые вопросы применения методов математической статистики в археологии каменного века // Материалы по археологии Узбекистана/. Тр. СамГУ. Новая серия. Вып. 270. Самарканд, 1975. –С. 4 – 26; Окладников А.П. Древние связи культур Сибири и Средней Азии // Бахрушинские чтения 1966 г. Вып. 1. Новосибирск, 1968. –С. 144-157.

⁶⁰ Коробкова Г.Ф., Джуракулов М.Д. Самаркандская палеолитическая стоянка как эталон верхнего палеолита Средней Азии: (специфика техники расщепления и хозяйственно-производственной деятельности) // Stratum plus. – Кишинёв: 2000. – Вып. 1. – С. 385–462.

kompleks yondoshuvlarga uning umumiy xususiyatlarini, toshlarni chaqmoqlashdagi nuanslarini va dinamik taraqqiyotining spesifikasini yoritish imkonini beradi.

G. F. Korobkovaning Samarqand makoni yuqori qatlamlari industriyasidagi chaqmoqlash texnikasini tadqiq qilish ishlariga sinchkov tipologik-morfologik, texnologik hamda trassologik uslublar asos qilib olindi⁶¹. Manba sifatida Samarqand makonidan 1958-1960 yillarda qazib olingan nukleuslar, yo'nilg'ilar, tanovorlar, tosh qurollar hamda ishlab chiqarish chiqitlari olingan. texnologiya hamda funksionologiya masalalarini o'rganishda S.A. Semenov tomonidan ishlab chiqilgan eksperimental-trassologik uslub muhim rol o'ynaydi⁶².

1958-1960 yillarda qazib olingan tosh buyumlar kolleksiyasi 977 predmetdan iborat. texnologik va trassologik ma'lumotlarga ko'ra ular orasida 3 ta prenukleus, 38 ta nukleus, 116 tosh qurollar, 17 ta qayroqtosh va tosh g'o'lalar (желевак) hamda 803 ta yo'nilg'ilardan iborat. Yo'nilg'ilar (сколы) asosan uchirindilardan va ba'zan yirik noto'g'ri yelkali plastinalar hamda juda kam miqdorda to'g'ri yelkali plastinalar, mikroplastinkalardan tarkib topgan. Shuningdek, to'plamda chaqmoqtosh va daryo toshlari siniqlari ham mavjud.

Tosh buyumlarning katta qismi qayroq shaklidagi jinslardan (diorit, kvars, kvarsit, chaqmoqtoshli slanesdan) hamda chaqmoqtoshlardan ishlangan⁶³. Ayrim hollarda amfibolli gneys va rogovik ishlatilgan. Hisob-kitoblarga ko'ra yodgorlikning quyi terrasasi qatlamlarida 92% buyumlar Zarafshon daryosi etaklarida mo'l bo'lgan mahalliy xom-ashyodan ishlangan va faqat 6,7% mahsulotlar Cho'ponota tepaligidan keltirilgan⁶⁴. Mahalliy qayroq shaklidagi materiallar talaygina, yetarlicha qattiq va hajmi jihatidan turlicha. Bunday, turli-tuman toshlar orasidan chaqmoqlash uchun istalgan kerakli shaklni tanlab olish mumkin bo'lgan. Cho'ponotadan keltirilgan chaqmoqtosh esa past sifatli, tabiiy yoriqli, o'yiqli hamda tarkibida begona arlashma qumlarga ega va hajmi kichik bo'lgan. Ularning rangi turlicha bo'lib, kulrang, jigarrang va yashil tuslilari uchraydi. Yu.P. Xolyushkinning kuzatishlaricha, yodgorlikda ishlatilgan chaqmoqtoshlar orasida kulranglisi ko'pchilikni tashkil qilib, ularning soni yuqori qatlamlarga qarab ortib boradi. Chaqmoqlangan qayroqtosh va tosh g'o'lalar (желвак) hajmi jihatidan farq qiladi. Ularning bo'yi 19 sm, eni-12 sm va qalinligi-6,5-8 sm gacha yetadi. Ular orasida turli xil bosqichlarda ishlanganlari, shuningdek, siniq, bir-ikki yo'nishlardan (оттека) so'ng tashlab yuborilganlari ham mavjud.

⁶¹ Коробкова Г.Ф., Джуракулов М.Д. Самаркандская палеолитическая стоянка как эталон верхнего палеолита Средней Азии: (специфика техники расщепления и хозяйственно-производственной деятельности) // Stratum plus. – Кишинёв: 2000. – Вып. 1. – С. 385–462.

⁶² Семенов С. А. Первобытная техника (опыт изучения древнейших орудий и изделий по следам работы) / МИА. № 54. М. 1957; Семенов С. А. 1968. Развитие техники в каменном веке. Л; 1968. – С. 35.

⁶³ Коробкова Г.Ф., Джуракулов М.Д. Самаркандская палеолитическая стоянка как эталон верхнего палеолита Средней Азии: (специфика техники расщепления и хозяйственно-производственной деятельности) // Stratum plus. – Кишинёв: 2000. – Вып. 1. – С. 385–462.

⁶⁴ Джуракулов М. Д., Холюшкин Ю. П., Холюшкина В. А., Батыров Б. Х. Самаркандская стоянка ее место в позднем палеолите Средней Азии // Палеолит Средней и Восточной Азии. История и культура востока Азии. Новосибирск, 1980. – С. 51-95.

Самарқанд макони aholisiga qoyil qolish kerak, deya ta'kidlaydi G.F. Korobkova⁶⁵. Negaki, ular qayroqtosh va tosh g'o'lalarning iloji boricha qulay, kam kuch sarflab, ozgina tayyorlashdan so'ng pronukleuslarga aylantirish mumkin bo'lganlarini tanlab olganlar. Ikki tarafi yoki bir tarafi bo'rtib chiqqan va bir tarafi yalpoq, yumaloq hamda uzunchoq qayroqtoshlar ko'proq ishlatilgan.

Експеримент natijalariga ko'ra, bunday shaklli qayroqtoshlar Samarqand makoni industriyasida ko'pchilikni tashkil qiladigan nafaqat, pronukleuslar, balki chopperlar hamda choppinglar yasash uchun ham juda qulay bo'lgan⁶⁶. Shunday qilib, qayroqtosh va tosh g'o'lalarning tanlovi texnologik jarayonlarning maqsadga muvofiqligini ta'minlagan. Bu holat toshlarni ishlov berish uslublariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatgan. Tuxumsimon, sharsimon, ikki taraflama bo'rtiq g'o'lalar va qayroqtoshlar, ularning qayroqtoshli qobig'ini olib tashlash uchun bir yoki ikki zarba berish yordamida zarb maydonlar hosil qilishni taqozo qilgan⁶⁷.

Qayroqtoshlarning bunday "qalpog'i"ni olib tashlash uslubi tosh zandon ustida kontr zarba hosil qilish yo'li bilan amalga oshirilgan. Bunday uslub Samarqand makoni industriyasiga xos bo'lib, bu yerda ko'plab shu yo'l bilan sindirilgan qayroqtoshlar va tosh zandonlar aniqlangan (1958-1960 yillardagi qazishma materiallari orasida)⁶⁸.

1958-1960 yillar materiallarini o'rganish natijasida G.F. Korobkova dastlabki yarim fabrikatlar qatorida birlamchi, yarim birlamchi yo'nilg'ilar, texnik yo'nilg'ilar, yelkali plastinalar, uchirindilar va boshqalar ham tosh qurollar yasashda qo'llanilganligini aniqladi. Natijalarga ko'ra, Samarqand makoni industriyasidagi texnik yo'nilg'ilardan go'sht kesish uchun pichoqlar, teriga ishlov berish uchun qirg'ichchalar, yog'ochga ishlov berish uchun randalar, shuningdek, suyakka, shoxga ishlov berish uchun va boshqa tosh qurollar yasalgan⁶⁹. To'plamda eng ko'p tarqalgan qurollar qirg'ichchalar – 63 ta va tosh pichoqlar – 61ta bo'lgan. Tosh pichoqlar orasida qo'ndoqlilari ham aniqlangan – ular 4 ta va bosma texnika yordamida chaqmoqlangan prizmatik plastinalardan ishlangan. Iskanasimon qurollar – 62 tani, randalar – 56 tani tashkil qiladi. To'plamda shuningdek, turli xil materiallarga ishlov beruvchi talaygina kesgichlar – 28 ta, hamda hozirgacha noma'lum bo'lgan mutloqo yangi tip – 13 ta mayda iskanalar

⁶⁵ Коробкова Г.Ф., Джуракулов М.Д. Самаркандская палеолитическая стоянка как эталон верхнего палеолита Средней Азии: (специфика техники расщепления и хозяйственно-производственной деятельности) // *Stratum plus*. – Кишинёв: 2000. – Вып. 1. – С. 385–462.

⁶⁶ Семенов С. А. Развитие техники в каменном веке. Л. 1968. – С. 35.

⁶⁷ Коробкова Г. Ф. Трасологическое исследование в каменного инвентаря Самаркандской стоянки. (По материалам 1958—1960 гг.) // Палеолит и неолит СССР. Т. 7 (под ред. Абрамовой З.А.и Праслова Н.Д.) МИА. № 185. Л, 1972. –С. 168.

⁶⁸ Коробкова Г. Ф. Трасологическое исследование в каменного инвентаря Самаркандской стоянки. (По материалам 1958—1960 гг.) // Палеолит и неолит СССР. Т. 7 (под ред. Абрамовой З.А.и Праслова Н.Д.) МИА. № 185. Л, 1972. –С. 168-169.

⁶⁹ Коробкова Г.Ф., Джуракулов М.Д. Самаркандская палеолитическая стоянка как эталон верхнего палеолита Средней Азии: (специфика техники расщепления и хозяйственно-производственной деятельности) // *Stratum plus*. – Кишинёв: 2000. – Вып. 1. – С. 385–462; Жўракулов М.Ж. Самарқанд палеолит макони манбаларини янги ёндашув асосида ўрганиш натижаларидан // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар - 2003 йил. №4. Тошкент, 2004. – Б. 65-69.

(стамески) va ular teriga, yog'ochga, suyakka, shoxga ishlov berishda qo'llanilganligi aniqlandi.

Samarqand makoni industriyasida qirg'ichlar (скребло) seriyalari ham yorqin namoyon bo'ladi va ular turli tiplarga ajraladi – 26 ta (dejete, uzunasiga, ko'ndalangiga ishlangan qirg'ichlar) va ular universal qurollar ekanligi ma'lum qilindi. Ular go'sht pichoq, yog'ochga, suyakka va shoxga ishlov beradigan randa, teriga ishlov beradigan qirg'ichlar sifatida hamda boshqa maqsadlarda foydalanilganligi ma'lum bo'ldi. Ya'ni, tipologik jixatdan bir bo'lsalarda, turli yumushlarga ishlatilganlar, ularning ish qirrasini turli ashyolarni kesish, qirish yoki randalashga moslashtirilgan.

Yodgorlikning tosh qurollari kolleksiyasida tosh parmalagichlar – 6 ta, bigizlar – 6 ta, yog'och yo'nuvchi pichoqlar – 2 ta hamda 2 yoki 3 funksiyani bajaruvchi polifunksional qurollar-13 ta aniqlangan. Tosh qurollar yasashda yarim birlamchi, birlamchi hamda texnik yo'nilg'ilardan foydalanishning mavjudligini Samarqand makoni industriyasining o'ziga xos xususiyatlaridan bir deb qarash mumkin (ulardan ishlangan qurollar 119 ekz.).

1998-1999 yillarda amalga oshirilgan trassologik tahlillar natijasida Samarqand makoni industriyasining 25,8 % tosh qurollardan tarkib topganligi aniqlandi⁷⁰. Tahlillar davomida qanday konkret tanovorlar qanaqa tosh qurollarni yasashda ishlatilganligi, hamda bu qonuniyat makondagi toshlarni chaqmoqlash texnikasining xarakterini ham belgilagan. Qirg'ichchalar yasash uchun mayda hajmli uchirindilardan – 26 ta, o'rta hajmli uchirindilardan (14 ta), yirik hajmli uchirindilardan (7 ta), yirik plastinalardan (3 ta), yarim birlamchi yo'nilg'ilardan (1ta), mitti nukleuslardan (4 ta), nukleuslar zarb maydonlaridan (4 ta), plitka siniqlaridan (1 ta), nukleus siniqlaridan (1 ta) foydalanilgan. To'plamda 8 ta qirg'ichlar ham mavjud (2 ta dejete, 4 ta uzunchoq, 1 ta oddiy va 1 ta diagonal shakllarda).

Tosh randalar tayyorlashda o'rta hajmli uchirindilar (27 ta), yirik uchirindilar (11 ta), mayda uchirindilar (4 ta), birlamchi yo'nilg'ilar (3 ta), texnik yo'nilg'ilar (4 ta), nukleuslar siniqlari (2 ta), nukleuslarning zarb maydonlari (1 ta), chopperlar (2 ta) tanlab olingan. Randalar vazifasini shuningdek, 2 ta yirik plastinalar hamda 6 ta qirg'ichlar ham bajargan.

Ro'yxatdan ko'rinib turibdiki, bunday qurollar yasash uchun o'rta hajmli, yirik va qiya zarb maydonchali to'rtburchak shaklli uchirindilardan ko'proq foydalanilgan. Bundan tashqari, birlamchi va yarim birlamchi yo'nilg'ilar ham muhim rol o'ynagan – 14 ekz. pichoqlar yasash uchun yirik plastinalar (22 ta), makroplastinalar (7 ta), o'rta hajmli plastinalar (5 ta), yirik plastinasimon uchirindilar (10 ta), yirik levallua tipidagi uchirindi (1 ta), yirik birlamchi (1 ta) va yarim birlamchi (2 ta) uchirindilar, yirik hajmli uchirindilar (12 ta) kabi tanovorlardan foydalanilgan. pichoq sifatida 4 ta qirg'ichlar ham ishlatilgan.

⁷⁰ Коробкова Г.Ф., Джуракулов М.Д. Самаркандская палеолитическая стоянка как эталон верхнего палеолита Средней Азии: (специфика техники расщепления и хозяйственно-производственной деятельности) // Stratum plus. – Кишинёв: 2000. – Вып. 1. – С. 385–462.

pichoqlarni yasash uchun asosan plastinalar va kam miqdorda uchirindilardan foydalanilgan.

To'plamdagi kesgichlarning tanovorlari boshqacharoq⁷¹. Ularning soni 28 ta bo'lib, asosan uchirindilardan (7 ta), mayda uchirindilardan (4 ta), yirik uchirindilardan (5 ta), yirik plastinasimon uchirindilardan (4 ta), yirik plastinalardan (4 ta), o'rta hajmli plastinkadan (1 ta), haddan tashqari ishlov berilgan nukleusdan (1 ta), nukleus sinig'idan (1 ta), yirik yelkali uchirindidan (1 ta) foydalanilgan. Ushbu kategoriya qurollarni yasashda asosiy tanovorlar tipi har xil hajmli uchirindilar bo'lgan, biroq, ularning deyarli barchasi yirik va qiya zarb maydonchali.

Qirg'ichlar yasash uchun uchirindilar (12 ta), o'rta hajmli plastinalar (2 ta), yirik plastinasimon yo'nalg'ilar (7 ta), mayda uchirindi (1 ta), zarb maydoncha (1 ta), birlamchi yo'nalg'ilar (2 ta), yirik plastina (1 ta) tanlab olingan.

Kolleksiyaning iskanasimon qurollari oxirigacha ishlatilgan nukleuslardan (18 ta), nukleuslar siniqlaridan (4 ta), o'rta hajmli uchirindilardan (19 ta), yirik uchirindidan (1 ta), mayda uchirindilardan (15 ta), yirik plastina bo'lagidan (1 ta), yelkasi krestlashgan uchirindilardan (2 ta), qayroqtosh siniqlaridan (2 ta) ishlangan. Shunday qilib, ushbu kategoriyadagi tosh qurollarni yasash uchun asosiy tanovor sifatida uchirindilar (37 ta), ba'zan oxirigacha ishlatilgan nukleuslar va ularning siniqlari (22 ta) xizmat qilgan. Kichik iskanalar yasash uchun to'plamda yirik uchirindilardan (6 ta), o'rta hajmli uchirindilardan (3 ta) va mayda uchirindidan (1 ta), zarb maydonchadan (1 ta), yelkasi krestlashgan uchirindidan (1 ta), texnik yo'nalg'idan (1 ta) foydalanilgan. Bunday qurollarni yasashda yirik hajmli uchirindilar asosiy rol o'ynagan va ularning zarb maydonchalari keng hamda qiyalashtirilganlari qo'llanilgan.

Parmalovchi tosh qurollar yasash uchun Samarqand makoni industriyasida butunlay boshqacha tanovorldan foydalanilgan. Bular notekis qirrali yirik plastinalar (4 ta), nukleus sinig'i (1 ta) va yelkasi krestlashgan yarim birlamchi plastinadan (1 ta) iborat. Bunda yirik o'tkir burchakli plastinalar afzal ko'rilgan. Tosh bigizlar yasash uchun esa asosan retushlanmagan o'rta hajmli, uchburchak kesmali va o'tkir burchakli plastinalar afzal ko'rilgan – (3 ta)⁷². Shuningdek, ular yelkasi krestlashgan plastinadan (1 ta), o'rta hajmli uchirindidan (2 ta) foydalanilgan. To'plamdagi 2 ta yog'och yo'nuvchi pichoqlar yirik parallel yelkali prizmatik plastinadan yasalgan.

Ushatg'ichlar (otboynik) sifatida to'plamda nukleuslardan (3 ta), ko'ndalang kesilgan qayroqtoshlardan (4 ta), qayroqtosh siniqlaridan (5 ta), chopperlardan (2

⁷¹ Коробкова Г.Ф., Джуракулов М.Д. Самаркандская палеолитическая стоянка как эталон верхнего палеолита Средней Азии: (специфика техники расщепления и хозяйственно-производственной деятельности) // *Stratum plus*. – Кишинёв: 2000. – Вып. 1. – С. 402; Журакулов М.Ж. Самарканд палеолит макони манбаларини янги ёндашув асосида ўрганиш натижаларидан // *Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар* - 2003 йил. №4. Тошкент, 2004. – Б. 67.

⁷² Коробкова Г.Ф., Джуракулов М.Д. Самаркандская палеолитическая стоянка как эталон верхнего палеолита Средней Азии: (специфика техники расщепления и хозяйственно-производственной деятельности) // *Stratum plus*. – Кишинёв: 2000. – Вып. 1. – С. 414.

ta) va choppinglardan (2 ta) foydalanilgan. Choppinglar hamda chopperlar uchun kulrang va yashil tusli yirik qumli, ko'ndalang kesilgan yirik qayroqtoshlardan foydalanilgan. Kolleksiyaning novtेशhalarini (текло) yasashda ham xuddi shunday qayroqtoshlar yoki ularning uzunasiga kesilgan bo'laklari ishlatilgan.

Samarqand makoni yuqori qatlami industriyasini trassologik tadqiq qilish, ishlov berilgan tosh qurollarning nafaqat sonini, balki instrumentlar muayyan guruhining sifat koefisientini ham aniqlash imkonini berdi. Makon hududida ovdan keltirilgan o'ljani taqsimlash ishlari amalga oshirilib, hayvon terilari ajratib olingan va ishlov berilgan. Ushbu faoliyat bilan barcha ishlov berilgan tosh qurollarning 35 % bog'liq bo'lgan. Yog'ochga ishlov berish muhim o'rin tutgan va bu makonni uzoq vaqt mobaynida istiqomat qilinganligidan dalolat beradi.

Tosh randalar, novtेशhalar, iskanalar, yo'nuvchi pichoqlar, chopqilar, kesgich, kesgichchalarning turli-tuman turlari va boshqa qurollarning mavjudligi bu yerda yog'ochga ishlov berish ning murakkab texnologik jarayonlari hukm surganligidan dalolat beradi. Samarqand makoni aholisi yog'ochdan tosh qurollarga qo'ndoqlar, yog'och predmetlar, maishiy buyumlar, idishlar, qurollar yasaganlar, qurilish materiallari sifatida va boshqa larda foydalanganlar. Kolleksiyada yuqori effektli instrumentlarning mavjudligi bu yerda suyakka va shoxga ishlov berish ham yuqori darajada taraqqiy topganligini ko'rsatadi.

Tosh qurollarning miqdoriy ko'rsatkichlari Samarqand makoni aholisi xo'jaligida teriga ishlov berish ishlarining hukmron bo'lganligidan dalolat beradi (deyarli 19%). terilar kichik iskanalar, qirg'ichchalar va qirg'ichlar yordamida ishlov berilgan. Qirg'ichchasimon instrumentlar turli xil teriga ishlov berish ishlari uchun professional darajada tanlab olingan.

G.F. Korobkova xulosasiga ko'ra, qirralari uzunroq qirg'ichlar hamda qirg'ichchalar terining keng qismlariga ishlov berishga mo'ljallangan bo'lsa, miKroqirg'ichchalar va yo'nilg'ilar uchlarida shakllantirilgan qirg'ichchalar – mayda hayvonlarning terisiga yoki yirik hayvonlar terisining notekis joylariga ishlov berish uchun qo'llanilgan. «Tumshuqli qirg'ichchalar» teridagi yog'larni yumshatib, boshqa qirg'ichlar hamda qirg'ichchalar yordamida terini qirish qulay bo'lishini ta'minlagan.

Samarqand makoni hududida toshlarni chaqmoqlash va qurollar yasash muhim o'rin egallagan. Shunday bo'lsada, makonda qandaydir nukleuslarning va ular bilan bog'liq tosh qurollar konsentratsiyasi kuzatilmaydi⁷³. Bu degani, makon hududida qandaydir ustaxona bo'lganligi haqidagi fikrlar faktlarda o'z isbotini topmaydi⁷⁴. To'plamda ko'p sonli nukleuslarning, tosh g'o'lalarning, texnik yo'nilg'ilarning va boshqa chaqmoqlash chiqitlarning uchrashi ularning ustaxonadan kelib chiqqanligini bildirmaydi. Makonda materiallar butun maydon

⁷³ Холюшкин Ю. П. Проблемы корреляции позднепалеолитических индустрий Сибири и Средней Азии. Новосибирск. Шумов В. В. Самаркандская стоянка первобытного человека (полевой отчет о раскопках и геологическая характеристика / Архив Самаркандского Музея истории, культуры и искусства УзССР. №. 996. 1981. – С. 53.

⁷⁴ Лев Д.Н. Палеолит Самаркандской области и его специфические особенности // Тр. Сам.ГУ. Новая серия. Вып.166 (под ред. Аминова М. У.). Самарканд, 1967. – С. 84.

bo'ylab sochilib yotadi va bu tosh qurollar yasashning faol amalga oshirilganligidan dalolat beradi.

Samarqand makoni aholisi o'z ajdodlarining an'alariga hurmat bilan qaraganlar va ular toshlarni chaqmoqlash, tosh qurollar yasashda o'rta paleolit davriga xos qadimiy texnologiyalarni saqlab qolganlar. Shuning uchun ham, makon industriyasida so'ngi paleolit davri texnikasi elementlari bilan yangilanib boradigan arxaiik belgilar uchraydi. Makon aholisining to'rtta asosiy kundalik yumushlari mavjud bo'lgan. Bular ov qilingan hayvonlarning go'shtini maydalash, teriga, yog'ochga ishlov berish hamda ushbu faoliyatni zarur tosh qurollar bilan ta'minlash uchun chaqmoqlash va qurollar yasash texnologiyalaridir. Tosh qurollarning faol ishlatilganligiga ko'ra, Samarqand makonini yarim dasht hamda dasht hududlaridagi yovvoyi ot, qulun va ibtidoiy turlarga ov qiladigan ovchilarning asosiy lageri, deb qarash lozim. Samarqand makoni ustalari tomonidan zarb berish texnikasi juda mukammal egallangan. Ularga parallel, yelpig'ichsimon, radial hamda ortogonal chaqmoqlash texnikalari ma'lum bo'lgan. Chaqmoqlashning xarakteridan kelib chiqib, barcha nukleuslardagi negativlarning yuqori qismlarida konussimon chuqurchalar izlari saqlanib qolgan va bu sindirib olingan yo'nilg'ilar zarb maydonchalarining katta bo'lganligidan dalolat beradi⁷⁵. Shuningdek, to'plam nukleuslaridagi negativlarning pastga qarab yupqalashuvi tendensiyasi ham kuzatiladi. Shuning bilan birga, Samarqandlik ustalar ezma texnikani (отжимная техника) ham bilganlar. Bu haqda ish yuzasida yupqa parallel negativlarga ega haddan tashqari ishlov berilgan mikronukleuslar seriyalarining va ular zarb maydonlarining chekka qismlarida mikrochuqurchalarning mavjudligi guvohlik beradi. Bunday o'zaklardan plastinkalar yoki mikroplastinkalar chaqmoqlab olish, yo'nilg'i qirralarining parallel hamda zarb maydonlarning yaxshilab tayyorlanishini talab qilgan. Bunday yo'nilg'ilar "vositachi" (продсредник) yoki konussimon uchga ega shox yoki suyak tayoqchaga zarb berish orqali chaqmoqlanishi mumkin bo'lgan.

Shunday qilib, Samarqand makoni chaqmoqlash texnologiyasida zarb texnikasi ustun bo'lgan va mahalliy ustalar texnologik strategiyasida asosiy rol o'ynagan. Uning yordamida o'ziga xos qirralari o'tkir va zarb maydonchalari yirik uchirindilar chaqmoqlab olingan.

Samarqand makoni qatlamlarining yagonaligi va bir vaqtda hukm surganligi masalasi ham juda murakkabdir. Uning sanasi borasidagi turli fikrlarning mavjudligi (33-20 ming yilliklar oralig'ida) aftidan, uning so'ngi paleolit bosqichining turli xronologik davrlarda o'zlashirilganligini ko'rsatadi. Ushbu fikrni hozirda yuqori terrasaning quyi qatlamlari materiallarining tadqiqi

⁷⁵ Жўракулов М.Ж. Самарқанд палеолит макони манбаларини янги ёндашув асосида ўрганиш натижаларидан // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар - 2003 йил. №4. Тошкент, 2004. – Б. 68; Коробкова Г.Ф., Джуракулов М.Д. Самаркандская палеолитическая стоянка как эталон верхнего палеолита Средней Азии: (специфика техники расщепления и хозяйственно-производственной деятельности) // Stratum plus. – Кишинёв: 2000. – Вып. 1. – С. 385–462.

isbotlamoqda⁷⁶. Bir vaqtlar S. A. Nesmeyanov⁷⁷ bu yerda yalangdasht (глодностеп) davriga oid ikki xronologik bosqichga tegishli terrasalarning mavjudligi haqidagi fikrlarni keltirgan edi.

Palinologik tadqiqotlar natijalari⁷⁸ bu fikrni go'yo tasdiqladi. Ushbu fikrni M.J. Jo'raqulov ham inkor etmaydi⁷⁹, ammo yuqori terrasa materiallarining kam sonliligi hamda quyi gorizontning nisbatan ancha qadimiyligi masalasi ochiq qolmoqda. Shuning bilan birga, yuqori terrasaning quyi qatlamlari materiallarini qisman analiz qilish ishlari ular orasida sezilarli tafovutlar borligini aniqlash imkonini berdi. dastlabki tadqiqotlarning ko'rsatishicha, Samarqand makonida ikkita turli davrlarga oid yashash joylari bo'lgan yoki ikkita turli xronologik komplekslar hukm surgan. S.A.Nesmeyanovning fikricha⁸⁰ makonda hayot uning yuqori terrasasidan boshlangan.

Samarqand makonining O'rta Osiyo va Sibirning sinxron yodgorliklariga aloqadorligi masalasini chetlab o'tish mumkin emas. O'z paytida A. p. Okladnikov⁸¹ Samarqand makoni bilan Malta, Buret, Kokorevo va Afontov yodgorliklari bilan genetik bog'liqliklari borligini ta'kidlagan edi. Bu masalani, tilga olingan yodgorliklar industriyasini sinchiklab kompleks o'rganish orqali hal qilish mumkin.

Samarqand makoni bilan Malta va Buret yodgorliklari o'rtasidagi o'xshashlik gardishsimon nukleuslar, qayroqtosh qurollar, yupqa uchirindi va plastinalar, ayrim yirik uchirindilardan ishlangan qirg'ichlarning mavjudligidadir. Biroq, bunday taqqoslash umumiy xarakterga ega bo'lib, bunday o'xshashliklar davriy va regional tipdagi konvergent hodisalar deb talqin qilinishi mumkin.

Samarqand makoni bilan Achinsk so'ngi paleolit davri yodgorligi ham qiyoslangan. Achinskning industriyasi bir maydonli haddan tashqari ishlangan yarim konusli nukleuslar, ensiz o'zaklar, qalamtarosh shaklidagi plastinalar bilan xarakterlanadi. Uning uchun o'yib-kertib ishlangan hamda qarama-qarshi tarafdin retushlangan uchirindilar va plastinalar, nukleuslar siniqlaridan ishlangan qalin tipli qirg'ichchalar xosdir. Shuningdek, gardishsimon qurollar va tosh bigizlar ham uchraydi. Ba'zan mayda qayroqtoshlardan ishlangan keng va bo'rtib chiqqan qirrali qirg'ichlar diqqatni tortadi. Qayroqtoshli qurollardan uzunchoq

⁷⁶ Джуракулов М. Д. Результаты археологических исследований Самаркандской верхнепалеолитической стоянки в 1970—1971 гг. // Каменный век Средней Азии и Казахстана. ТД совещания. Ташкент. 1972; Джуракулов М. Д., Холюшкин Ю. П. Некоторые вопросы применения методов математической статистики в археологии каменного века // Материалы по археологии Узбекистана / Тр. СамГУ. Новая серия. Вып. 270. Самарканд, 1975. — С. 4-26.

⁷⁷ Несмеянов С. А. Геологическое строение Самаркандской верхнепалеолитической стоянки // Палеолит Средней и Восточной Азии. История и культура Востока Азии (под ред. Ларичева В. Е.). Новосибирск, 1980. — С. 41.

⁷⁸ Иванова Н. Г., Несмеянов С. А. Результаты палинологического изучения Самаркандской верхнепалеолитической стоянки. // Палеолит Средней и Восточной Азии. Новосибирск, 1980.

⁷⁹ Джуракулов М. Д. Каменный век бассейна Заравшана. Автореф. дисс... доктора ист. наук. Самарканд, 1992. — С. 14.

⁸⁰ Несмеянов С. А. Геологическое строение Самаркандской верхнепалеолитической стоянки // Палеолит Средней и Восточной Азии. История и культура Востока Азии (под ред. Ларичева В. Е.). Новосибирск, 1980. — С. 42.

⁸¹ Окладников А.П. Древние связи культур Сибири и Средней Азии // Бахрушинские чтения 1966 г. Вып. 1. Новосибирск, 1968. — С. 144-157.

qayroqtoshdan ishlangan yagona chopperik mavjud bo'lib, mamont shoxlaridan ishlangan buyumlar – Achinsk yodgorligi uchun xarakterli.

Shunday qilib, yuqorida tilga olingan yodgorliklarni Samarqand makoni bilan genetik aloqada bo'lgan deyish mumkin emas. Samarqand makoni bilan ko'p qatlamli Shugnou yodgorligi o'rtasida ham o'xshashliklardan ko'ra tafovutlar ko'p uchraydi. Ular o'rtasidagi o'xshashliklar haqida V. A. Ranov va Yu. P. Xolyushkinlar ko'p bora ta'kidlaganlar.

V. A. Ranovning fikriga ko'ra, Shugnouning 5 madaniy qatlami er. av. 25-28 ming yilliklar bilan sanalangan. Bu pasaytirilgan sana bo'lib, keyinchalik u to'g'rilanib, er.av. 20-25 ming yilliklar bilan belgilandi⁸². Ushbu yodgorlikda qayroqtoshli qurollar, kesgichlar, haqiqiy qirg'ichlar, nukleussimon qirg'ichchalar umuman uchramaydi. Uning chaqmoqlash texnikasi va tanovorlari mutlaqo boshqacha. Yodgorlikning nukleuslari prizmatik, konussimon va ko'p maydonli o'zaklar ham uchraydi. Mualliflar tomonidan yodgorlikning nukleus-qirg'ichlar, deb talqin qilingan qurollar – oddiy konussimon nukleuslardir⁸³.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida Zarafshon daryosi vohasining qadimgi tosh davrini o'rganish ishlari yangi bosqichga ko'tarildi. Bir qator yangi ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Jumladan, Qo'tirbuloq makoni stratigrafik holatiga aniqliklar kiritildi va uning tosh buyumlari orasidan dunyo paleolitshunoslik fanida ilk marotaba “qo'tirbuloq tipidagi paykon”lar aniqlandi hamda ilmiy muomalaga kiritildi. Samarqand makoni tosh industriyasi trassalogik uslublar yordamida tadqiq qilinib, ushbu yodgorlikda yashagan ajdodlarimizning turmush tarzi, xo'jaligi va kundalik yumushlari haqida muhim ma'lumotlar qo'lga kiritildi.

2.3. Teshik-tosh va Amir-Temir g'orlari

2002-2003 yillarda O'zbekistonda tosh davrini o'rganish bo'yicha O'zbekiston-Rossiya qo'shma ekspeditsiyasi Boysuntog'da ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Natijada bu yerdan o'rta paleolit davriga oid Amir-Temir 1, hamda o'rta va so'ngi paleolit davriga mansub Teshik-Tosh 2 g'or makonlari ochib o'rganildi, Ushbu tadqiqotlarning natijalari bir qator maqolalarda va ilmiy hisobotlarda o'z aksini topdi.

Boysun tog'lari – Pomir-Oloy sistemasi tarkibidagi Hisor tog'larining janubi-g'arbiy tizmasiga kiradi va O'zbekistonning janubi-g'arbiy qismini, hamda qo'shni Tojikistonning bir qancha hududlarini o'z ichiga oladi. Bu yerdan oqib o'tadigan Machay-daryoda tosh davrini o'rganish ishlari 1931 yilda G.V. parfenov rahbarligidagi Surxondaryo o'lkashunoslik muzeyi ekspeditsiyasi tomonidan boshlanib, ushbu tadqiqotlar to'rt yil davom etgan.

Dastavval Machay g'ori ochilgan va uni tadqiq qilish bilan birga atrofdagi g'orlar va qoyalardan topilgan ayvonlar o'rganila boshlangan. 1938-1939 yillarda Surxondaryo o'lkashunoslik muzeyi bilan hamkorlikda A.p. Okladnikov boshliq

⁸² Ранов В. А., Никонов А. А., Пахомов М. М. Люди каменного века на подступах к Памиру (палеолитическая стоянка Шугноу и ее место среди окружающих памятников). // Acta Archaeologica Carpathica. Т. 16. 1976.

⁸³ Нехорошев П. Е. К методике изучения нижнепалеолитической техники и технологии расщепления камня // РА. № 3. 1993.

sobiq SSSR FA MMTI ekspeditsiyasi Teshik-tosh g'orida izlanishlarni boshlagan va shu yili bu g'ordan neandertal bolaning qabri topilgan. Bir vaqtning o'zida atrofdagi boshqa g'orlar qidirilib, o'rganila boshlangan. A.P. Okladnikov o'zining asarlarida Teshik-tosh va Machay g'orlaridan tashqari, arxeologik materiallarga ega yana 6 ta g'orlar haqida ta'kidlab o'tadi. Ularga Amir-Temir g'ori ham kiritilib, uni qazish ishlari ikki yil davom etgan⁸⁴. Ikkinchi jahon urushi natijasida bu yerdagi tadqiqotlar to'xtatilib, olingan natijalarning katta qismi chop etilmasdan qoldi.

2002 yilgi qo'shma ekspeditsiyaning vazifalari qatoriga Teshik-tosh 2 g'or makonida stasionar qazish ishlarini o'tkazish, hamda o'rganilayotgan hududlarda qo'shimcha qidiruvlar olib borish kiritilgan edi. Baxtga qarshi, A.P. Okladnikov va G.V. Parfenovlar tomonidan tilga olingan g'orlarning barchasini topishning imkoni bo'lmadi. Shunday bo'lsada, ekspeditsiya ishtirokchilari tomonidan ushbu hududlarda keng qidiruv ishlari olib borildi.

2003 yilgacha bu vohada faqat ikkita yodgorlik – Teshik-tosh hamda Amir-Temir g'orlari haqida ma'lumotlar, chop etilgan adabiyotlar ma'lum edi. Teshik-tosh g'ori materiallari monografiya shaklida bo'lsa, Amir-Temirda olib borilgan ishlar natijalari esa 1940 yilda «KSIIMK» Seriyalarida nashr qilingan edi⁸⁵.

Teshik-tosh. Ushbu obyekt Teshik-tosh g'oridan dara bo'ylab taxminan, 100 m balandlikda, har ikkala yodgorlik ham daraning o'ng bortida, dengiz sathidan – 1875 m balandlikda joylashgan. G'or eni 15 m lik va bo'yi janubdan sharqqa qarab 61,6 m ga cho'zilgan harsang ayvondir. Ayvonning poli ancha qiyalashgan va bu nishablik 25° ni tashkil qiladi. Shiftining balandligi 8-10 m bo'lib, biroz qiyalashgan. G'orning ichidagi bo'shtliqning to'lishida aftidan, karstli va gravitasion jarayonlar faol ishtirok etgan. G'orning polida shiftdan o'pirilib tushgan yirik harsang joylashgan. Ichkarida eski qazishmalar shurflarining o'pirilib yotgan devorlari va chuqurliklari ko'zga tashlanadi. Ulardan biri, g'orning shimoli-g'arbiy qismida, ikkinchisi ayvonning markaziy qismiga yaqinroqda joylashgan.

2003 yilda markazdagi shurfning sharqiy devori tomonidan 3x4 m lik qazish ishlari davom ettirildi. Ushbu qazishmalarning umumiy maydoni 12 m² va chuqurligi g'or tagidagi qoyalargacha davom ettirilgan bo'lib, u 7 m gacha yetadi. Umuman olganda, Teshik-tosh 2 yodgorligining yumshoq qatlamlari (17 ta stratigrafik gorizontlar ajratilgan) jigarrangning turli tuslaridagi Lesss tuproqdan iborat⁸⁶. Kesma bo'ylab pastga tushilgan sayin qatlamlarning rangi to'q tusga kirib, namligi ortib boradi. Ba'zi joylarda tuproq qatlam orasida shag'alli hamda yirik

⁸⁴ Окладников А.П. Амир-Темир, новый памятник каменного века в горах Байсун-Тау (Узбекистан) // КСИИМК. – 1940. – Вып. 6. – С. 67-69; Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) // Тешик-Таш: Палеолитический человек. – М.: Изд-во МГУ, 1949. – С. 7-85.

⁸⁵ Окладников А.П. Амир-Темир, новый памятник каменного века в горах Байсун-Тау (Узбекистан) // КСИИМК. – 1940. – Вып. 6. – С. 67-69.

⁸⁶ Деревянко А.П., Ширинов Т.Ш., Аношкин А.А., Борисов М.А., Гладышев С.А. Исследование грота Тешик-Таш-2 (Республика Узбекистан) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий: Мат-лы Годовой сессии ИАЭт СО РАН 2003 г., посвящ. 95-летию со дня рожд. академика А.П. Окладникова. – Новосибирск: Изд-во ИАЭт СО РАН, 2003. – Т. IX, ч. I. – С. 103.

oxaktosh bo'laklariga ega yotqiziqlar mavjud. Shag'alli va tuproqli gorizontlar g'ordan mavsumiy oqib turadigan loyqa suvlar tufayli vujudga kelgan.

Qazish ishlari jarayonida g'ordan 28 ta tosh buyum yig'ib olingan. Xomashyo sifatida bu yerda yashagan odamlar mahalliy oxaktoshlardan, ya'ni ular orasidan ko'proq chaqmoqtoshlilarini tanlab olib, foydalanganlar. Bu xomashyoning sifati juda past va ularda ichki yoriqlar, bo'shtliqlar hamda turli qo'shimchalar ko'p uchraydi. Qazishmada tosh buyumlar deyarli barcha yumshoq qatlamlardan topilgan (2-14 qatlamlar) biroq ular joylashuviga ko'ra na stratigrafik va na planigrafik konsentrasiyaga ega emas. Yodgorlikda shartli ravishda jami 6 ta materiallarga ega gorizont aniqlangan.

Qazishma natijalariga ko'ra aytish mumkinki, Teshik-tosh 2 yodgorligida yorqin namoyon bo'ladigan madaniy qatlam yo'q⁸⁷. Artefaktlarning xarakteri hamda ularning joylashuv sharoitlari yodgorlikni planigrafik jihatdan talqin qilish imkonini ham bermaydi. Aftidan, materiallarning asosiy qismi A.P. Okladnikov tomonidan o'rganilgan Teshik-tosh materiallariga yaqin, ya'ni muste davriga oiddir. Shuning bilan birga, yodgorlikning birinchi gorizontidan olingan materiallar: to'g'ri yelkali prizmatik plastina – so'ngi paleolit davri industriyalarini eslatadi. Qazishmaning turli xil chuqurliklaridagi ayrim, alohida topilmalar g'orni ibtidoiy odamlar tomonidan bir necha bor o'zlashtirilganligini biroq, bu o'zlashtirishlar qisqa muddatli, epizodik yoki mavsumiy bo'lganligini ko'rsatadi. Aftidan, ushbu g'or Teshiktoshlik ovchilarning Hisor tizmalaridan Machaydaryoga o'tadigan tranzit yo'ldagi to'xtash joyi vazifasini o'tagan. Uzoq muddat va davomiy yashash uchun g'orning yonginasida joylashgan Teshik-tosh makoni qulayroq hisoblanib, bu arxeologik materiallar bilan o'z tasdig'ini topgan.

Amir-Temir . Ushbu g'or Yuqori-Machay qishlog'idan 2,5 km g'arbroqda, shu nomli soyda joylashgan ($A=273^\circ$), uning mutloq balandligi 1740 m. G'or karstli Kelib chiqishga ega bo'lib, uzunligi 70 m, eni 23 m hamda shiftining balandligi 3,8 m ni tashkil qiladi. G'orning og'zi shimoli-sharqqa qaragan. Yodgorlik I.F. Lamayev tomonidan ochilgan bo'lib, 1938-1939 yillarda A.P. Okladnikov, 1939 yilda esa G.V. Parfenov tomonidan o'rganilgan⁸⁸. 1930 yillarda bu yerdagi qazishmalarning umumiy maydoni 15 m² atrofida bo'lgan. Qazishmalarda uchta madaniy qatlam ajratilgan, ulardan ikkitasi golosen va quyidagi bittasi taxminan muste davriga oid deb topilgan (qazishmalarning yer sathidan chuqurligi 1 m ga yetgan). Bu yerda A.P. Okladnikovning biroz qulagan

⁸⁷ Деревянко А.П., Ширинов Т.Ш., Анойкин А.А., Борисов М.А., Гладышев С.А. Исследование грота Тешик-Таш-2 (Республика Узбекистан) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий: Мат-лы Годовой сессии ИАЭт СО РАН 2003 г., посвящ. 95-летию со дня рожд. академика А.П. Окладникова. – Новосибирск: Изд-во ИАЭт СО РАН, 2003. – Т. IX, ч. I. – С. 103; Анойкин А.А. Древний человек в окрестностях грота Тешик-Таш (Узбекистан) // Эволюция жизни на Земле. - Материалы III Международного симпозиума 1-3 ноября 2005 г. Томск, 2005. – С. 326.

⁸⁸ Окладников А.П. Амир-Темир, новый памятник каменного века в горах Байсун-Тау (Узбекистан) // КСИИМК. – 1940. – Вып. 6. – С. 67-69; Парфенов Г.В. Каменный период Сурхан-Дарьинской области УзССР (по материалам к археологической карте УзССР). – Термез, 1941.-(Рукопись, архив Археологического музея г. Термез (Узбекистан), дело № 167. – 23 п.л.).

va shimolga yo'naltirilgan qazishmasi g'orning markaziy qismida joylashgan. Uning sharqiy devori tomonidan qazish ishlari 1x0,5 m ga kengaytililib, qazishmaning chuqurligi 1,9 m ga yetkazildi. Umuman, Amir-Temir 1 g'orining yumshoq qatlamlari (bu yerda 7 ta stratigrafik gorizont ajratilgan) jigarrangning turli tuslariga oid Lessli tuproq yotqiziqlaridan iborat. Qazishma kesmasidan quyiga qarab qatlamlarning rangi to'q tusga kirib, namlik ortib boradi.

Qazishma yotqiziqlari butun qalinligi bo'ylab ahyon-ahyonda qizg'ish-jigarrangli linzaga o'xshash qatlamlar bilan kesilgan va ularning tarkibi asosiy qatlamlarnikiga o'xshashdir. Kesmaning eng pastki qismida qumli hamda qayroqli to'lg'azmalarga ega qatlam uchraydi, uning rangi kulrang aralash jigarrangli. Qatlamdagi qayroqlar kichik hajmli va biroz deflyasiyaga uchragan. 3-qatlamda (chuqurligi yer sathidan 1 m) hajmi 1 m² lik ko'mir qoldiqlarigina saqlanib qolgan, buzilgan o'choq aniqlandi. Gulhandan bir nechta mayda suyak parchalari, hamda o'rta hajmli uchirindi topildi. Ushbu artefakt to'q rangli chaqmoqtoshli oxaktoshdan ishlangan bo'lib, uchirindining zarb maydonchasi tekis va dorsaliidagi negativlarning xarakteri ortogonal xarakterga ega.

Amir-Temir 1 g'oridan 2003 yilda topilgan yagona topilmadan tashqari, RFA SB AEI omborlarida A.P. Okladnikov qazishmalaridan olingan 47 ta tosh buyum saqlanadi⁸⁹. Ulardan 25 tasi tosh siniqlari, 7 tasi nukleussimon shaklli toshlar, 4 tasi plastinalar, 7 tasi uchirindilar va 6 tasi tosh qurollardir. To'plamning tosh qurollari qayroqtoshlardan yasalgan. Barcha buyumlar kulrangli chaqmoqtoshli oxaktoshlardan ishlangan. Kolleksiyadagi yirik plastinasimon yo'nilg'ining medial qismi saqlanib qolgan va uning dorsali ikkita parallel ravishdagi negativlar bilan qoplangan, biroq, uning shakli subparallel hamda noto'g'ri divergent ko'rinishga ega. To'plamning uchirindilari orasida yirik hajmlilari ko'pchilikni tashkil qiladi (5 ekz.), qolganlari esa o'rta hajmli. Ushbu buyumlarning deyarli barchasining zarb maydonchalari tekis, faqat bittasining zarb maydonchasi qayroqtoshli qobiq bilan qoplangan. dorsallarining xarakteri parallel (3 ekz.) yoki sistemasiz (3 ekz.) ko'rinishda bo'lib, uchirindilardan biri birlamchi xarakterda.

Amir-Temir 1 g'orining tosh qurollari (6 ekz.) asosan qirg'uvchi instrumentlardan iborat⁹⁰. Ulardan biri dorsal tarafidan uzunasiga ishlangan yirik ikkiyoqlama qirg'ich bo'lib, o'rta hajmli, yupqa va kvadrat shaklli tosh bo'lagidan ishlangan. Uning ikki qarama-qarshi qirrasidan mayda va o'rta hajmli keng modifikasiyalovchi seriyali yo'nishlar yordamida qirg'uvchi qirra hosil qilingan, ushbu qirra qo'shimcha hamda mayda va o'rta hajmli kam modifikasiyalovchi

⁸⁹ Анойкин А.А., Гладышев С.А., Памятники каменного века в горах Байсун-Тау (Узбекистан) // Археология и палеэкология Евразии. – Новосибирск: Изд-во Ин-т археологии и этнографии СО РАН, 2004. – С. 38; Деревянко А.П., Ширинов Т.Ш., Анойкин А.А., Борисов М.А., Гладышев С.А. Исследование грота Тешик-Таш-2 (Республика Узбекистан) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий: Мат-лы Годовой сессии ИАЭТ СО РАН 2003 г., посвящ. 95-летию со дня рожд. академика А.П. Окладникова. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2003. – Т. IX, ч. I. – С. 104.

⁹⁰ Анойкин А.А., Гладышев С.А., Памятники каменного века в горах Байсун-Тау (Узбекистан) // Археология и палеэкология Евразии. – Новосибирск: Изд-во Ин-т археологии и этнографии СО РАН, 2004. – С. 40.

uzlukli dorsalga yo'nalgan, vertikal tangachasimon retushlar bilan ishlov berilgan . Uning ko'ndalang qirralaridan biri nisbatan yupqa ikkiyoqlama mayda va keng yo'nishlar yordamida tekislangan, to'liqsimon shaklga ega. Yana bir qirg'ichsimon qurol katta trapesiyasimon tosh bo'lagidan ishlangan (12,5x12,5x6 sm)⁹¹. Uning qirralaridan birida mayda va keng hajmli modifikasiyalovchi yo'nishlar yordamida biroz egik qirg'uvchi qirra hosil qilingan. Ushbu ish qirra bir qator dorsalga yo'naltirilgan vertikal tishsimon retushlar bilan qo'shimcha ishlov berilgan . To'plamdagi ikkita qirg'ichsimon qurollar ham qiziqarlidir, shuningdek ularni yasashda trapesiyasimon yupqa qayroqtoshlardan foydalanilgan⁹². Ulardan birining biroz bo'rtgan va ensiz qirrasi turli hajmdagi yupqa yo'nishlar seriyasi yordamida ishlov berilgan , natijada, qayroqtoshda notekis va 45° ga egik ish qirra hosil bo'lgan. Qayroqtoshning qarama-qarshi qirrasi to'g'ri va qalin shaklda.

To'plamda o'rta hajmli va to'g'riburchakli tosh bo'lagining uch qismida ishlangan qirg'ichcha ham mavjud. Uning to'g'ri ish qirrasi tanovorning tor va qalin qirralaridan birida turli hajmli vertikal hamda modifikasiyalovchi bir qator retushlash yordamida shakllantirilgan. Ushbu tosh qurol makroqirg'ichchalar qatoriga kiritilishi mumkin. Bundan tashqari, Amir-Temir industriyasida bir dona teshgich (шиповое орудий) qurol ham bor⁹³. Ushbu qurolni yasashda tanovor sifatida yirik va yupqa trapesiyasimon tabiiy yo'nilg'idan foydalanilgan. Uning nisbatan uzunroq tabiiy uchli burchagi seriyali, qarama-qarshi, mayda va keng modifikasiyalovchi yo'nishlar yordamida ishlov berilgan; ularning negativlari qatma-qat bo'lib, ular yirik va yumaloq bo'rtik hosil qiladi hamda ushbu bo'rtmada uni ishlatishdan qolgan tartibsiz izlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, Boysuntog'da olib borilgan O'zbekiston-Rossiya qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan Teshik-tosh , Amir-Temir kabi g'or manzilgohlari ochib o'rganildi. Teshik-tosh yodgorligining yuqori qatlamlari so'ngi va pastki qatlamlari o'rta paleolit davrining oxirlariga oidligi aniqlandi. Aytish mumkinki, Janubiy O'zbekistonning Boysuntog' hududlarida ham ibtidoiy ajdodlarimiz o'rta paleolit davridan boshlab uzluksiz hamda mahalliy taraqqiyot izlariga ega bo'lgan madaniy o'choqlardan biridir. Amir-Temir g'ori materiallari esa o'rta paleolit davriga oid bo'lib, uning ochilishi ushbu davrda ibtidoiy odamlarning anchayin zich yashaganliklarini ko'rsatdi.

2.4. Qashqadaryo voxasi paleolit davri makonlari

Angilloq g'ori va O'zbek-Amerika ekspeditsiyasi tadqiqotlari.

⁹¹ Kўрсатилган адабиёт. – Б. 40.

⁹² Анойкин А.А., Гладышев С.А., Борисов М.А., Семин А.А. Археологическая разведка в районе хребта Байсун-Тау (Узбекистан). // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий: Мат-лы Годовой сессии ИАЭТ СО РАН 2003 г., посвящ. 95-летию со дня рожд. академика А.П. Окладникова. – Новосибирск: Изд-во Ин-та археологии и этнографии СО РАН, 2003. – Т. IX, ч. I. – С. 25;

⁹³ Анойкин А.А. Древний человек в окрестностях грота Тешик-Таш (Узбекистан) // Эволюция жизни на Земле. - Материалы III Международного симпозиума 1-3 ноября 2005 г. Томск, 2005. – С. 328.

Angilloq g'ori 2001 yilda R.H. Sulaymonov tomonidan ochilgan. Uni sistematik o'rganish ishlari 2002 yilda xalqaro O'zbek-Amerika talabalar ilmiy arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan boshlandi. Qazish ishlarida talabalardan tashqari, O'MU o'qituvchilari hamda Kolorado Universiteti antropologiya departamentni mutaxassislari, O'zR FA Tarix va Arxeologiya institutlari olimlari va O'zR prezidenti qoshidagi davlat va Jamiyat qurilish akademiyasi xodimlari ishtirok etishdi. Olingan natijalar qator ilmiy maqolalarda va yillik hisobotlarda o'z aksini topgan⁹⁴.

Angilloq makoni Yorma g'oridan 700–800 m balandroqda, Ayoqchisoyni shimoliy qirg'og'ida, Qashqadaryo viloyatining Kitob tumani hududida joylashgan. Uning absolyut balandligi soyni tubidan taxminan 250 m yuqorida. G'orning eni 10 m, chuqurligi 7 m va balandligi 6-7 m hamda kirish qismida kichik maydoncha mavjud. G'or boshpana va istiqomat qilish uchun juda qulay.

2002-2004 yillarda g'orning ichkarisidan ayrim yo'nilg'i bo'laklari topilgan edi va shu sababdan, bu yerda chuqurligi 1,5 m gacha yetadigan bir nechta shurflar qazildi. Qazishmalarning barchasida materikkacha va ba'zan undan ham quyiroqgacha yetkazildi.

Qazishmalarga ko'ra yodgorlikda uchta madaniy qatlam aniqlangan va ularning rangi yuqoridan pastga qarab biroz o'zgarib boradi.

Angilloq g'orining tosh industriyasi 500 tadan ziyodni tashkil qiladi va ularning katta qismi uchirindilar, siniqlar (обломки) hamda parraxalardan (чешуйки) iborat. To'plamning uchirindilari radial, yelpig'ichsimon va parallel ravishda chaqmoqlangan nukleuslardan yo'nilgan. Aksariyat hollarda ular ikkilamchi ishlov berilib qurollarga aylantirilgan.

Angilloq g'ori industriyasi uchun yo'nilg'ilarni atayin sindirish yoki bo'laklash texnikasi xarakterlidir. Buning sabablari bir nechta. G'orga ishlov berish uchun keltirilgan xom-ashyoning sifati juda past bo'lgan va yo'nilg'ilarning katta qismi atipik bo'lgan holatda, bo'rtib turgan hamda noqulay burchaklarini atayin sindirib, ikkilamchi ishlov berish ma'qul ko'rilgan.

Angilloq g'ori tosh qurollari. Angilloq g'ori tosh qurollari tipologiyasi O'rta Osiyodagi so'ngi paleolit davri yodgorliklariga xos buyumlardan: retushlangan plastinalar, asosan uzunchoq shaklli paykonlar, bir qismini qirg'ichlar deyish mumkin bo'lgan retushlangan uchirindilardan iborat. Ta'kidlanganidek, retushlangan plastina va uchirindilarning fragmentlari ko'plab uchraydi.

retushlangan plastinalar-12 ekz. To'plamda 12 tadan retushlangan atipik plastinalar seriyasi mavjud. Ularning dorsallaridagi negativ izlari xakteri parallel ravishda. Biroq, xom-ashyo sifatining pastligi sababli ushbu plastinalar kalta, notekis va ko'pincha qirralari noto'g'ri ko'rinishlarga ega. plastinalardan faqat ikkitasigina, sifatli kremniydan chaqmoqlangan va to'g'ri shakllidir. Ularning qirralaridagi retushlar esa, tiplari va intensivlik darajasiga ko'ra xar xilda. Ba'zi hollarda ularning

⁹⁴ Сулейманов Р.Х., Тойчиев Х.А., Ташкенбаев Н.Х., Джуракулов М.Дж., Холматов Н.У., Крахмаль К.А., Ибрагимов Р.З., Глантз М., Шраубер А.Х., Бургер О.Ф., Циммерман Х.П. Отчет по результатам полевых исследований совместной эколого-археологической экспедиции по изучению памятников каменного века. Ташкент, (май-июнь, 2001 г). Научный архив ИА АН РУз. Фонд 07. 01. №160. С. 2 – 19;

retushlari yupqa, o'tkirlashtiruvchi, boshqa holatlarda tishsimon va ancha tik. Ayrim hollarda plastinalarni retushlash ventral tarafdin amalga oshirilgan.

Qirg'ichlar-3 ekz. To'plamda uch dona parallel dorsalli uchirindilardan ishlangan qirg'ichlar mavjud. Ulardan ikkitasining keraksiz uchlari atayin kesilgan va ishlatish uchun qulay holaga keltirilgan

Angilloq industriyasida yelkasi parallel xarakterdagi uchirindilardan ishlangan qirg'ichlardan tashqari, yirik uchirindilar yoki kvars plitkalardan tayyorlanganlari ham uchraydi. Ularning hajmi 3-6 sm uzunlikdadir. Ushbu qirg'ichlardan uchasi uchirindilardan tangachasimon retushlash yordamida ishlangan va to'rttasi kichik kvars plitkalardan qiya retushlash bilan tayyorlangan.

Tipologik jihatdan ular yonlama qirg'ichlar bo'lib, qirralari bo'rtib chiqqan. Ayrim hollarda ushbu qirg'ichlarning har ikkala qirralariga ham ishlov berilgan. Ba'zan ular uchburchaksimon bo'lib, psevdopaykonlarga o'xshab ketadi.

Atayin kesilgan yo'nilg'ilar-5 ekz. Angilloq industriyasida tosh buyumlarni atayin Kesish an'anasining hukm surganligi haqida to'plamdagi besh dona dorsallari parallel xarakterdagi, retushlangan uchirindi va plastinalarning mavjudligi ham tasdiqlaydi. Ulardan biri plastinaning medial qismi bo'lsa, qolganlari yo'nilg'ilarning proksimal qismlari bo'lib, ular zarb tepaliklarini (ударный бугорок) saqlab qolgan.

Fragmentlashtirilgan buyumlarning qolganlari retushlangan uchirindilar bo'laklaridan iborat (jami 24 ekzemplyar). Ularning bir qismi ikki tomondan va ba'zan uchchala tomondan atayin sindirilgan. Shundan 6 tasi kvarsdan ishlangan retushlangan uchirindilar siniqlaridir. Ushbu kategoriyadagi qolgan buyumlar kvars plitkalardan ishlangan.

paykonlar-8 ekz. To'plamda 4 dona butun, kalta muste davriga xos paykonlar mavjud. Ularning barchasi kalta va uchburchaksimon uchirindilardan ishlangan. Ushbu paykonlardan biri ventral tarafdin yupqalashtirilgan va zarb maydoncha tomoni kesilgan. Shuningdek, kolleksiyada paykonlarning 4 ta uch qismlari siniqlari ham bor.

Ta'kidlash joizki, to'plamdagi paykonlar parallel, radial yoki yelpig'ichsimon yo'nishlar yordamida qo'lga kiritilgan. Ularning bo'yi enidan kamida ikki marta katta. Ushbu paykonlarning uchburchak shakldaligi ularning nolevallua texnikasi, ya'ni protoprizmatik, yelpig'ichsimon yoki radial gardishsimon nukleuslardan chaqmoqlab olinganligidan dalolat beradi. paykonlarning uzun qirralari distal tomondan mayda retushlash yordamida ishlov berilgan va faqat bitta holatda, qirralari intensiv retushlangan.

retushlangan uchirindilar-20 ekz. Ushbu kichik hajmli, retushlangan uchirindilar kremniylashgan slanes, plastik vulqon jinslari hamda mayda qumli qayroqtoshlardan ishlangan. Ularning uzunligi 1,7-3 sm oralig'ida. Kremniydan hamda qayroqtoshdan ishlangan uchirindilar kvarsdan ishlangan uchirindilarga ko'ra hajmi kichikroq ko'rinishga ega. Bu holat, Angilloqda sifatli xom-ashyoning tanqisligi sezilarli darajada bo'lganligini ko'rsatadi va shuning uchun ham kremniyli buyumlar haddan tashqari ishlov berilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu uchirindilar ko'pincha nostandart ko'rinishlarga ega bo'lib, ularning qirralaridagi retushlari

qalinligiga mos ravishda o'tkirlashtiruvchi, tangasimon va qiya retushlar bilan ishlangan.

O'yib-kertib ishlangan qurol-1 ekz. Kolleksiyada ikkita o'yib-kertib ishlangan qurol mavjud bo'lib, u ham atayin kesilgan uzunchoq va massiv kvarli uchirindidan yasalgan.

Angilloq g'ori industriyasining o'ziga xos xususiyatlari. Angilloqliklar xom-ashyo sifatining o'ta pastligiga qaramasdan iloji boricha uzunchoq plastinasimon yo'nilg'ilar chaqmoqlab olishga intilganlar, ya'ni O'rta Osiyoda muste davrida hukmron bo'lgan parallel chaqmoqlash an'analariga sodiq qolganlar.

Angilloq g'ori industriyasining ikkinchi muhim xususiyati shundaki, unda nafaqat kichik hajmli retushlangan uchirindilar, balki fragmetnasiyalashtirilgan uchirindilar, plastinalar hamda qurollardan ham foydalanilgan. Bunday buyumlar ko'pincha retushlangan qurollarning fragmetnlari sifatida tasniflanadi. Angilloq industriyasining asosiy qismi fragmentlashtirilgan tosh buyumlarni tashkil qiladi. To'plamdagi tosh qurollarning hajmi shunchalar kichikki, ularni ishlatish jarayonida sindirib qo'yishning iloji yo'q.

Angilloq industriyasidagi tosh qurollar hajmining kichikligini ikki xil tushuntirish mumkin. Birinchidan, yodgorlikda sifatli xom-ashyoning tanqisligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, angilloqliklarning asosiy ovqat sifatida dasht tobaqasini iste'mol qilishlaridandir. Negaki, toshbaqaning ustki qismi kosa bilan qoplangan bo'lib, uning go'shtini ajratib olishda kichik hajmli tosh qurollar yoki ularning fragmentlaridan foydalanish talab qilingan.

Shuning uchun, chaqmoqlab olingan yo'nilg'ilar yirik bo'lgan taqdirda ham ularni atayin parchalashganlar. Ta'kidlanganidek, angilloqliklar ishlatgan past sifatli xom-ashyo asosan Oyoqchisoy daryosi etaklaridan yig'ib olingan galkalar bo'lib, uni qadimgi odamlar petrografik tuzilishiga ko'ra tanlab olishganlar. Suvda silliqlangan galkalar hozirda ham Angilloq g'ori yaqinidan oqib o'tadigan Oyoqchisoy etaklarida ko'plab uchraydi.

Angilloq g'ori industriyasi uchun, O'rta Osiyoning boshqa muste davri yodgorliklarida bo'lgani singari, protoprizmatik, radial yoki yelpig'ichsimon chaqmoqlash texnikasi xarakterlidir. Bu industriyada ortogonal yoki sistemasiz chaqmoqlash texnikasi ham mavjud bo'lib, ular ikkinchi darajali rol o'ynagan.

O'rta Osiyoning boshqa muste davri texnokompleks larida bo'lgani kabi, Angilloqda ham retushlash biroz o'tkirlashtiruvchi yoki tishsimonroq xarakterga ega. bunday tipdagi retushlar yordamida angilloqliklar plastinalar, uchirindilar, qirg'ichlar va paykonlarga ishlov berganlar. To'plamda qiya, chuqur va intensiv retushlash kam uchraydi.

Angilloq g'ori industriyasining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uchirindilar, plastinalar va tayyor tosh qurollarni ataylab fragmentlashtirishning keng qo'llanilganligidir. G'ordan 2003 yilda yig'ib olingan tosh buyumlarning 33 tasi atayin sindirilgan. Bularga retushlangan plastinalar, uchirindilar, qirg'ichlar va paykonlarni kiritish mumkin. Tosh buyumlarni ataylab fragmetnasiyalashning bunday ko'p

sonliligi O'rta Osiyoning paleolit davriga oid boshqa bironta yodgorliklarida ma'lum emas⁹⁵.

Shunday qilib, o'ziga xos va O'rta Osiyoning boshqa yodgorliklari texnokompleks laridan ajralib turadigan Angilloq industriyasi retushlangan plastinalar, paykonlar hamda bir qismini qirg'ichlar deya tasniflash mumkin bo'lgan retushlangan uchirindilardan tarkib topgan. Ta'kidlangandek, to'plamda fragmentlashtirilgan retushlangan uchirindi va plastinalar ko'plab uchraydi. retushlangan plastinalar seriyasi alohida ajralib turadi.

Angilloq g'ori industriyasining madaniy-davriy talqini. Angilloq g'ori industriyasining xom-ashyosi tarkibi turlicha bo'lib, ammo, ularning sifati juda past. G'orda kvars, kvarsli qayroqtosh, rogovik, realitlar, kremniylashgan ohaktoshlar hamda ayrim hollarda kremniydan foydalanilgan. Eng ko'p uchraydigan tosh jinsi oq rangli kvars bo'lib, u kichik hajmli galkalar shaklida Oyoqchisoyda ko'plab topiladi.

Angilloq g'ori industriyasining prinsipial ahamiyati, uning muste davri chaqmoqlash texnikasi va tosh qurollari tipologiyasi an'analarini saqlab qolganigidadir, Ayrim mustasnolar mavjud. Bunga qirralarining bir qismi o'tmaslashtiruvchi retushlar yordamida o'tmaslashtirilgan 2 dona plastinkalarni kiritish mumkin.

Angilloq g'ori industriyasida makon atrofi hududlarida mos kremniylashgan jinslarning uchramasligi sababli plastinalar chaqmoqlash texnikasi degradasiyaga uchragan. Unda kvarsdan, vulqoniy va boshqa anizotrop jinslardan qo'pol buyumlar yasalgan. Chaqmoqlash texnikasida radial-gardishsimon va yelpig'mchsmon nukleuslarga ega hamda ko'p hollarda tartibsiz sindirilgan buyumlar uchraydi. To'plamning nukleuslari haddan tashqari ishlov berilgan mitti ko'rinishlarga ega.

Ammo, parallel yoki konvergent yelkali uzunchoq yo'nilg'ilarning mavjudligi Angilloqda an'anaviy plastinasimon chaqmoqlash texnikasi hukm surganligini ko'rsatadi. Ba'zan, tanlab olingan galkaning hajmi taqozo qilsa. Bir yoki ikki zarb maydonli parallel chaqmoqlash texnikasi to'liq amalga oshirilgan nukleuslar ham uchraydi.

Angilloqning tosh qurollariga kelsak, ular to'liq mustega xos ko'rinishga ega. Bular: retushlangan uchirindilar, qirg'ichlar, paykonlar, retushlangan plastinalar hamda yuqorida ta'kidlangan ikki dona plastinalardan ishlangan pichoqlardir. R.H. Sulaymonov ushbu ikkita pichoqning mavjudligini "Angilloq texnokompleks ining so'ngi paleolit davriga xosligini ko'rsatuvchi belgilaridir", degan fikri ham hisobotlarda keltirilgan.

Angilloq industriyasidagi kulrangli maydaqumli qayroqtoshdan ishlangan, yagona uchlari atayin kesilgan yirik plastina obiraxmat madaniyatidagi, masalan, Qo'tirbuloqdagi mitti tosh iskanalar hamda qirg'ichlarni eslatadi. Biroq, Angilloqdagi nusxa lateral yoki ventral tomondan aniq qilib yo'nilmagan. Shu

⁹⁵ Сулейманов Р.Х., Глантз М., Пасилов Б., Ражабова Н., Паин Л., Адамс Дж., Ритцман Т. Отчет о полевых исследованиях совместной Узбекско – Американской археологической экспедиции в 2003 году. Раскопки грота Ангиллак. Ташкент, Научный архив ИА АН РУз. Фонд 03.01. № 128. С. 2 – 19;

yerda aytish mumkinki, bu Angilloqdagi xom-ashyoning xususiyatlaridan kelib chiqadigan xususiyatdir. To'plamda, hatto, kam sonli kremniylashgan jinslarga ishlov Berilayotganda ham boshqa jinslardan yasalgani kabi bir xildagi tosh qurollar ishlab chiqarilgan yoki bir xilda retush berilgan. demak, so'ngi paleolitga xos qurollar yasash mumkin bo'lgan xom-ashyodan ham Angilloqliklar an'anaviy arxaik stereotiplar ishlab chiqarganlar.

Shunday qilib, Angilloq g'ori probalarining S-14 uslubi asosida olingan 27 ming yillik sana to'g'ri bo'lib, uning muste ko'rinishiga ega bo'lgan industriyasi so'ngi paleolit davriga oiddir.

Ehtimol, Angilloq g'orining so'ngi paleolitga oidligi ushbu industriyadagi buyumlarning kichik hajmdaligida aks etadi. Ayniqsa, Angilloqda tiplari va formalaridan qat'iy nazar 2-4 sm keladigan hajmli nukleuslarning mavjudligi xayratlanarli. Aftidan, Angilloqliklar toshlarni chaqmoqlashda turli xil vositachilardan foydalangan bo'lishlari mumkin, biroq to'plamda mikroplastinkalar uchramaydi.

Qo'tirbuloqning 4-qatlami uchun uran uslubi yordamida Ovro'pada so'ngi paleolitning boshlanishi davriga oid 32900 yillik sana olindi. Ammo, Qo'tirbuloqning industriyasi obiraxmat g'orining 80-90 ming yilliklar bilan sanalangan qatlamlari tosh buyumlari bilan juda yaqin analogiyalarga ega. demak, Qo'tirbuloqning industriyasi Obiraxmat g'orining o'ziga o'xshash muste davriga oid plastinasimon to'plamidan ikki marta yoshroq va so'ngi paleolit davriga oidmi?. Ammo, bu yerda shuni ham hisobga olish joizki, Qo'tirbuloq madaniy qatlamlarining buloq bo'yida joylashganligi sababli, ming yilliklar davomida suv bilan yuvib turilgan, suyaklar minerallashgan (sanalash uchun aynan suyaklardan na'munalar olingan).

Angilloq g'orining radiokarbon sanasi haqida ham shunday fikrlarni aytish mumkin. Uning paleolit davriga oid madaniy qatlamlari o'rta asrlar va hozirgi zamon uy hayvonlari tezaklari bilan qoplangan. Har yili yomg'irlar mavsumida g'orning yuqori qatlamlari suv yordamida eriydi va paleolit davri qatlamlariga sizib o'tadi. G'orda o'sadigan o'tlarning tomirlari ham shunday xususiyatga ega. bundan tashqari, g'orning g'ovak qatlamlari ko'pincha yumronqoziqlar tomonidan o'yib tashlangan. Bularning barchasi paleolit davri qatlamlaridagi ko'mir qoldiqlarining ifloslanishiga olib keladi. Natijada. Angilloq g'orining paleolit davriga oid qatlamlaridan olingan ko'mir qoldiqlari na'munalaridan olingan radiokarbon sanalarga ishonish qiyin.

Shunday qilib, biz O'rta Osiyoning paleolit davri bo'yicha yangi ma'lumotlarga va yangi sanalarga egamiz, biroq, ular hali o'zining davriy va madaniy xosliklari borasidagi yechimini to'liq topganicha yo'q.

Angilloq g'orining materiallari texnik-tipologik jihatdan Zarafshon vohasidagi Qo'tirbuloq hamda Omon-Qo'ton makonlari materiallariga o'xshashdir. Ammo, ulardan bu industriya o'zining amorfligi va nukleuslar. Yo'nilg'ilar hamda qurollar hajmining kichikligi bilan ajralib turadi. Angilloqliklar sifatli hom-ashyoning tanqis sharoitlarida yashaganlar.

Angilloqning texnokompleks obiraxmat madaniyati industriyalariga o'xshashdir, garchi, u o'zining kichik hajmdaligi va amorfligi bilan ajralib tursada. Yodgorlikning sanasi masalasiga esa hali aniqliklar kiritilishi lozim.

Ishlatilgan xom-ashyo sifatining pastligiga qaramasdan Angilloqliklar uzunchoq plastinasimon yo'nilg'ilar chaqmoqlab olishga harakat qilishgan. Angilloq g'ori industriyasi hajmining kichikligi ikkita sabaga ko'ra: birinchidan, yaxshi sifatli xom-ashyoning tanqisligi, ikkinchidan, asosan mayda tosh qurollarni qo'llashni talab qiladigan toshbaqalarni iste'mol qilish oqibatida sodir bo'lgan. Ta'kidlanganidek, Angilloq g'ori qatlamlaridan 42000 – 27000 yillar bilan belgilangan radiokarbon sanalar olingan. Yodgorlikni bevosita tadqiq qilgan R.H. Sulaymonov uning quyi sanasini qabul qiladi. Ammo, bu borada keyingi yillarda yana boshqa bir fikr paydo bo'ldi⁹⁶. O'zbekiston paleoliti tadqiqotchilaridan Sayfullayev B.Q., Xushvaqov N.O. va Qurbonboyev I. Ushbu radikarbon sananing yuqori sanasini (27 000 yil) qabul qildilar va buning uchun ishonchli dalillar Keltiradilar. Masalan, Angilloq industriyasidagi ikki dona qiya retushlab o'tmaslashtirilgan plastinkalar hamma joyda uzog'i bilan 28000 yillar burun paydo bo'ladi va ular gravetti davriga xosdir. Bundan tashqari, tadqiqotchilarning fikricha, Angilloqning industriyasidagi paykonlar seriyalari ancha uzunchoq va yupqa ko'rinishga ega bo'lib, shu sababli ular muste davriga xos emas⁹⁷.

Shunday qilib, O'zbek-Rossiya hamda O'zbek-Amerika xalqaro ekspedisiyalari yurtimizning janubiy hududlaridan Teshik-tosh 2, Amir-Temir 1 va Angilloq kabi paleolit davriga oid g'or manzilgohlarni topib o'rgandilar. Ushbu tadqiqotlar O'zbekistonning eng qadimgi tarixi bo'yicha muhim ma'lumotlarni berdi va qadimgi tosh davri xaritasini yanada boyitdi. Shu paytgacha Janubiy O'zbekiston hududlaridan so'ngi paleolit davriga oid bironta ham topilma mavjud emas edi. Ushbu xalqaro ekspedisiyalar tadqiqotlari natijalari yurtimizning janubiy hududlarida ham so'ngi paleolit davridan zamonaviy odamlarning ilk formalari istiqomat qilishgani va buning uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lganligini ko'rsatdi.

⁹⁶ Сайфуллаев Б.К., Хушваков Н.О., Курбонбаев И., О позднем палеолите Узбекистана// ИМКУ, Вып. №35. Ташкент, 2007. С. 12 – 19.

⁹⁷ Сайфуллаев Б.К., Хушваков Н.О., Курбонбаев И., О позднем палеолите Узбекистана// ИМКУ, Вып. №35. Ташкент, 2007. С. 12 – 19.

III BOB. IKKI DARYO ORALIG'I MEZOLIT VA NEOLIT DAVRI ARXEOLOGIYASI.

3.1. O'zbekistonda mezolit davrining yodgorliklari va madaniyatlari

Dunyo paleolitshunoslari birmuncha vaqt mobaynida so'nggi tosh asri bilan neolit davri o'rtasida bog'lovchi yana bir tarixiy davr mavjud bo'lganligini faraz qilishgan va mazkur davr – mezolit haqidagi dastlaki ma'lumotlar XIX oxiri va XX asr boshlarida paydo bo'lgan. Shunga qaramasdan yaqin kunlarga O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda mezolit davri jamoalari moddiy madaniyati yaxshi o'rganilmagan davrlardan biri hisoblanardi⁹⁸. B.Z. Gamburg, N.G. Gorbunova, Yu.A. Zadneprevskiy, O'.I. Islomov, V.I. Timofeyev kabi olimlarning izlanishlari tufayli Markaziy Farg'onada, E.B.Bijanovva A.V. Vinogradov tomonidan Qizilkumda Ustyurt platosida M.J. Jo'raqulov, N.U. Xolmatovlar tomonidan O'rta va Quyi Zarafshon voxasida ko'plab mezolit davri makonlari topildi va natijada, bu davr yodgorliklarining turli-tuman madaniy davriy tahlili (interpretatsiyasi) haqida fikr yuritish imkoniyati tug'ildi.

Hozirgi kunda O'rta Osiyoda 30 ga yaqin stratigrafiyalashgan va 200 dan ziyod topilma joylar aniqlanib, shulardan katta qismi O'zbekiston hududlariga to'g'ri keladi. Qayd etilgan ushbu yodgorliklarni ikki guruhga ajratish va birinchi guruh yodgorliklariga Obishir 1-5, Machay va Qo'shilish O'rta Zarafshonda Qorakamar, Ochilg'or makonlarini kiritish mumkin; ikkinchi guruhga ochiq tipdagi yodgorliklardan: Aydabol 25, Lavlakon 24 Zarafshonda Chorboqti yodgorliklari va boshqalar kiradi. Butun O'rta Osiyoda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham mezolit davri yodgorliklari xronologik jihatdan ilk va so'nggi davrlarga ajratilgan. Biroq yurtimizdagi bu davr materiallarining aksariyati so'nggi mezolit davri bilan sanalanadi.

Hozirda mutaxassislar tomonidan mezolit davri yodgorliklarini madaniyatlarga va variantlarga ajratish hollari sodir bo'lmoqda. Masalan, G.F. Korobkova tomonidan Markaziy Farg'ona mezolitini alohida madaniyatga ajratish taklif etilgan⁹⁹. Keyinchalik, G.F. Korobkova Markaziy Farg'ona mezolitini ikkita variantga: Farg'ona Tekislik va Obishir g'or manzilgohlariga ajratgan, ammo ularning o'zaro madaniy aloqalari masalalari tushuntirilmagan. Biroq, O'.I.

⁹⁸ Окладников А.П. Изучение древнейших археологических памятников Туркмении // КСИИМК. № 28. 1949, -С.; Окладников А.П. Древнейшие археологические памятники Красноводского полуострова // Труды ЮТАКЭ. Т. 2., с. 7; 1951; Окладников А.П. Палеолитическое время на Тяньшане и Енисее // История Киргизии Т. 1. Фрунзе. 1956, с. 145; Окладников А.П. Работы палеолитического отряда в 1958 г. (предварительное сообщение) // Известия АНУзб.ССР. серия общественных наук. № 4. 1958, с.135;

⁹⁹ Коробкова Г.Ф. Орудия труда и хозяйство неолитических племен Средней Азии // МИА. М. 158. 1969, с-58.

Islomov tomonidan Obishir 1-5 yodgorliklari materiallari ilmiy tahlil qilinib, uni alohida Obishir madaniyatiga ajratiladi va u noma'lum sabablarga ko'ra Farg'ona mezolit koplekslari orasida joylashadi¹⁰⁰. Shuningdek, O'.I. Islomov tomonidan yana ikkita Toshkent va Surxondaryo madaniyatlari ajratiladi, biroq, bu har ikkala madaniyatga ham bittadan yodgorlik kiritiladi. Toshkent madaniyatiga Qo'shilish, Surxondaryoga Machay yodgorliklari kiritilgan. V.A. Ranov tomonidan baland pomir tog'lari yodgorliklari uchun Markansuy madaniyatining taklif etilishi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushbu muallif va uning hammualliflari tomonidan keyinchalik Vaxsh madaniyati tushunchasi ilgari surilgan¹⁰¹.

Ustyurt mezoliti.

Ustyurt xududi O'zbekiston mezolit davri madaniyatini o'rganishda o'ziga xos ahamiyatga ega mintaqa hisoblanadi. O'tgan asrning 2 – yarmida mazkur sarxadlardan E.B.Bijanov va A.V. Vinogradovlar tomonidan 20 ga yaqin mezolit davri yodgorliklari aniqlangan. Ular asosan ochiq tipdagi yodgorliklardir¹⁰². Tadqiqotchilarning kuzatishlaricha, bu yodgorliklar tovoqsoylar, sho'rxok yerlar, qumli massivlar, eski "ko'rfaz"lar, irmoqsimon chuqurliklar va buloqlar bo'ylarida joylashgan. Bunday topografiyaga Aydobol, Churuk, Kartpayqum, Alan massivi va boshqalar egadirlar. Ular uzoq va qisqa muddatli makonlarga ajratiladi. Uzoq muddatli yodgorliklarga 2000 dan ziyod topilmali Aydobol 25 (1000 dona topilmaga ega), Aydobol 20, Aktaylak (14000 topilma bilan); Kiyikshingrav 2 (12000 topilmaga ega) kabilarni kiritish mumkin. Qisqa muddatli yodgorliklarga Aydobol 15 (83 ta topilma), Churuk 2 (84 ta topilma), Sumbetimer 1 (263 ta topilma) kabi yodgorliklar kiradi¹⁰³. Ular orasida o'rtacha xajmdagi bir necha yuzlab yodgorliklar ham mavjud, xususan, Aydobol 10 (400 ga yaqin topilma), Aydobol 16 (5000 ga yaqin topilma), Aktobe 2 (5000 dan ziyod topilma). A.V. Vinogradovning fikricha, yuqoridagi yodgorliklar orasida 200 tadan 1000 tagacha topilmaga ega bo'lganlari bir martali yoki mavsumiy yashash uchun mo'ljallangan manzilgohlar hisoblanadi. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, mezolit davri yodgorliklarini K.Flannenri hamd F. Xoullar tasnifiga mos ravishda uch tipga ajratish mumkin:

1. mavsumiy, asosiy lagerlar;
2. ovchilik o'ljasi taqsimlash uchun qarorgohlar;
3. qisqa muddatli oraliq makonlar.

Ustyurt platosida mezolit davri jamoalari moddiy madaniyatini birinchi bo'lib E.B.Bijanov o'z tadqiqotlarida yoritib bergan. Ustyurtdagi bu davr yodgorliklarining dastlabki madaniy-davriy interpretatsiyasi ham aynan

¹⁰⁰ Исламов У.И. Мезолит Средней Азии \ Автореф. Док. Дисс. Новосибирск. 1977, с. 40;

¹⁰¹ Ранов В.А., Юсупов А.Х., Филимонова Г.Г. каменный инвентарь стоянки Дарай-Шур и его культурные связи \ Культура первобытной эпохи Таджикистана (от мезолита о бронзы). Душанбе. 1982, с. 12.

¹⁰² Виноградов А. В. Охотники и рыболовы Среднеазиатской междуречья. М. 1981, с. 28.

¹⁰³ Виноградов А.В. Охотники и рыболовы среднеазиатской междуречья. М. 1981, с. 29; Мамедов Э.Д., Батулин С.Г. Палеогидрогеологическая обстановка и древнее расселение человека в пустынях Средней Азии \ Палеоэкология древнего человека. М. 1977, с. 222-230; Бижанов Е.Б. Неолитические памятники Юго-Восточного Устюрта \ Древняя и средневековая культура Юго-Восточного Устюрта. Ташкент. 1978, с. 18; Там же, с. 73-74;

E.B.Bijanov tomonidan amalga oshirilgan. Shuning bilan birga, stratigrafiyalashgan yodgorliklarning va bu industriyalar uchun qilingan tip-varaqalarning yo'qligi ularning madaniy xosliklari, nisbiy va absolyut sanalash, davrlashtirish, genezisi, taraqqiyot yo'llari, madaniy hamda genetik aloqalari kabi qator muhim masalalarni yechish imkonini bermaydi. Shuning uchun ham Ustyurt mezolitini o'rganishda noaniqliklar, munozaralar mavjud. Masalan, tadqiqotchilar tomonidan mezolit davrigagina xos deb hisoblangan yodgorliklarni alohida olib qaraylik. Bu borada biz bir xil fikrni topa olmaymiz. E. B. Bijanovning fikriga ko'ra, Aydabol 16, 25 makonlarini, Aydabol 6, 9, 11, 21, 22 larni aniq mezolit davriga va Jarinquduq topilmajoylarini esa shartli ravishda mezolit davriga oid, deyish mumkin. Aktaylak 1 (1 to'plam), Aktobe 2, Churuk 2 (1 va 2 to'plami), Churuk 7, Sulama, Churuk 3 (2 to'plami) manzilgohlari E.B.Bijanov tomonidan so'nggi mezolit¹⁰⁴ yoki ilk neolit davrlari bilan sanalangan. Aktaylak va Aydabol yodgorliklarini sanalashga A. V. Vinogradov ehtiyotkorlik bilan yondoshadi¹⁰⁵, biroq, unda gap qaysi to'plam haqida borayotganini tushunish qiyin. Fikrimizcha, mezolitdan neolitga o'tish davriga yuqorida E.B.Bijanov ta'kidlagan yodgorliklar qatoriga Aktobe 2, Churuk 2 (1 va 2 to'plamlar), Churuk 7 lardan tashqari, Sumbetimer 1, Kosxatin 2, Kiysiksingrav 2 (11 to'plam), Aydabol 7, 10, 12, 14, 15, 20 va 23 manzilgohlarini ham kiritish mumkin.

Ustyurt mezolit davri yodgorliklarining Kelib chiqishi (madaniy xosligi) hali ma'lum emas. E.B. Bijanovning fikricha, Ustyurtda Kaspiybo'yi va Janubiy Ural mezoliti ta'sirida shakllangan aralash hamda o'ziga xos mahalliy madaniyatlar shakllangan¹⁰⁶. Isbot sifatida u Ural hamda Kaspiybo'yi yodgorliklaridagi va Ustyurtdagi trapesiyalarning o'xshashligini misol keltiradi. Bir vaqtning o'zida E.B. Bijanov, tafovutlar haqida ham to'xtaladi va Ustyurt mezolitining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib, bu yerning o'rta tosh davri yodgorliklarini mahalliy Yesen 2 va Churuk 12 kabi paleolit makonlaridan o'sib chiqqanligi haqida fikr yuritadi. Biroq, trapesiyalarning Ustyurtda, Uralda, Kaspiy bo'yida va hatto Yevropa mezolit davri yodgorliklarida uchrashi qonuniyat bo'lib, taqqoslash uchun va umuman madaniy genezislar uchun ularni asos qilib olish yetarli dalil emas¹⁰⁷.

Umuman, Ustyurtda mezolit davrini madaniyatlariga ajratishga hozircha vaqtli. Buning uchun stratigrafiyalashgan yodgorliklar va ular industriyalarining aniq tipologiyasi hamda tip-varaqalari, qurollar tiplarining foiz nisbatlari, absolyut sanalash ishlari kabi muammolar hal etilishi lozim.

Ustyurtdagi mezolit davri aholisining xo'jaligi haqida trasologik ma'lumotlar guvohlik beradi va u asosan o'zlashtiruvchi xarakterga egaligi aniqlangan. Aholining asosiy mashg'uloti ovchilik va terimchilik bo'lgan. Uy xo'jaligida teriga, suyakka va yog'ochga ishlov berish katta o'rin tutgan. Ustyurt mezoliti

¹⁰⁴ Бижанов Е.Б. Неолитические памятники Юго-Восточного Устьурта // Древняя и средневековая культура Юго-Восточного Устьурта. Ташкент. 1978, с. 74-75.

¹⁰⁵ Виноградов А.В. Охотники и рыболовы среднеазиатской междуречья. М. 1981, с. 29

¹⁰⁶ Бижанов Е.Б. Мезолитические и неолитические памятники Северо-Западного Устьурта // Археология Приаралья. Ташкент. 1982, с. 33

¹⁰⁷ Григорев Г.В. Многослойная позднепалеолитическая стоянка Корнач в Молдавии // Изыскания по мезолиту и неолиту СССР. Л. 1983а, с. 36;

davri aholisi qo'shni hududlar bilan doimiy madaniy aloqada bo'lgan va keyingi mahalliy neolit davri taraqqiyotining shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Machay g'ori Surxondaryo vodiysidagi Machaydaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Yodgorlik 1938-1942 -yillarda G.V. parfyonov tomonidan ochib o'rganilgan. 1937 -yili g'orga M. E. Vorones va A.P. Okladnikovlar tashrif buyurishdi¹⁰⁸ va yodgorlikda muste va mezolit davrlariga oid ikkita madaniy qatlamni aniqladilar. 1970-1971 -yillarda yodgorlik O'.I. Islomov tomonidan qazib o'rganildi va undagi madaniy qatlamlar faqat mezolit bir davriga oidligini ilmiy jihatdan isbotladi. G'ordan xonaki va yovvoyi hayvonlarga Tegishli suyak qoldiqlari, ko'plab tosh va suyakdan ishlangan buyumlar topilgan. Machayning yuqori qatlami uchun radiouglerod sanalash amalga oshirilgan va u 7550 ± 110 yil natijani bergan va bu O'.I. Islomovning fikricha, so'nggi mezolit davriga to'g'ri keladi. G.F. Korobkovaning fikricha, Machay yotqiziqlari sanasi biroz qadimiylashtirib yuborilgan va bunga aniqlik kiritilishi lozim. Machayning industriyasi asosan dolomit ishlatilgani bilan xarakterlanadi va unda mikrolit chaqmoqlash texnikasida ishlatilgan kam sonli chaqmoqtosh hamda galkalar ham uchraydi. Ikkilamchi ishlov berish da o'tmaslashtiruvchi retush ko'p qo'llanilgan. Qurollar orasida mikroqirg'ichchalar, plastinalar uchlaridan yasalgan qirg'ichchalar, uchirindilardan ishlangan qirg'ichlar, tosh randalar, turli kesgichlar va mikropoynaklar mavjud. To'plamda galkali qurollardan chopperlar va choppinglar uchraydi.

Suyakdan yasalgan qurollar orasida bigizlar, pardozlagichlar, g'ilof, pichoq va shokilalar topilgan. O'.I. Islomovning fikricha, Machay materiallari Obishirnikiga o'xshashdir. G.F. Korobkovaning ta'kidlashicha, Machay materiallari ko'p sonli mikroplastinkalari va o'rta plastinalarining borligi va geoMetrik qurollarning yo'qligi sababli uni Markaziy Farg'ona ilk neoliti to'plamlari bilan taqqoslash mumkin¹⁰⁹. Ammo, Machay qatlamlarida o'ziga xos qayroqtoshli qurollarning va suyakdan ishlangan buyumlarning mavjudligi uni qayroqtoshli industriyalarga ega neolit davri yodgorliklari bilan yaqinligini ko'rsatadi. Yodgorlikning neolit davriga oidligini undan olingan faunistik tarkib ham ko'rsatib turadi, chunki ular orasida xonaki sigir suyaklari mavjud. Bundan tashqari, qatlamlarning er. av. 5600 yillar bilan belgilangan radiouglerod sanasi ham uni neolitga oid deyish imkonini beradi va bu uning Jaytun madaniyati, daryosoy kompleks lari va Hisor madaniyatlari bilan tengdosh ekanligini ko'rsatadi.

Surxondaryo hududlaridan tadqiqotchilar tomonidan mezolit davri bilan sanalangan alohida punktlar ham aniqlangan. Bunga Ayrtom antik davr shahar xarobasi atrofidan, Eski Termiz yaqinidan yig'ib olingan materiallarni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu yig'ilgan kolleksiyalar plastinkalar va mikroplastinkalar uchun mo'ljallangan qalamsimon (карандашавидные) hamda prizmatik

¹⁰⁸ Окладников А.П. Следы каменного века в районе Термеза \ Термезская археологическая экспедиция. Ташкент. 1945, с. 39;

¹⁰⁹ Коробкова Г.Ф. Орудия труда и хозяйство неолитических племен Средней Азии \ МИА. М. 158. 1969, с. 127-142; Исламов Г.Ф., Тимофеев В.И. Культура каменного века Центральной Азии. Ташкент. 1977, с. 10-12.

нуклеуслар, қирғ'иччалар, қирғ'ичлар, yirik paykonlar, kesgichlar, retushlangan uchirindi va plastinalardan iborat. A.P. Okladnikov va O'.I. Islomovlar ularni genetik jihatdan Samarqand makoni va Obishir 1-5 yodgorliklari bilan bog'laydilar va bu Surxondaryo materiallarini mezolit davri bilan sanalash imkonini beradi.

Yurtimizdagi mezolit davriga oid yana bir qiziqarli yodgorlik Toshkent atrofidagi Bo'zsuv vodiysida va shu nomli daryoning chap qirg'og'ida joylashgan Qo'shilish makonidir. Yodgorlik 1966-yili geologlar tomonidan ochilib, 1967-yilda O'.I. Islomov tomonidan o'rganilgan. Qazish ishlari natijasida lessimon loy yotqiziqda qisman saqlangan madaniy qatlam mavjudligi aniqlangan¹¹⁰. Qatlamdan 200 ta kremendan ishlangan tosh buyumlar, bir nechta hayvon suyaklari qoldiqlari topilgan va bu suyaklar orasida R. K. Qambariddinovning aniqlashicha, xonaki ho'kizga tegishlilari mavjud bo'lgan. Tosh buyumlar orasida plastinalardan ishlangan uchburchak qurollar, uchirindilardan yasalgan pakki-pichoqsimon qirrali o'tkir tig'li qurollar, ko'plab qirg'ichchalар, tosh randalar, sanchqilar va turli xil нуклеуслар uchraydi. O'.I. Islomovning fikricha, Qo'shilish makoni yodgorlik qatlamlarining geologik tasnifi jihatidan O'rta Osiyo shuningdek Shanidar, Palegavra, Gari Kamarband va boshqa O'rta Osiyo hamda Yaqin Sharqdagi boshqa mashhur yodgorliklar bilan taqqoslash asosida ilk mezolit davri bilan sanalanishi mumkin. Bu yodgorliklarning sanasi esa er. avv. X-IX ming yilliklar bilan belgilangan. Ikkinchidan, Qo'shilishning industriyasida so'nggi mezolit davri xarakteriga ega bo'lgan buyumlar ko'p uchraydi: mitti uchburchak qurollar, plastinalarning uchida ishlangan yon qirralarida retushsiz qirg'ichchalар. Uchirindilardan ishlangan yumaloq qirg'ichchalarning ko'pligi, o'yib-kertib ishlangan qurollarning, kesgichlarning, uchlari yo'nilgan qurollarning hamda yupqa va qalamsimon нуклеусlarning yo'qligi so'nggi mezolitga xos belgilardir. Uchinchidan, Qo'shilish industriyasi uchirindilardan ishlangan ko'plab yumaloq qirg'ichchalarga, pakki-pichoqsimon o'rkir tig'li qurollar va ayrim mitti geometrik mikrolitlarga ega bo'lgan Markaziy Farg'ona so'nggi mezoliti bilan davriy taqqoslanishi mumkin. Yodgorlikning genezisi masalasi ham munozaralidir. Masalaning murakkabligiga qaramasdan, O'.I. Islomov uning ildizlarini mahalliy Levallua muste hamda so'nggi paleolit madaniyatlarida, deb hisoblaydi¹¹¹ va uni Toshkent variantiga kiritadi. Hozirda Qo'shilish makoni materiallarini ular juda kam sonli bo'lganligi sababli O'rta Osiyoning boshqa yodgorliklari bilan taqqoslashning imkoni yo'q¹¹² va uning genezisi masalasini ko'tarib chiqishga asos yo'q deb hisoblaymiz.

Ushbu mintaqada O'rta Osiyoning eng yaxshi o'rganilgan hududlaridan biri bo'lib, bu yerda 200 dan ziyod madaniy qatlami buzilgan manzilgoh va topilma joylar, beshta ochiq tipdagi makon (shuningdek, ko'p qatlamli), sakkizta g'or va

¹¹⁰ Исламов У.И. Мезолитическая стоянка Кушилиш под Ташкентом // ОНУЗ. № 7. 1970, с. ; Исламов У.И. Стоянка Кушилиш // У истоков древней культуры Ташента. Ташкент. 1982, с. 85;

¹¹¹ Исламов У.И. Стоянка Кушилиш // У истоков древней культуры Ташента. Ташкент. 1982, с. 90;

¹¹² Коробкова Г.Ф. Традиции и инновации в культурах мезолита и неолита Бактрии // Древнейшие культуры Бактрии. Тезисы сов-французского симпозиума. Душанбе. 1982, с. 159.

ikkita qoya tosh sur'atlari yodgorliklari topilgan. Yig'ma materiallarga ega bo'lgan qator topilmajoylar bir xil tipdagi yodgorliklarni o'z ichiga olgan holda guruh-guruh bo'lib gavjum holda joylashgan. Ular orasida eng yirigi Farg'ona yodgorliklari hisoblanadi. Kichikroq yodgorliklarga Lavlakon ko'li hududidagi yodgorliklarni, daryosoy, Echkiliksoy, Oyoqog'itma va Markaziy Qizilqum kabilarni kiritish mumkin. O'rta Osiyoning sharqiy hududlari mezolitida Machay va Qo'shilish makonlari muhim o'rin tutadi. Bu hududda mezolit davriga oid ikkita madaniyat ajratilgan. Bular Obishir¹¹³ va Markansuy¹¹⁴ madaniyatlaridir. Bundan tashqari, o'ziga xos Vaxsh madaniyati ham hukm surganligi haqida mutaxassislar tomonidan aloxida masala sifatida ko'tarilmoqda.

Adabiyotlarda Markaziy Farg'ona mezoliti ikki kompleksdan iborat: Markaziy Farg'ona va Obishir madaniyati. Biroq, barcha hududlarni o'rganishda bo'lgani kabi, O'rta Osiyoning sharqiy rayonlarida ham ko'plab munozorali, noaniq va isbot talab jihatlar uchraydi. Aniqroq qilib aytganda, gap qator yodgorliklarning sanasi va kelib chiqishi (madaniy xosligi) masalalari, davrlashtirish va ularning genezisi borasidagi muammolaridadir. Shu ma'noda qator tortishuvlarga sabab bo'lgan yodgorliklar Machay g'ori va Qo'shilish makonlari hisoblanadi.

Qizilqum mezoliti.

Keyingi yillarda A.V. Vinogradov rahbarligidagi Xorazm arxeologik va etnografik ekspeditsiyasining maxsus otryadi tomonidan Lavlakon ko'li hududlaridan¹¹⁵, daryosoy va Echkiliksoy qirg'oqlaridan, Oyoqog'itma deltasidan, protozarafshon vodiysi tasarrufidagi Chorboqi o'zanlaridan hamda Markaziy Qizilqum hududlaridan madaniy qatlamlarsiz ko'plab mezolit davri yodgorliklari topilgan¹¹⁶.

Lavlakon yodgorliklarining industriyasi yirik plastinalar va ularning kesmalari va to'g'ri prizmatik shakldagi ko'plab mikroplastinkalar chaqmoqlash texnikasiga asoslanganligi bilan xarakterlanadi. Ikkilamchi ishlov berish da yo'nilg'ilarning bir qirrasini qiya yoki o'tmas qilish uchun o'tmaslashtiruvchi retush berish holati ko'pchilikni tashkil qiladi. Bundan tashqari, yo'nilg'ilarning ventral tomonidan berilgan o'tkirlashtiruvchi retush ham bu industriyalar uchun xosdir. Shuningdek, tosh qurollari orasida qirg'ichchalar, mikrotig'li qurollar, o'yib-kertib ishlangan makroplastinkalar, ayrim kesgichlar, maxsus to'g'nog'ichli bargsimon poynaklar, pakki-qirrali tipdagi o'tkir tig'li qurollar, kalta trapesiyalar va parallelogramlar, uzunchoq shaklli segmetnlar, assimetrik uchburchak shaklli qurollar uchraydi. daryosoy va Echkiliksoy mezolit davri yodgorliklari (Uchashi 84, 85, 159 va boshqalar) industriyasi boshqacharoq. Ularda uchirindilar va plastinalardan ishlangan ko'plab qirg'ichchalar uchraydi, shatelperron

¹¹³ Исламов У.И. Мезолит Средней Азии // Автореф. Док. Дисс. Новосибирск. 1977, с. 40;

Исламов У.И. Обиширская культура. Ташкент. 1980, с. 33;

¹¹⁴ Ранов В.А. Итоги разведок памятников каменного века на Восточном Памире (1956-1958 гг.) // МИА. М.-Л. 124. 1964, с. 176;

¹¹⁵ Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Первобытный Лявлякан: Этапы древнейшего заселения и освоения внутренних Кызылкумов. М. 1975, с. 210-217

¹¹⁶ Виноградов А.В. Охотники и рыболовы среднеазиатского междуречья. М. 1981, с. 59.

poykonlariga o'xshab ketadigan qirradi o'tmaslashtirilgan plastinalar, o'yib-kertib ishlangan plastinalar, kesgichlar, assimetrik uchburchaksimon qurollar, yangel tipidagi trapesiyalar va assimetrik trapesiyalar ham mavjud¹¹⁷.

Oyoqog'itma yodgorliklarining texnik tipologik tasnifi S.A. Olenich tomonidan amalga oshirildi va natijada ular orasida mezolit davri manzilgohlari aniqlandi (Oyoqog'itma 5, 86, 367 va boshqalar). Ular cho'zinchoq proporsiyali bittalik trapesiyalar, "shoxchali", to'g'riburchakli, assimetrik va yirik uzunchoq uchburchaksimon qurollardan iborat¹¹⁸.

Chorboqti vodiysining Qoraqir 1 va Chorboqti 1 yodgorliklarining industriyasi yanada boshqacha ko'rinishga ega. Ular uchun o'tmaslashtirilgan qirrali mikroplastinalar, o'yib-kertib ishlangan yirik plastinalar, retushlangan qirrali o'tkir tig'li qurollar, uchirindilar va plastinalar kesmalaridan ishlangan qirg'ichchalar, uch qirradi retushlangan simmetrik va assimetrik kalta trapesiyalar, kalta va uzun uchburchaksimon qurollar xarakterlidir.

Markaziy Qizilqum hududlaridan mezolit davriga oid faqat bitta Ko'kpatassoy 1 manzilgohi ma'lum. U mikrolitoid elementli plastinkalar chaqmoqlash texnikasi bilan xarakterlanadi. Nukleuslari orasida bir tarafli va aylanasi bo'ylab sindirilgan konussimonlar uchraydi. Shuningdek, to'plamda pichoqsimon plastinalar, uchirindilardan ishlangan yumaloq hamda yo'nalg'i uchlaridan ishlangan qirg'ichchalar, o'yib-kertib ishlangan yirik plastinalar, kesgichlar, qirralari o'tmaslashtirilgan mikroplastinkalar mavjud. Geometrik mikrolitlar uchramaydi. A.V. Vinogradov, Ko'kpatassoy 1 dagi ikkinchi manzilgohning neolitgacha bo'lgan sanasini inkor etmaydi. Unda plastinalar va mikroplastinkalar soni ancha kam va uchirindilar, uchirindilardan ishlangan qirg'ichchalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shuningdek, yodgorlik to'plamida plastinalar uchki qismlarida ishlangan qirg'ichchalar mavjud. Biroq, qirralari o'tmaslashtirilgan plastinalar yo'q¹¹⁹. Lavlakon, daryosoy, Echkiliksoy, Oyoqog'itma, Chorboqti va Markaziy Qizilqum mezolit davri yodgorliklarining xilma-xil bo'lishini A. V. Vinogradov, ularning turli davrlarga oid ekanligi va shuning bilan birga, yagona madaniyatning turli variantlari bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan. Ushbu yodgorliklarning mezolit davriga oidligiga shubha yo'q ammo, ularning kelib chiqishi va qaysi madaniyatga xosligi masalasi borasida ma'lumotlar yetarli emas.

Keyingi yillar mobaynida O'zbekiston mezolit davri jamoalari moddiy madaniyatini o'rganishda o'rta va quyi Zarafshon vohasida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida Zarafshon vohasi mezoliti o'ziga xos mintaqa ekani aniqlandi. Xususan 1984-1986-yillar mobaynida Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi (A. V. Vinogradov), TMU geomorfologik guruxi (E. M. Mamedov) va SAMDU arxeologik guruhi (M. Jo'raqulov) xamkorligida quyi Zarafshonning qadimgi Chorbaqti vohasida arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Komleks tarzda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Zarafshon daryosining uchinchi qadimiy

¹¹⁷ Виноградов А.В. Охотники и рыболовы среднеазиатского междуречья. М. 1981, с. 59.

¹¹⁸ Там же, с. 67-69.

¹¹⁹ Виноградов А.В. Охотники и рыболовы среднеазиатского междуречья. М. 1981, с. 59-62.

o'zani Chorbaqti vohasi aniqlanib, vohada 60 dan ziyod mezolit va neolit jamoalariga tegishli yodgorliklar topildi. Mazkur yodgorliklar tosh industriyasi xarakteri jixatlari bilan yonma-yon topilgan neolit davri madaniyati tosh industriyasidan, yani Kaltaminor jamoalari tosh qurollaridan tubdan farq qiladi. Xususan, nukleuslar, qirg'ichlar, tik ish maydoniga ega bo'lgan uchrindilardan yasalgan qirg'ichlar, ponasimon qurollar, qayroqtosh qurollari, yon qirralariga ishlov berilgan uchrindi qurollar, uchburchaksimon paykon qurollari topilganki, bu turdagi qurollar o'z shakli, ishlov berilish usullari, turmushda bajargan funksiyalariga ko'ra, O'rta Osiyo tog' mintaqasi so'nggi paleolit, mezolit davri jamoalari madaniyatiga xos qurollar xisoblanadi. Shu sababli ham tadqiqotchilar Chorbaqti mezolit davri yodgorliklaridagi tosh qurollarni nisbiy jixatdan ilk mezolit davriga oid deb sanalashgan. Chorbaqti mezolit davri yodgorliklarining topilishi Zarafshon vohasidagi so'nggi paleolit Samarqand makoni va neolit (Sazog'on madaniyati) davrlari oralig'ida mavjud bo'lgan "bo'shliq"ni to'ldirishda muhim malumot beradi. O'rta Zarafshon vohasida mezolit davri jamoalari madaniyatiga oid yodgorliklar Sazag'on -1 makoni xisoblanadi. Bu makon tosh industriyasida Samarqand makoni tosh industriyasiga xos elementlarning uchrashi, madaniy qatlamda sopol idishlar parchalarining uchratilmaganligi tufayli tadqiqotchilar yodgorlikni mezolit davrining so'nggi bosqichlariga oid, deb xisoblagan. SAMDU arxeologik guruhi keyingi yillar maboynidagi o'rta Zarafshon vohasidagi Qoratepa tog' massivining shimoliy yon bag'rida amalga oshirgan tadqiqoti jarayonida mezolit davriga oid yangi yodgorliklar kashf etdilar. Xususan, Qorakamar g'or makoni, Ochilg'or makonlari shular jumlasidandir. Tadqiqotchi N. U. Xolmatov mazkur yodgorliklardan ponasimon qurollar, tik ish maydoniga ega bo'lgan uchrindidan yasalgan qirg'ichlar, nukleuslar, arxaik ko'rinishga ega bo'lgan parraxa qurollar topgan. Tadqiqotchilar mazkur tosh industriyasini Osiyo mezolit davrining tog' mintaqasi jamoalariga tegishli ekanini etirof etmoqdalar.

Farg'ona vodiysi mezolit

Xududiy va madaniy tarixiy jihatdan Farg'ona vodiysida mezolit davri yodgorliklarining katta guruhi alohida ajralib turadi. Ushbu hududda olib borilgan chorak asrlik tadqiqotlar: 1958 -yilda B.S. Gamburg va N.G. Gorbunovalar, 1963-1964 -yillarda Yu.A. Zadneprovskiy, 1965-1966 -yillarda O'.I. Islomov, 1967-1969 va 1970-yillarda V.I. Timofeyevlarning izlanishlari natijasida bu yerdan mezolitning turli bosqichlariga oid 40 dan ziyod yodgorliklar ochib o'rganilgan. Ularning katta qismi sochilgan manzilgohlar va topilma joylardan iborat. Odatda bu yodgorliklar guruhlashgan holatda Sirdaryo bo'ylarida, Dam-Ko'l, Ashi-Ko'l, Ittak-Qal'a, Sho'r-ko'l, Uzun-ko'l, Taypoq-ko'l kabi eski ko'llar atrofida, qum kotlovanlari, buloqlar, Qiziltepa qum massivlarining ustki qismlarida joylashgan. Bu yerdagi g'or tipidagi yodgorliklardan Obishir 1, 2, 3, 5 va Tosh-Ko'mir kabilarni aytish mumkin. Shulardan Obishir 1 va 5 g'orlari dastavval, Farg'ona paleolit guruhi, so'ngra O'zR FA tarix va arxeologiya instituti tomonidan keng va sistemali ravishda o'rganilgan. Tosh-Ko'mir g'orini o'rganish esa M. Yunusaliyev

tomonidan amalga oshirilgan¹²⁰. Bu yodgorliklar So'x daryosi vodiysida, Qatrontog'ning janubiy etaklarida va Obishirsoyning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Maydoniga ko'ra, bu yerdagi eng yirik g'or bu Obishir 5 bo'lib, uning eni 30 m., balandligi 20 m. va chuqurligi 9 m. Obishir 1 g'orining hajmi ancha kichik, 12x14x12 m. Har ikkala g'orda ham madaniy qatlamlar qumoq tuproq ustida yotadi. Ammo Obishir 5 g'ori qatlamlarida qumoq loy ham mavjud. Obishir 1 bitta, Obishir 5 esa 3 ta madaniy qatlamdan iborat. O'choq va kul qoldiqlari bu g'orlarda aniqlanmagan. Madaniy gorizontlar tosh va suyak qoldiqlariga to'la. Shuningdek, bu yerlardan chig'anoq, suyak va toshdan ishlangan taqinchoqlar topilgan. Har beshala g'orlarning tosh industriyasi tipologik uslub bilan tadqiq qilingan. Toshko'mir g'ori Qorasuv daryosining chap qirg'og'ida, Uzun Ahmad tizmasining ohaktosh qoyalarida joylashgan. Uning uzunligi 14,5 m, eni 6,5 m va balandligi 6 m. Madaniy qatlami g'ovak tuproqli galkali va hayvon suyaklariga ega qatlamning ustida yotadi. Bu yerdan 50 ta kremniydan ishlangan tosh buyum qazib olingan bo'lib, ular Obishir topilmalariga o'xshash¹²¹.

Topilma joylarning yig'ma materiallarini texnik va morfologik tadqiq qilish asosida G.F. Korobkova alohida, o'ziga xos mezolit kompleksini ajratadi. keyinchalik Obishir 1-5 va Tosh-Ko'mir g'orlarining ochilishi bilan Farg'onada shartli ravishda Obishir madaniyati deb nom olgan ikkinchi g'or kompleks lari hukm surganligi haqidagi masala kun tartibiga qo'yildi¹²². Ammo materiallarning to'liq nashr etilmaganligi tufayli Obishir va Farg'onaning boshqa mezolit yodgorliklari alohida madaniyatmi yoki bir madaniyatning ikki bosqichimi, degan masalaga oydinlik kiritish o'z vaqtida qiyin bo'lgan. O'sha davrda Farg'ona mezolit madaniyati Obishir madaniyatining keyingi bosqichi¹²³, degan fikr ilgari surilgan edi.

Farg'ona vodiysidagi barcha yodgorliklar materiallarini chuqur ilmiy tahlil qilish natijasida O'.I. Islomov bu masalani to'g'ri yechimini topishga harakat qiladi. Uning tomonidan Obishir mezolit madaniyati ajratilib, bu yerdagi barcha tekislik va g'or manzilgohlarini ushbu madaniyat atrofiga birlashtiriladi. Shuningdek, O'.I. Islomov, Markaziy Farg'ona materiallarini Obishir madaniyatining so'nggi bosqichi, deb hisoblaydi¹²⁴. Lekin tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan g'oyalarning qanchalik to'g'riligini Obishir va Farg'onadagi boshqa komplekslarning to'liq texnik-tipologiyasi ishlab chiqilib, ularni o'zaro taqqoslangandan so'nggina aniqlash mumkin.

Farg'ona g'or yodgorliklarining industriyasi mikrolitoid tipidagi plastinalar chaqmoqlash bilan galkadan ishlangan buyumlarning (2%) birga kelishi bilan

¹²⁰ Юнусалиев М.Б. Памятники каменного века на территории Киргизии. Фрунзе. 1970б, с.; Исламов У.И. Обиширская культура. Ташкент. 1980, с. 7.

¹²¹ Коробкова Г.Ф. Культуры Средней Азии эпохи мезолита и неолита // Проблемы археологии Средней Азии // Тезисы и сообщ. К совещанию по археологии Средней Азии. (1-7 апреля, 1968 г.). 1968, с. 16.

¹²² Кўрсатилган адабиёт б 112; Исламов У.И. Мезолит Средней Азии // Автореф. дисс. докт. ист. наук. Новосибирск, 1977, с. 27.

¹²³ Исламов У.И. Обиширская культура. Ташкент, 1980, с. 27.

¹²⁴ Исламов У.И. Мезолит Средней Азии // Автореф. дисс. докт.ист. наук. Новосибирск. 1977, с. 27.;

ajralib turadi. Qurollar yasash uchun asosiy tovar sifatida o'rta hajmli plastinalardan (48,5%), mikroplastinkalardan (42,5%) va qisman uchirindilardan (6 % dan ko'proq) foydalanilgan. Toshlarga ikkilamchi ishlov berish da bir tomonlama va ba'zan qarama-qarshi tomondan amalga oshirilgan o'tmaslashtiruvchi retush ko'pchilikni tashkil qiladi. Tosh qurollar orasida turli tiplardagi qirg'ichchalar, kesgichlar, sterjen shaklidagi tig'lar, qiya do'g'ali uzunchoq segmetnlar, uchburchak shaklli assimetrik poynaklar, chopperlar, choppinglar, silliqlangan buyumlar, suyak bigizlar, ignalar, pardozlagichlar va it tishlaridan qilingan shokilalar uchraydi¹²⁵.

Toshko'mir g'orining materiallari Obishir 1-5 yodgorliklarinikiga juda o'xshash. Shuning uchun, Toshko'mir topilmalarini Obishir madaniyatiga xosligi shubhasizdir. Biroq, Toshko'mir industriyasi arxaik belgilarga ega. Masalan, bu yerda plastinalarning notekis shakllari uchraydi, mikroplastinkalar yo'q, Segmetnlari juda katta, Obishirnikidan ikki baravar yirik, retushlari qo'pol va katta. Qirg'ichlari faqat qalin shakllarga ega. texnik morfologik jihatdan Toshko'mir industriyasi Tutqovul yodgorligining (Tojikiston) 2a qatlami materiallariga o'xshash va davriy jihatdan tosh qurollar yasashda geometrizasiya jarayoni boshlanishi arafasida turgan yodgorliklar bilan tengdoshdir (dam-dam-Chashma 2 ning 7 qatlami va dam-dam-Chashma 1 ning 4 qatlamlari). Keltirilgan parallellar Toshko'mirni Obishir 1-5 yodgorliklaridan qadimiyroq ekanligini ko'rsatadi¹²⁶.

Endi Farg'ona past-tekislik yodgorliklari tasnifi masalasiga kelsak, bu guruh manzilgohlari tosh industriyasi kam miqdordagi yirik plastina va uchirindilar mikrolit texnikasi elementni ko'pligi bilan xarakterlanadi. To'plamda yetakchi tip mikroplastinkalardir (60%). Ikkilamchi ishlov berishda asosan o'tkirlashtiruvchi retush berish qo'llanilgan. Undan tashqari qurollari orasida turli xil qirg'ichchalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shuningdek, ayrim uchlari yo'nilgan uchirindilar, shatelperron va gravetti tipidagi tig'lar, Segmetnlar va mitti trapesiyalar, retushlangan yirik plastinalar, qalamsimon va prizmatik nukleuslar va marmarlashgan ohaktoshdan ishlangan yumaloq shokilalar mavjud, qayroqtosh qurollar esa uchramaydi.

Ular orasidagi tafovutlar katta emas. Bu farq, xom ashyo, ayrim tiplar nisbatlari va hajmlarida seziladi. Biroq, bu tafovutlar ularning davriy jihatdan turlicha ekanligini ko'rsatadi. Obishir 1-5, Toshko'mir va Farg'ona tekislik yodgorliklari yagona madaniyatning turli bosqichlarini o'zida aks ettiradi. Bu esa ularning davrlashtirish masalalarini ham ko'rib chiqish imkonini beradi. O'. I. Islomovning fikricha, bu yerdagi g'or manzilgohlari Obishir mezolit davri madaniyatining ilk bosqichini va farg'ona tekislik yodgorliklari so'nggi davrlarini ifodalaydi. G. F. Korobkovaning fikricha, bu yerdagi yodgorliklar mezolit davrining uchta bosqichiga ajratilishi mumkin. Birinchi, ilk bosqichga industriyasi nisbatan anchayin arxaik bo'lgan Toshko'mir g'ori materiallarini, ikkinchi

¹²⁵ Исламов У.И. Обиширская культура. Ташкент. 1980, с. 108.

¹²⁶ Исламов У.И., Тимофеев В.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. Ташкент. 1972, с. 106.

bosqichga Obishir 1-5 industriyasini va qadimiylilik belgilariga ega ayrim tekislikdagi yodgorliklarni (2 punkt, Madyor), Ashi-Ko'l, Yangi-Qadam 21, Zambar 2 va boshqalarni kiritish mumkin. Uchinchi bosqichga esa Farg'ona tekislik yodgorliklarini (3, 5, 16 punktlari, Sariq-Suv, Baxrobod va boshqalarni) kiritish mumkin. Birinchi (ilk) bosqich mikrolitoid elementlarsiz plastinalar chaqmoqlash texnikasi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, yirik va qo'pol retushlash, ayrim yirik qiya do'g'ali segmetnlar, shatelperron tipidagi tig'lar, makropalstinalar va uchirindilar uchlarida ishlangan qirg'ichchalar, retushlangan yirik va notekis plastinalar hamda qayroqtoqli qurollari borligi ham birinchi bosqichning asosiy xususiyatlaridir.

Ikkinchi (o'rta) bosqich plastinka va galkali chaqmoqlash texnikasining uyg'unlashganligi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda buyumlarning 30-40 % ni mikroplastinkalar tashkil qiladi. Yirik plastinalar uchlarida qo'pol qirg'ichchalar yasash yo'qoladi va ular uchirindilardan ishlana boshlaydi, jumladan, mikroqirgichchalar soni oshib boradi. Assimetrik trapesiya va segmetnlar cho'zilgan, yupqa do'g'ali va kichik hajmda ishlab chiqila boshlanadi. Bifasial ishlangan poynaklar, sterjen tipidagi tig'lar, kesgichlar, uchlar yuqqalashtirilgan uchirindi va nukleuslar, chopperlar, choppinglar va qirg'ichlar ikkinchi bosqich industriyasini xarakterli elementlari hisoblanadi. Ensiz mixsimonga yaqin nukleuslar bu bosqich uchun tipik hisoblanadi. Uchinchi (so'nggi) bosqich mikroplastinkalar chaqmoqlashning ko'pligi (60% dan ziyod) bilan ajralib turadi. Ikkilamchi ishlov berishda o'tkirlashtiruvchi mikroretushdan ko'proq foydalanilgan. Qirg'ichchalarning turlari va shu jumladan mikro qirg'ichchalar soni ko'payadi. Ayrim xollarda qiyshiq, yirik va retushlangan plastinalar, shatelperron va gravet tipidagi tig'lar uchraydi. Qalamsimon va silindr shaklidagi nukleuslar rivojlanadi. Marmarsimon ohaktoshdan ishlangan yumaloq shakldagi shokilalar paydo bo'ladi.

G.F. Korobkovaning fikriga ko'ra, Farg'ona materiallari (Obishir madaniyatining so'nggi bosqichi) industriyasi o'xshash va mikrolit chaqmoqlash texnikasi hukmron bo'lgan Darra Kalon (Afg'oniston) bilan taqqoslanishi mumkin¹²⁷. Uning radiouglerod sanasi er. av. 7525 ± 100 yillarni tashkil qiladi. Bunday taqqoslash natijasida Obishir madaniyatining so'nggi bosqichini er. av. VII ming yilliklar bilan sanalash mumkin. O'.I. Islomovning tadqiqotlariga ko'ra¹²⁸, Obishir 1-5 g'or kompleks larini o'rta mezolit davri bilan sanalash lozim va raqamlarda bu er. av. IX-VIII ming yilliklarga to'g'ri keladi. Bunda muallif er. av. 7580 ± 130 yillar bilan sanalangan Oshxona va Tutkavulning 2a mezolit davri qatlamlari materiallari bilan taqqoslashga asoslanadi¹²⁹. Fikrimizcha, Obishir 1-5 yodgorliklarining quyi sanasi o'ta qadimiylashtirib yuborilgan. Tutkavul 2a qatlamining materiallari nisbatan ancha qadimiy elementlarga ega: ko'plab yirik uzunchoq segmetnlar, shatelperron tipidagi tig'lar, nukleussimon qirg'ichchalar,

¹²⁷ Коробкова Г.Ф. Проблема культур и локальных вариантов в мезолите неолите Средней Азии // КСИА. 122. 1970, с. 25;

¹²⁸ Исламов У.И. Обиширская культура. Ташкент. 1980, с. 23-24.

¹²⁹ Ранов В.А., Коробкова Г.Ф. Туткавул – многослойное поселение гисарской культуры // СА. 2. 1971, с. 46;

uchlari yupqalashtirilgan uchirindilar, galkali qurollar shular jumlasidandir. Obishirga taqqoslaganda Tutkavul qadimgiroq ko'rinishga ega. Davriy bosqich jihatidan Obishir madaniyatining ikkinchi bosqichi Oshxona materiallari bilan taqqoslanishi mumkin va rivojlangan mezolit davriga¹³⁰ (er. av. VIII ming yilliklar) to'g'ri keladi.

Farg'ona mezolitining ilk bosqichlariga oid yodgorliklarini sanalash eng qiyin masalalardandir. Uning materiallari Tutkavulning 2a qatlami va Tojikiston tog'laridagi boshqa sinxron yodgorliklar bilan taqqoslanishi mumkin. Afsuski, ularning absolyut sanasi yo'q. Farg'onaning ilk mezolit davri materiallarini sanalash uchun taxminan Tutkavulning 2 gorizonti tepasi uchun olingan sanalar (er. av. 6070-6310 ming yillar) xizmat qilishi mumkin¹³¹. Negaki, Tutkavulning ikkinchi gorizonti o'zidan yuqoridagi er. av. IX-VIII ming yilliklar bilan sanalangan qatlamlar bilan bevosita ketma-ketlikda yotadi. Toshko'mirning materiallari Tutkavulning 2 qatlami industriyasi bilan taqqoslanganda qo'pol va arxaik ko'rinishga ega: do'g'asi bo'ylab keng, qiya va qarama qarshi retushlangan o'ta yirik segmetnlar va shunga o'xshash shatelperron tipidagi tig'lar shular jumlasidandir. Bu holatlar Toshko'mir industriyasini Obishir madaniyatining va shuning bilan birga mezolit davrining ilk bosqichlariga, er. av. IX ming yilliklar bilan sanalashga imkon beradi. Shunday qilib, Obishir madaniyati mezolit davrining er. av. IX-VII ming yilliklar bilan chegaralangan xronologik doirasiga kiradi.

Obishir madaniyatining genezisi masalasini aniqlash qiyin. Hozirda faqat shuni aytish mumkinki, bu madaniyatning, ayniqsa uning ilk bosqichlari industriyasi Samarqand so'nggi paleolit makoni va Xo'jag'or materiallari bilan yaqin o'xshashligi bor.

Obishir 1-5 yodgorliklaridan olingan faunistik qoldiqlarga, paleogeografik va funksional dalillarga ko'ra bu madaniyat sohiblari ovchilar va termachilar bo'lishgan. Ov ulja sifatida sibir echkisi, arxar, jayron, to'ng'iz, bug'i, bo'ri kabi hayvonlarni ov qilishgan. Asosiy ov quroli o'q-yoy bo'lib, ularning ayrim paykon o'qlari Obishir va Farg'onaning boshqa yodgorliklaridan topilgan. Ovchilik xo'jalikning asosiy tarmog'i bo'lganligini topilgan tosh qurollar ham tasdiqlaydi. Ushbu madaniyat vakillarining xujaligida teriga ishlov berish va undan buyumlar yasash muhim o'rin tutgan. Termachilik haqidagi fikrlarga 2 punktdan (Madyor) topilgan o'simliklarni va yovvoyi dukkaklilarni o'rish uchun ishlatilgan kelisoplar, ayrim o'roqlar shoxidlik beradi¹³². Umuman Obishir madaniyati vakillari tog'oldi va cho'llarda darbadar ovchilik bilan shug'ullanganlar¹³³.

¹³⁰ Коробкова Г.Ф. Традиции и инновации в культурах мезолита и неолита Бактрии // Древнейшие культуры Бактрии. Тезисы сов-французского симпозиума. Душанбе. 1982, с. 162.

¹³¹ Марков Ю.Н., Образцов В.А. Датирование древних памятников Туркмении и соседних областей методом радиоуглеродного анализа ИАН ТССР. Сер. Оюш. Наук. Вып. 6. 1981, с. 75.

¹³² Коробкова Г.Ф. Орудия труда и хозяйство неолитических племен Средней Азии // МИА. М. 158. 1969, с. 127-142; Коробкова Г.Ф. Мезолит Средней Азии и его особенности // КСИА. 149. 1977, с. 112;

¹³³ Коробкова Г.Ф. Традиции и инновации в культурах мезолита и неолита Бактрии // Древнейшие культуры Бактрии. Тезисы сов-французского симпозиума. Душанбе. 1982, с. 163.

Mehnat qurollarining miqdoriy ko'rsatgichlari bu yerda uzoq muddatli asosiy qunalg'alar (Obishir 5, Sariq-Suv va boshqalar) va qisqa muddatli mavsumiy qarorgohlar (3 punkt, Ittak-Qal'a 1 va boshqalar) hamda mahalliy jamoalar tomonidan tashlab ketilgan, ovchilik mahsulotlarini taqsimlash makonlari (Ashi-Ko'l, Madyor 11, 2 va 16 punktlar, Toypoq 3 kabilar) singari yodgorliklar mavjud bo'lgan deyish mumkin.

Obishir madaniyati o'zining mezolit davridagi ajdodlari an'alarini davom ettirgan Markaziy Farg'ona neolitining shakllanishida va taraqqiy qilishida muhim rol o'ynagan¹³⁴.

Mezolit davriga oid yodgorliklar Zarafshonning o'rta oqimi hududlaridan ham topilgan. Ularga Zarafshon tog' tizmasining Qoratepa tog' massivlarida joylashgan Sazag'on 1 makoni hamda Sazag'on 2 yodgorligining quyi qatlamlarini kiritish mumkin. Sazag'on 1 makoni Sazag'onsoy vodiysining eng yassi chap adirlaridagi ikkinchi terrasada joylashgan bo'lib, U 1966-1977 –yillar davomida o'rganilgan. Birinchi bosqich tadqiqotlarida qurilish ishlari tufayli buzilib ketayotgan yodgorlikda stratigrafik o'rganish va yig'ma materiallar to'plash ishlari amalga oshirildi. 1971-1972 -yillarda dastlab D. N. Lev, so'ngra M. J. Jo'raqulov tomonidan qazish ishlari olib borildi. Ma'lum bo'lishicha, makonning madaniy qatlamlari dehqonchilik ishlari tufayli aralashtirib yuborilgan. Sazag'on 1 makonida ikkita madaniy gorizont aniqlanib, ulardan 2300 ta tosh buyumlar yig'ib olingan. Materiallar orasida prizmatik, konussimon, ensiz nukleuslar, plastinalar, mikroplastinkalar, ushatg'ichlar, Retusherlar, ezma texnika moslamalari, ponasimon qurollar, qirg'ichchalar, kesgichlar, retushlangan uchirindi va plastinalar uchraydi. Sazag'on 1 materiallari qazishma topilmalari hamda yig'ma buyumlardan iborat. Madaniy gorizontlardan topilgan bir dona bifasial ishlangan poynakni hisobga olmaganda ular yig'ma materiallar bilan bir xil to'plamga ega. Yodgorlik industriyasini uchirindili plastinali (uchirindilar 74% va plastinalar 20,1%) deyish mumkin. To'plamda mikroplastinalar nisbati juda katta va ular barcha plastinalarning 36,3% ini, umumiy tosh buyumlarning 22,2% ini tashkil qiladi. Bu jihatdan Sazag'on 1 industriyasi "tog' neoliti" dan farq qilib, Markaziy Farg'ona madaniyatiga yaqinlashadi.

Yodgorlikning industriyasi uchun geometrik tosh qurollar emas, balki qalin qirg'ichchalar, ponasimon qurollar va kesgichsimon yo'nilgan buyumlar xarakterli deyish mumkin. Bu qurollar ikkilamchi ishlov berilgan buyumlar orasida ko'pchilikni tashkil qilmasada (qurollarning katta qismi retushlangan plastina va uchirindilardan iborat), industriyaning xususiyatlarini belgilovchi omillar hisoblanadi¹³⁵.

Farg'ona vodiysidagi tabiiy-iqlimiy sharoit ham Zarafshon vodiysidagi, yoki Janubiy Qizilqumdagi singari bo'lgan. Bu xududda ko'p yillar mobaynida arxeologik izlanishlar olib borgan O'. Islomovning fikriga ko'ra, Obishir

¹³⁴ Коробкова Г.Ф. Орудия труда и хозяйство неолитических племен Средней Азии // МИА. М. 158. 1969, с. 127-142; Исламов У.И., Тимофеев В.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. Ташкент. 1972, с. 12; Исламов У.И. Мезолит Средней Азии // Автореф. дисс. докт. ист. наук. Новосибирск, 1977, с. 32;

¹³⁵ Джуракулов М.Д., Холматов Н.У. Мезолит и неолит среднего Зарафшана. Ташкент. 1991, с. 41.

madaniyatini shakllanishida mahalliy qabilalardan tashqari Old Osiyo qabilalari, ayniqsa yuqori paleolit davriga oid Samarqand makoni va Xo'jag'or qabilalarining ham ta'siri katta bo'lgan. Ammo O'. Islomov Obishir madaniyatining paydo bo'lishi tarixiy jarayonini mavhumligini, qaysi madaniyatlardan kelib chiqqanligini bilish muammoligicha etirof etadi. Shunga qaramasdan uning izlanishlari tufayli, Obishir madaniyati o'zining keyingi taraqqiyotida butun Farg'ona vodiysini, ayniqsa uning markaziy qismlarini butunlay egallaganligi malum bo'ldi.

Bizning fikrimizcha, Samarqandning yuqori paleolit davri madaniyati o'z taraqqiyotida Chorbaqti arxeologik kompleks larini paydo bo'lishiga ta'sir etgan asosiy manba bo'lganligi kabi aynan shu madaniyatni Obishir madaniyatini paydo bo'lishiga ham ijobiy ta'sir etgan asosiy omillardan biri bo'lishi mumkin.

Ammo Obishir madaniyatining o'zining keyingi taraqqiyotida janubdagi qabilalar kabi rivojlanib ketmadi. Xozircha, Farg'ona vodiysida mezolit davri jamoalarini neolit davriga kelib dehqonchilik madaniyatiga ko'tarilganliklarini tasdiqlaydigan biron-bir ma'lumot mavjud emas. Aksincha, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Obishir madaniyati jamoalarining taraqqiyoti neolit davrida ham deyarli o'zgarmay qolgan. Buning sababi "Neolit jamoalarini turli ekologik sharoitga tushib qolganliklari va ular yaratgan madaniyatlarning mazmuniga ham ta'sir etgani, bu jarayon esa mustaqil mezolit madaniyatlarning yuzaga kelishiga omil bo'lgan"¹³⁶.

Shunday qilib, Farg'ona vodiysidagi mezolit va neolit davri qabilalari o'zining taraqqiyoti jihatidan deyarli Zarafshon vodiysining shu davr jamoalari taraqqiyotiga deyarli teng darajada turgan. Ammo Farg'ona vodiysida yuqori paleolit davri bilan mezolit davrini bog'laydigan Chorbaqti yodgorligiga o'xshagan yodgorlik topilgan emas. Bizning fikrimizcha, agar shunday yodgorlik bo'lganida albatta bu yerda ham mezolit davri madaniyatlarini Samarqand manzilgohi madaniyatlaridan o'sib chiqayotganligini ko'rsatgan oraliq madaniyat mavjud bo'lar edi.

Xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston hududlarida o'rta tosh asriga oid yetarlicha yodgorliklar o'rganilgan. Lekin yodgorliklar va ulardan topilgan komplekslar haqida aytilgan tadqiqotlarning hamma fikr va mulohazalarini ham to'g'ri deb, bo'lmaydi, ularning ayrimlari munozaralari va yetarlicha isbotlanmagan. O'zbekiston va umuman O'rta Osiyo mezolitining sanasi va davrlashtirilishi masalasida tadqiqotchilar o'rtasida turli fikrlar mavjud. Shuningdek bu hududlarda mezolit davrining o'rganilishi hududiy jihatdan bir tekis emas. Ba'zi hududlarda stratigrafiyalashgan yodgorliklar uchramaydi. Barcha yodgorliklar industriyalari uchun yagona tipologik tadqiqot ishlab chiqilmagan, ya'ni ularning o'rganilish darajasi turlicha. Qator komplekslar materiallari yetarlicha nashr etilmagan va radiouglerod analizlari asosidagi sanasi yo'q. Ba'zi yodgorliklarning analogiyasi yo'q, ular faqat ayrim makonlar va topilmajoylar guruhlariga birlashadi. Biroq ularning ichida ko'pincha bog'lovchi zveno mavjud emas. Ushbu muammolarning barchasi O'rta Osiyo mezolitining butun xaritasini

¹³⁶ Холматов Ўзбекистон неолит, .221-225 б.

ishlab chiqish, ularning madaniy xosligi, genezisi, xronologiyasi, davrlashtirilishi va taraqqiyot yo'llari kabi masalalarni yechish ishlarini qiyinlashtiradi. O'rta Osiyo, shu jumladan O'zbekiston turli xil tabiiy iqlim sharoitlariga ega. Bu yerda cho'llar, dashtlar, o'rmonlar, tog'lar va tog'oldi platolari hamda daryolar sohilida joylashgan vodiylar kabi tabiiy hududlarni uchratish mumkin. Uzboy, Amudaryo, Zarafshon, Qizilqum va Ikki daryo oralig'idagi paleogeografik va arxeologik kompleks tadqiqotlar bu hududlarni pleystosenning oxiri va golosen davrining boshlarida nisbatan zich aholiga ega bo'lganligini ko'rsatmoqda. Turli xil geografik mintaqlardan topilgan makonlar bu yerlarning odam yashashi uchun qulay iqlim sharoitlariga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Bu hududlarda yashagan mezolit davri qabilalari turli iqlim sharoitlariga moslashganlari holda o'zlarining azaliy madaniy taraqqiyotini davom ettirganlar hamda keyingi yangi tosh asrining ijodkorlari va yaratuvchilari bo'lganlari holda keyingi zamonlar uchun mustahkam zamin hozirlaganlar.

3.2. O'zbekistonda neolit davri yodgorliklari va madaniyatlari.

Kishilik tarixi taraqqiyoti tosh davrining yakunlovchi bosqichi hisoblangan neolit davri jamoalari moddiy madaniyati yurtimiz sarxadlarida juda yaxshi tadqiq etilgan. Kaltaminor (Amu va Zarafshon daryosi quyi oqimidagi), Qizilqumda, O'rta Zarafshon vohasida Sazag'on, Farg'ona vodiysida Markaziy Farg'ona hamda Ustyurt neolit jamoalari bu davr madaniyatlarini yoritib beradi.

Kaltaminor madaniyati

Kaltaminor madaniyatining dastlabki yorqin va klassik yodgorliklaridan biri, ovchi hamda baliqchi jamoalarning Jonbos qal'a 4 makonidir. Yodgorlikni qazish hamda boshqa qo'shni manzilgohlarni tadqiq qilish asosida S.P. Tolstov tomonidan Kaltaminor madaniyati tushunchasi fanga kiritilgan va tabiiyki, bu hududlardan topilgan boshqa yodgorliklar Jonbos qal'a 4 materiallari bilan taqqoslanib o'rganilgan. O'rta Osiyoning boshqa neolit davri madaniyatlaridan keskin farq qiladigan Kaltaminor madaniyati Xorazm arxeologik ekspeditsiyasining uzoq yillar davomidagi tadqiqot obyekti bo'lgan. Bunday tadqiqotlar natijasida O'zboy bo'ylari, Sariqamish¹³⁷ hamda Xorazm hududlarida ko'plab Kaltaminor madaniyati yodgorliklari ochilgan. Shunga o'xshash yodgorliklar Qizilqumda¹³⁸ va Zarafshonning quyi oqimida ham topib o'rganilgan va bu vohalardagi tadqiqotlar tufayli madaniy qatlamlari saqlanib qolgan darboza qir 1.2 makonlari aniqlandi. Shunday qilib, Kaltaminor madaniyati jamoalari O'rta Osiyo va janubiy – g'arbiy Qozog'iston hududlarida tarqalib yashaganliklari ilmiy isbotlanmoqda. Ushbu madaniyatning ilk bosqichlari tag qismi uchli, naqshlarga boy va ranglari chaplama bo'lgan sopol idishlar, yerto'la tipidagi yirik uylar va paraqali industriyasi bilan xarakterlanadi. Adabiyotlarda Kaltaminor madaniyati alohida etnik va til guruhiga oid jamoalardan tarkib topganligi borasida fikrlar mavjud

¹³⁷ Толстов С.П., Кесь А.С., Итина М.А., Андрианов Б.В. Низовья Аму-Дарьи, Сары-Камыш, Узбой. История формирования и заселения. МХЭ, 3, 1960, с. 77.

¹³⁸ Тереножкин А.И. Археологическая рекогносцировка в Западной части Узбекистана. ВДИ, № 2. 1947, с. 134; Вактурская Н.Н. О поездке в Южные Кызылкумы в 1955 г. МХЭ, вып 1. 1959, с. 165;

A. V. Vinogradov Kaltaminor madaniyatini uchta territorial variantlarga (Oqchadaryo, Uzboy va G'arbiy Qozog'iston) va Qizilqum guruhiga kiruvchi yodgorliklarni ham alohida variantga ajratilishi mumkinligini ta'kidlagan¹³⁹. keyinchalik quyi Zarafshon varianti ham ajratilgan bo'lib, asosli ravishda Tuzkon guruhi nomini olgan.

Kaltaminor madaniyatini mahalliy variantlarga ajratish, ularni xronologik jihatdan davrlashtirish muammolari ham taqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan. 1957-yilda Kaltaminor madaniyati yodgorliklarini ilk va so'nggi davrlarga ajratish A.V. Vinogradov tomonidan amalga oshirilgan¹⁴⁰. A. V. Vinogradov Qizilqumning janubiy-g'arbiy xududlarida keng ko'lamda ish olib borib, Kaltaminor madaniyatiga tegishli yangi yodgorliklar topib o'rgandi. Zarafshon daryosining Qizilqum oralab oqqan daryolisoy o'zanining Oyog'-Og'itma xududida madaniy qatlam yaxshi saqlangan boshqa bir yodgorlikni topib, qazishmalar o'tkazdi. A.V. Vinogradov Kaltaminor madaniyati yodgorliklarida tegishli yangi arxeologik kompleks lar tahlili asosida uning daryolisoy bosqichi mavjud ekanligini ilmiy asosladi va uning yil sanasi mil.av. V ming yillikga tegishli degan xulosaga keldi¹⁴¹. Endilikda Kaltaminor madaniyati uch bosqichga bo'linadi. Uning ilk bosqichi daryolisoy bo'lsa, Jonbos 4 gullagan, Saksovul yoki Qamishli bosqichi esa uning yakuniy bosqichidir. Ushbu tizimga ko'ra, ilk Kaltaminor uchun deyarli barchasi naqshlangan yumaloq tubli va o'tkir tubli sopol idishlar xarakterlidir. Mikrolitoid industriyasida plastinkalardan yasalgan va yonboshi o'yib-kertib ishlangan poynaklar keng tarqalgan. Shuningdek, bifasial ishlangan bargsimon poynaklar, ba'zan trapesiyalar ham uchraydi. Ushbu ilk bosqichning sanasi er.av. IV -ming yillikning oxiri va III -ming yillikning boshlari bilan belgilangan. So'nggi Kaltaminor davrida yassi tubli xurmachasimon sopol idishlar paydo bo'ladi va bu idishlarning katta qismi naqshsiz bo'lib, avvalgi murakkab kopozision sxemalar yo'qoladi. Kremen toshlaridan ishlangan inventarlar orasida bifasial ishlangan poynaklar keng tarqaladi. Ko'p sonli nayzalar yoki uloqtiriladigan nayzalar poynaklari hamda uchirindilar yoki yirik plastinalardan ishlangan pichoqlar paydo bo'ladi. A.V. Vinogradovning fikriga ko'ra, so'nggi bosqichning sanasi er. av. III ming yillikning ikkinchi yarmi va II ming yillikning boshlari bilan belgilangan¹⁴².

Ushbu xronologik jadval A. V. Vinogradov tomonidan stratigrafik ma'lumotlarga tayanib emas, balki turli makonlar va topilmajoylar materiallarini taqqoslash asosida ishlab chiqilgan bo'lsada, hozirgacha arxeologlar o'z tadqiqotlarida unga suyanadilar. Oqchadaryo deltasida (Xorazm) so'nggi Kaltaminor davri industriyasida faqat sopol buyumlargina o'zgaradi¹⁴³. Shunga o'xshash holat Zarafshonning quyi oqimlarida ham qayd qilingan. darboza qir makonida (garchi A. V. Vinogradovning ta'kidlashicha uning qatlamlari to'liq ilk

¹³⁹ Виноградов А.В. Кельтеминарская культура. М.: Автореф. дисс. канд.ист. наук. 1957б, с. 11.

¹⁴⁰ Виноградов А.В. К вопросу о южных связях кельтеминарской культуры. СЭ, № 1. 1957а, с. 44.

¹⁴¹ Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. М.: 1981с.118.

¹⁴²¹⁴² Виноградов А.В. Кельтеминарская культура. М.: Автореф. Канд. Дисс. 1957б, с. 17;

¹⁴³ Толстов С.П., Кесь А.С., Итина М.А., Андрианов Б.В. Низовья Аму-Дарьи, Сары-Камыш, Узбой. История формирования и заселения. МХЭ, 3, 1960, с. 80.

Kaltaminor davriga oid, deb hisoblansada), har uchala madaniy qatlamning chaqmoqtoshli inventari bir xilligi bilan xarakterlidir. Ammo darboza qir qatlamlarida sopol buyumlarning sezilarli o'zgarishi ko'zga tashlanadi: quyi va o'rta qatlamlar sopolllarining asosiy qismi naqshlarga boy, yuqori qatlam sopol idishlarining faqat yuqori qismigina naqshlanganligi bilan ajralib turadi¹⁴⁴.

Umuman, Kaltaminor madaniyatining chaqmoqtoshli industriyasi mikrolitoid ko'rinishga ega bo'lib, Janubiy Osiyoning dehqonchilik madaniyatlari industriyasiga yaqin. Joytunda bo'lgani kabi, bu yerda ham hayvon terilariga ishlov berish uchun turli qirg'ichchalar ko'plab uchraydi. Kaltaminorda ham Joytundagi singari randa vazifasini o'tagan o'yib kertilgan paraxalar mavjud. Aslida parmalash uchun ishlatilgan sanchqilar ham Joytundagiga o'xshash. Shuning bilan birga, Jaytundagidan farqli o'laroq, poynak uchlari keng tarqalgan. Ularning Kaltaminor uchun xos bo'lgan plastinadan yasalgan yonlari assiMetrik o'yib-kertib hamda qiya retushlangan poynaklardir. Ulardan tashqari, bu yerda bifasial retushlangan poynaklar ham mavjud. Ularning shakllari bargsimon, o'rtasida kertmasi bor uchburchaksimon hamda rombsimondir va ular Janubiy O'rta Osiyoning eneolit va ilk bronza davrlari yodgorliklarida uchraydi. So'nggi Kaltaminor komplekslarida yirik uloqtiradigan nayza poynaklari paydo bo'ladi.

Hozirgi kunda Kaltaminor madaniyatining kelib chiqishi masalasida unga kRemenli industriyali baliqchi ovchi jamoalari asos solgan shakllanganligi va janubiy O'rta Osiyoning dehqonchilik madaniyatlari ham xuddi shunday kelib chiqish ildizlariga ega, degan fikrlar qo'llanilib kelinmoqda¹⁴⁵. Janubdagi progressiv iqtisod madaniyatning va xo'jalikning tezda rivojlanishiga, shimolda esa arxaik tipdagi xo'jalik evolyusion o'sishning sekinlashuviga olib keldi. Kaltaminor madaniyati konkRet mahalliy mezolit davri jamoalari asosida paydo bo'lib rivojlandi. O'rta Osiyoda mezolit davri hali yetarli darajada o'rganilmaganligi uchun bu masala o'zining to'liq yechimini topgani yo'q. Ta'kidlash joizki, Kaspiybo'yi qabilalarining O'zboy bo'ylab shimolga qarab siljishi va Amudaryoning quyi oqimlari Sariqamishgacha yetib kelishi, oqibatda Kaltaminor madaniyatining shakllanishiga asos bo'lishi mumkin. Kaspiybo'yidagi Jebel yodgorligining 3 va 4 madaniy qatlamlarini kremniyli industriyasi Kaltaminornikiga juda o'xshashligi bejiz emas. Ammo, ko'p sonli Kaltaminor madaniyati makonlarining barchasi kelib chiqishi jihatidan Kaspiybo'yi qabilalari bilan bog'liq deyish xato bo'lur edi. Aniqrog'i, Uzboy bo'ylab qilingan harakat qadimgi mahalliy madaniyatlar asosida tarkib topgan Kaltaminor madaniyatining paydo bo'lishiga turtki bo'lgan.

Kaltaminorliklar janubdagi qo'shni o'troq dehqonchilik madaniyati aholisi bilan madaniy aloqada bo'lganlar. O'z vaqtida Kaltaminorliklar Markaziy Hindiston neolit qabilalari bilan madaniy aloqada bo'lganliklari haqida firklar

¹⁴⁴ Исламов У.И. Неолитическая культура в низовьях Зарафшана. Автореф. дисс. канд. ист. наук. Л.: 1963б, с. 8-9.

¹⁴⁵ Виноградов А.В. К вопросу о южных связях кельтеминарской культуры. СЭ, № 1. 1957а, с. 44.

aytilgan edi¹⁴⁶, ammo, bu fikr deyarli asoslanmagan¹⁴⁷ va gap faqat madaniy iqtisodiy zonalar birligi haqida bo'lishi mumkin¹⁴⁸. Qo'shni dehqonchilik madaniyatlari bilan madaniy aloqalar Kaltaminorliklarning sopol buyumlarida yaqqol sezilib turadi.

Ilk Kaltaminorliklarning sopol idishlarida qizil rang ishlatilgani qayd etilgan. Bu ularning chizilgan va o'yib ishlangan naqshlaridan farq qiladigan o'zga bezak uslubi bo'lib, qandaydir tashqi madaniyatning ta'siri deb qaralishi mumkin. A.V. Vinogradovning kuzatishlaricha, sharsimon idishlar shakli va ayrim naqshlar kompozitsiyalari janubiy madaniyatlar ta'siri ostida shakllangan¹⁴⁹. Tahliliy tadqiqotlarga asoslanib, Kaltaminor sopol idishlarining shakllanishiga Nomozgoh 2 so'nggi bosqichi ta'sir ko'rsatganligini aytish mumkin¹⁵⁰. Janubiy madaniyatlar ta'siri ilk Kaltaminorga oid Jonbos 4 dan keyingi davrlarda ham kuzatiladi. dingilja 6 makonidan topilgan turli xil quymali, jumladan, uzun novli kosalar Shimoliy Erondagi Shox-tepa yodgorligi materiallari bilan juda o'xshashdir. Sopol idishlarning bazi nusxalari orasida Kaspiy bo'yidagi Jebel materiallari bilan o'xshashligini ko'rish mumkin.

Markaziy Farg'ona madaniyati

Farg'ona vodiysi kishilik tarixi tosh asri neolit davri jamoalari moddiy madaniyatini o'rganishda istiqbolli o'lkadir. Markaziy Farg'onadagi bu davrga oid dastlabki topilmalar 1958 yili B.Z. Gamburg va N.G. Gorbunovlar tomonidan qurigan damko'l va Markaziy Farg'onaning shimoliy qismlarida topilgan¹⁵¹. Ular tomonidan aniqlangan materiallar V.M. Masson¹⁵² hamda V.A. Ranovlarning¹⁵³ asarlarida o'z aksini topgan. 1963 va 1964 yillarda Markaziy Farg'onada qidiruv ishlari Yu.A. Zadneprovskiy tomonidan amalga oshirilgan. Natijada, Qoraqalpoq dashtidan mikrolitoid ko'rinishga ega 21 ta topilmajoy aniqlandi. Topilmalar Markaziy Farg'onaning janubiy, sharqiy va shimoliy qismlaridan ham topilgan. Yu.A. Zadneprovskiy tomonidan Markaziy Farg'onadan aniqlangan neolit davriga oid materiallar keyingi qator yillar mobaynida G.F. Korobkova tomonidan ilmiy jihatdan to'liq va sinchiklab o'rganilgan. 1965 yili O'.I. Islomov boshchiligidagi O'zbekiston Respublikasi arxeologiya instituti ekspeditsiyasi tomonidan 23 ta topilmajoy aniqlangan. keyinchalik. Markaziy Farg'onada Farg'ona va Rossiya arxeologik ekspeditsiyalari tadqiqot ishlari olib bordi. Bu izlanishlar 1967, 1969, 1970 yillarda amalga oshirilgan. Barcha tadqiqotlar umumiy lashgan holda O'.I.

¹⁴⁶ Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. М.: 1948а, с. 65; Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949-1953 гг. ТХАЭЭ, т. 2. 1968а, с. 41, 46.

¹⁴⁷ Виноградов А.В. К вопросу о южных связях кельтеминарской культуры. СЭ, № 1. 1957а, с. 34.

¹⁴⁸ Массон В.М. Историческое место Среднеазиатской цивилизации. СА, № 1. 1964а, с. 268.

¹⁴⁹ Виноградов А.В. К вопросу о южных связях кельтеминарской культуры. СЭ, № 1. 1957а, с. 35.

¹⁵⁰ Массон В.М. Южнотуркменистанский центр земледельческих культур (В свете работ ЮТАКЭ 1955-1958). 1960, с. 30-33.

¹⁵¹ Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Новые данные культуры эпохи бронзы в Ферганской долины. СА, № 3. 1958, с. 23;

¹⁵² Массон В.М. Историческое место Среднеазиатской цивилизации. СА, 3 1. 1964, с. ; Массон В.М. Неолит Средней Азии. В кн.: Каменный век на территории СССР. М.: 1970, с. 43;

¹⁵³ Ранов В.А. Каменный век Таджикистана. Обобщающий доклад по работам представленным к защите на соискание уч. Степени канд. Ист. Наук. Душанбе. 1963, с. 168;

Islomov va V.I. Timofeyevlarning qator maqolalari va monografiyasida o'z aksini topgan. Natijada, bu yerdan 120 dan ziyod makonlar topib o'rganilgan. Markaziy Farg'onaning neolit davriga oid topilmajoylari qatoriga Zambar 1-3 punktlari, Yangiqadam 1-28, dorozko'l, Toypoq 1-15, Uzunko'l 1-5, Yangisuv, go'rtepa, Sigirchilik, Madyor 1 15, damko'l topilma joylari va boshqalarni kiritish mumkin¹⁵⁴. Adabiyotlarda Hisor madaniyatining tarqalishi nafaqat G'arbiy Tojikiston, balki Oloy vodiysi va Tyan-shan hududlariga ham tarqalganligi ta'kidlangan¹⁵⁵. Shubhasiz bunday materiallar Farg'ona vodiysidan ham topilgan¹⁵⁶. Shuning bilan birga Farg'onaning o'zida boshqalarga o'xshamaydigan chaqmoqtoshli industriyalar aniqlangan.

Farg'ona materiallarining haddan tashqari o'ziga xosligi va o'ta mittiligi ularni boshqa neolit kompleks lari bilan taqqoslash imkonini bermaydi. Faqat ayrim mikrolitlarga Kaltaminor materiallariga o'xshab ketadi. Ehtimol, xronologik jihatdan ham ular bir-biriga yaqin bo'lishi mumkin. Shuni aytish mumkinki, ularning har ikkalasi ham dasht va cho'l hayvonlarini va o'sha paytlardagi suvi ko'proq ko'llarda baliq ovlash bilan shug'illangan jamoalardir.

Sazag'on madaniyati

O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'rida turkum xolatda neolit jamoalariga oid yodgorliklar tadqiq etilgan va ular moddiy madaniyati fanga "Sazag'on madaniyati" nomi bilan kiritilgan. Xozirgi kunda bu madaniyatga oid 30 dan ziyod yodgorlik arxeologik xaritaga olingan va ulardan Sazlg'on 1.2 Jangal 1. Tepaqul 3.4 Ochilg'or makonlarida qazish ishlari bajarilgan. Sazag'on 1.yodgorligi 1966 yilda O. Ibragimov tomonidan ochilgan va u Samarqand shahridan 27 km. masofada, Sazag'onsoy yon bag'rida joylashgan. Shu yili D.N. Lev tomonidan yodgorlikda tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu yerdagi tabiiy o'yilib erroziyaga uchragan terrasadan madaniy qatlam qoldiqlari aniqlangan¹⁵⁷. Ushbu makon 1967-1968 yillarda D.N. Lev hamda M.J. Jo'raqulovlar tomonidan o'rganilgan. 1971-1977 yillarda olib borilgan qazish ishlari natijasida esa bu yerda 96 m² maydon ochilgan va madaniy qatlamlar aniqlangan. dastavval, D.N. Lev, Sazag'on 1 makonini neolit davri bilan sanalab, Kaltaminor madaniyatiga xos, deb topgan. Keyinchalik, aniq tadqiqotlar natijasida yodgorliklarning materiallari statistik va qiyosiy jihatdan to'liq o'rganildi va Kaltaminor materiallari bilan taqqoslandi¹⁵⁸. Natijada, Sazag'on 1 industriyasi

¹⁵⁴ Исламов У.И., Тимофеев В.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. Ташкент. 1986, с. 66-118.

¹⁵⁵ Ранов В.А. Находки каменного века в Алайской долине. ТИИ АН Кирг. ССР. Вып. 4. 19586, с. 47; Окладников А.П. Работы Киргизской комплексной археолого-этнографической экспедиции в 1953 г. (Первый год работы Киргизской комплексной экспедиции). СЭ, № 2. 19546, с. 59;

¹⁵⁶ Конопля П.Т. Следы людей каменного века на территории Южной Киргизии. ИА АН КиргССР. Серия общ. Наук, т. 1. Вып. 1. 1959, с. 47;

¹⁵⁷ Аскаров А.А., Лев Д.Н. Древнейшие следы пребывания человека на территории Самарканда // История Самарканда, т. 1. Ташкент. 1969, с. 14; Лев Д.Н. Из истории изучения первобытной археологии Самарканда // Труды СамГУ. Новая серия, вып. 182. 1970, с. 21; Лев Д.Н. Итоги работы археологического отряда СамГУ им. А. Навои в 1966 г. // Труды СамГУ. Новая серия, вып. 218. 1972, с. 34

¹⁵⁸ Джуракулов М.Д. Некоторые итоги археологических исследований СамГУ им. А. Навои в 1970 г. // Труды СамГУ. Новая серия, вып. 218. 1972, с. 25; Джуракулов М.Д. Работы в Самаркандской области // АО 1981 г. М.: 1983, с. 12; Джуракулов М.Д., Холюшкин Ю.П. предварительные результаты статистического подсчета и характер развития неолитической индустрии Сазаган 1 // Материалы по истории Узбекистана

plastinasimon emas balki, mikrolitoidlik darajasi yuqori darajada ravnaq topgan. Sazag'on topilmalari orasida uni Samarqand so'nggi paleolit makoni bilan bog'lovchi elementlar ham mavjud.

1966-yili Sazag'on 2 makoni topildi. U Sazag'onsoyning yuqori qismida, terrasaning chap qirg'og'ida joylashgan. Ushbu joyda 1971-1982 yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida (M.J. Jo'raqulov boshchiligidagi SAMDU, arxeologiya kafedrası tomonidan) 800 m² maydonda madaniy qatlamlar ochib o'rganilib, ko'plab arxeologik materiallar olindi. Tosh buyumlardan tashqari, suyak qurollar, faunistik qoldiqlar, taqinchoqlar, sopol buyumlar va birinchi marta kraniologik materiallar topilgan¹⁵⁹. Qo'lga kiritilgan materiallar Sazag'on 1 nikiga o'xshash, lekin son jihatidan ancha ko'pligi bilan ajralib turadi. Bu yerda qurollarning ba'zi bir yangi tiplari paydo bo'ladi (geometrik ko'rinishdagi buyumlar). Sopol buyumlari esa ko'pincha neolitdan keyingi davrlarga xosdir. Biroq ayrim qo'lda ishlangan chaplama sopol buyumlar qoldiqlari neolit davri materiallari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Jangal 1 makoni Sazag'onsoyga qo'shni bo'lgan Egriqulsoy yon bag'rida joylashgan bo'lib, 1986 – 1989 yilda SAMDU arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan tadqiq etilgan. Makon tosh industriyasi o'z xarakteri va xususiyati bilan Sazag'on madaniyatiga mansub¹⁶⁰.

Tepaqul 3 makoni Tepaqulsoyning chap yon bag'rida joylashgan bo'lib 1989-1996 yillarda mavsumiy Samdu arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan tadqiq etilgan.

Makon tosh qurollari, sopol buyumlar tahlili ularni Sazag'on madaniyatiga tegishli ekanligini ko'rsatdi¹⁶¹.

Tepaqul 4 makoni Tepaqul 3 makonidan soy o'zani bo'ylab yuqori tomon tahminan 250 – 300 metr masovada bo'lgan ko'lni qayirida joylashgan. Yodgorlik 1996-2004 yillar mobaynida tadqiq etilgan va qo'lga kiritilgan arxeologik ashyolar makonini Sazag'on madaniyati yodgorliklari jumlasiga kiritish imkonini beradi¹⁶².

Ochilg'or makoni Sazag'onsoy yonboshida aniqrog'i, Sazag'on 2 neolit makoni ustki qismida joylashgan bo'lib, 2004 yildan e'tiboran hozirgi kunda qadar Samdu arxeologik guruxi tomonidan tadqiq etib kelinmoqda. Makondan arxaiik ko'rinishdagi qurollar disksimon yirik qirgichlar tosh o'zaklari uchburchaksimon paykonlar ponasimon qurollar uchratilgani, bular makon pastki madaniy

(археология, древняя история, этнография). Труды СамГУ. Новая серия, вып. 307. Самарканд. 1976, с.43 ; Холушкина В.А., Холушкин Ю.П. К вопросу о характере развития мезолитической индустрии Сазаган \\\ Сибирь в древности. Новосибирск. 1979, с. 34;

¹⁵⁹ Джуракулов М.Д. Раскопки стоянки Сазаган \\\ АО 1980 г. М.: 1981а, с. 45. Джуракулов М.Д. Работы в Самаркандской области \\\ АО 1981 г. М.: 1983, с. 16; Джуракулов М.Д. Некоторые итоги исследования неолитической стоянки в селении Сазаган \\\ ОНУ, № 6. Ташкент. 1983а, с. 56;

¹⁶⁰ Холматов Н.У. Неолитическая стоянка Джангал 1....С. 19;

¹⁶¹ Журакулов М.Д., Холматов Н.У. Тепакул 3 неолит манзилгохи ўрганилиш натижалари . Тарих фанининг долзарб муаммолари . Самарканд, СамДУ. 1997.

¹⁶² Журакулов М.Д., Холматов Н.У. Тепакул 4 неолит манзилгохи (ўрта Зарафшон воҳаси). Тарих ва истиклол. Илмий мақолалар тўплами. Самарканд. 2000, Б.4-14.

katlamidan mezolit, sopol buyumlar uchratilgan yuqori madaniy qatlamlari neolit davri jamoalari deb xulosa chiqarish imkonini berdi¹⁶³.

Yuqorida zikir etilgandek mazkur xududda 30 dan ziyod ibtidoiy odamzot izlari topilgan punktlar aniqlangan, lekin ulardan xali arxeologik qazishmalar o'tkazilmagan.

Geomorfologik va paleogeografik ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, Qoratepadagi makonlarning ayrimlari tog'oldi va unga tutash hududlarning tabiiy resurslarini u yoki bu tarzda o'zlshtirgan, maqsadli tarzda bunga safarbar qilingan aholining asosiy qo'nalg'alari bo'lgan.

Ma'lumki, yaqin kunlarga butun O'zbekiston neolitidagi bo'lgani kabi Kaltaminor madaniyati vakillari ham ovchi va baliqchilar, deb talqin etilar edi. Biroq, 1990 yillarda Qizilqumning ilk Kaltaminor davriga oid Oyoqog'itma makonida olib borilgan O'zbek-polsha arxeologik ekspeditsiyasining izlanishlari natijasida olamshumul kashfiyot qilindi. Bu yerda ikkita madaniy qatlam aniqlangan bo'lib (20 60 sm qalinlikda), ulardan minglab tosh qurollar, suyak qoldiqlari, taqinchoqlar, sopol buyumlar topilgan. Yodgorlikdan topilgan hayvon suyaklari orasida qoramol, tuya kabi xonaki hayvon suyaklari aniqlandi. demak, Kaltaminorliklar endilikda nafaqat ovchi va baliqchilarning, balki chorvadorlarning ham madaniyati ekanligi aniqlandi. Neolit davridan boshlab yurtimizda yashagan ibtidoiy odamlar tosh qurollar yasash uchun yer ostidan sifatli xom ashyo qazib olinadigan shaxtalardan foydalana boshlaganlar. Yevroosiyo qit'asida noyob hisoblangan bunday yodgorliklardan biri Buxoro viloyati, Qoratog' etaklaridagi Uchtut qishlog'ida joylashgan¹⁶⁴. Yodgorlik 1958 yilda ochilgan bo'lib, dastavval stratigrafiyalashgan yodgorliklarni qazishda qo'llaniladigan uslublar yordamida o'rganilgan. Natijada, yodgorlikning o'ziga xosligi hisobga olinmagan. 1967 yildan shaxtada yangi o'rganish uslublari qo'llaniladi va muhim faktik ma'lumotlarni beruvchi eksperimental uslublarga katta ahamiyat berila boshlandi¹⁶⁵. Natijada, 1000 m² maydon ochildi va oval, yarim oval, yumaloq hamda kvadrat shakllardagi 23 ta shaxta ochib o'rganildi¹⁶⁶. Shu bilan birga, zinalarga ega qiziqarli shaxtalar aniqlandi. 1967 yilgacha yodgorlikni qazish ishlarida shurf qazish va uni qoya tosh tubiga yetkazish qo'llanilgan edi¹⁶⁷. Keyingi qazish ishlarida shurflar oxiriga yetkazilmadi, aksincha, keng maydonda qazish olib borildi va shaxtalar izlari sinchkovlik bilan kuzatildi. Uchtutdan umuman 35 ta shaxta aniqlangan bo'lib, ular quduqsimon va ko'p kamerali zinali tiplarga ajratilgan.

¹⁶³ Хоматов Н.У. Очил ғор макони тадқиқотлари. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2004-2005. Тошкент, 2006. Б 220-225.

¹⁶⁴ Касымов М.Р. Кремневая мастерская у кишлака Учтут в районе горы Каратау Бухарской области (по материалам археологической экспедиции). Научные работы и сообщения АН РУз. Кн.: 6. 1963, с. 76; Коробкова Г.Ф., Мирсаатов Т.М. Изучение способов древнейшей добычи кремня методом эксперимента. ИМКУ, вып. 8. Ташкент. 1969, с. 67; Мирсаатов Т.М. Древние шахты Учтута. Ташкент. 1973, с. 77; Мирсаатов Т.М. Горные разработки в эпохе камня. Ташкент. 1977, с. 1-137.

¹⁶⁵ Мирсаатов Т.М. Древние шахты Учтута. Ташкент. 1973, с. 11; Там же. -С. 14.

¹⁶⁶ Мирсаатов Т.М. Горные разработки в эпохе камня. Ташкент. 1977, с. 1-137.

¹⁶⁷ Мирсаатов Т.М. Горные разработки в эпохе камня. Ташкент. 1977. -С. 3.

Topilmalarni eksperimental va trasologik uslublar yordamida tadqiq qilish asosida bu yerdagi 20 ta shaxtadan topilgan 33695 nusxa tosh buyumlar orasidan 15 xil tipdagi qurollar hamda 1787 ekz. buyumda ishlatilganlik va ikkilamchi ishlov berish izlari aniqlandi. O'rganilgan shaxtalardan olingan buyumlar orasida 94,7% tashlandiq va 5,3% ishlatilgan materiallar borligi aniqlandi. Natijaada Uchtut asosan xom ashyo tayyorlanadigan joy bo'lgan degan xulosaga Kelindi,bunga chaqmoqtoshning ishlov berilgan g'o'lalari ko'pligi fikrimizni isbotlaydi. Aftidan, Uchtutlik konchilarning yashash makoni ham uncha bo'lmasa kerak.

Yodgorlikdan topilgan Buxoro bug'usining shoxlari bu ishlar bilan alohida qabila shug'ullangani haqida guvohlik beradi. Bunday qimmatbaho shoxni faqat shu yaqin orada yashaydigan odamlar qoldirib ketishi mumkin¹⁶⁸.

Ushbu shaxtalardan foydalangan qabilalar Kaltaminor madaniyatiga oid jamoalar vakili bo'lgan¹⁶⁹.

XULOSA

Insoniyat tarihineng eng muqim, shuning bilan birga eng uzoq davom etgan bosqichi tosh asri qisoblanadi. Monocentristik nazariyaga ko'ra dastavval Afrika qit'asida paydo bo'lgan eng qadimgi gominidar - homo habilislar bundan 2 mln. Yillar muqaddam Yevrosiyo materigiga tarqaldilar. O'tmishdoshlarimizning keyingi fizik tiplari homo erektuslar, neandertallar xamda zamonaviy odamlarning (homo sapiens sapienslar) paydo bo'lishi va taraqqiyotida Yevrosiyo xududlari muqim rol o'ynadi. Shu ma'noda rang-barang tosh asri yodgorliklariga boy O'zbekiston xududi insoniyat shakllanishi taraqqiyotiga bebaxo ulush qo'shgan maskanlardan biridir.

Ilk paleolit davri arxeologik materiallarining guvoxlik berishicha, O'zbekiston Yevrosiyoning eng qalimgi antropogen jarayonlari sodir bo'lgan xududlaridan biri hisoblanadi. Yurtimizdagi Selung'ur kabi 1,5 mln. yillar bilan sanalanadigan yodgorliklar bu mintaqada barmoq bilan sanalarli darajada kamyob va noyobdir. Unga tengdosh yodgorliklar Yaqin Sharqda (Ubaydiya) Franciya

¹⁶⁸ Мирсаатов Т.М. Горные разработки в эпохе камня. Ташкент. 1977, с. 138.

¹⁶⁹ Мирсаатов Т.М. Горные разработки в эпохе камня. Ташкент. 1977, с. 140.

(Voloney), Italiya (Izerniya), Ispaniya (Atapurka), va Gruziya (Dmanissi) xududlaridagina yakka tartibda mavjud xolos.

Ilk paleolitning boshlarida O'zbekiston xududlarida dastlabki homo erektuslar paydo bo'ldi va qulay tabiiy iqlim sharoitlari va shunga mos fauna xamda flora ularning muvaffaqiyat bilan rivojlanishi uchun asosiy omil vazifasini o'tadi. Arxeologik, paleontologik, palinologik, paleoantrapologik va boshqa ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda yashagan erektuslar bir necha yuz ming yillar davomida muvaffaqiyat bilan taraqqiy etganlar, mislsiz moddiy-madaniy yutuqlarga erishganlar.

Selung'ur g'ori tosh industriyasining texnik-tipologik tasnifi shuni ko'rsatdiki, bundan 1,5 mln yillar muqaddam yashagan ajdodlarimiz avval boshdan yevropalik tengdoshlaridan farq qiladigan, o'ziga hos Osiyocha harakterdagi taraqqiyot yo'liga ega bo'lganlar. Bu davr axolisining asosiy mashg'uloti ovchilik va atrofda mavjud bo'lgan, yeyishga yaroqli o'simliklar mevalarini termachiligi bo'lgan.

Biroq, Selung'ur g'or makonining madaniy-davriy interpretaciyasi bo'yicha xorijiy adabiyotlarda yuqorida ta'kidlanganidek, turlicha qarama-qarshi fikrlarning mavjudligini yahshi holat deb bo'lmaydi.

O'zbekistonning ilk paleolitida Selung'urdan keyingi o'rinlarni undan xronologik jiqatdan 1 mln. yillarga yosh bo'lgan Ko'lbuloq, Qizilolma, Bo'kantoq kabi yodgorliklar egallaydi. Demak, yurtimizning paleolit davri tarixida hozirda qariyb 1 mln yillik bo'shliq mavjud va bu keyingi tadqiqotlar natijasida to'ldiriladi, deb umid qilish mumkin.

O'rta paleolit xaqida gapirganda, xozircha faqat neandertallar to'g'risida fikr yuritishimiz mumkin. Bu davrga oid eng yahshi o'rganilayotgan makon bu Toshkent voxasidagi Obiraxmat g'oridir. Uning o'rtacha absolyut sanasi 60-50 ming yillar bilan belgilangan. Shu davrga oid Teshik-tosh, Qo'tirbuloq, Omon-qo'ton va boshqa yodgorliklar xam yosh jiqatidan Obiraxmatdan unchalik katta emas. Negaki, agar yurtimizdagi barcha o'rta paleolit davri yodgorliklari neandertallarga tegishli ekan, bu tipdagi gominidlarning Osiyo erlariga bundan uzog'i bilan 50-60 ming yillar burun kirib kelganligini ko'rsatuvchi dalillarni qisobga olsak, bu fikrni to'g'ri deb hisoblash mumkin. Darxaqiqat, bundan 100000 yillar muqaddam G'arbiy Yevropada paydo bo'dgan nendertallar O'rta Er dengizi bo'ylab asta sekinlik bilan sharqqa qarab siljiganlar. Orada 30000-40000 yil vaqt o'tganidan keyin ular O'rta Osiyo huddudlariga kirib kelishgan. Aytish mumkinki, yurtimiz xududlari so'nggi neandertallar tomonidan o'zlashtirilgan va ko'plab arxeologik materiallarning guvoxlik berishicha, bu davrga kelib ularning industriyasi zamonaviy odamlarning tosh sanoatiga juda o'xshash bo'lgan. Obiraxmat g'ori materiallari buning yorqin misolidir.

O'zbekistonning so'nggi paleoliti xaqida gapirganda, avvalo shuni ta'kidlash joizki, ushbu davrda paydo bo'lgan zamonaviy tipdagi odamlar ko'ra yurtimizga so'nggi paleolitning o'rtalarida kirib kelganlar va uning ikkinchi yarmida keng tarqalishib, keyingi o'rta tosh madaniyatlarining shakllanishiga zamin qozirlaganlar. O'zbekistonda so'nggi paleolit davriga oid eng qadimgi yodgorlik bu

Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani tog'larida joylashgan Angillak makonidir. Uning absolyut sanasi 42000-27000 yillar bilan belgilangan. Bu davrga oid boshqa yodgorliklarning (Ko'lbuloqning yug'ori qatlamlari, Samarqand madaniyati yodgorliklari, Dodekatim va boshqalar) yoshi 28-20 ming yildan oshmaydi. Lekin ana shu so'nggi paleolitning o'rtalaridan boshlab, keyingi mezolit va neolit davrlaridagi madaniyatlar uzluksiz taraqqiy etgan va maxalliy ildizlarga bo'lgan.

Malumki, so'ngi paleolitning boshlanishi xamma joyda zamonaviy tipdagi odamning (*homo sapiens sapiens*) paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Hozircha yer yuzida topilgan zamonaviy odamlarning eng qadimgisi Fransiyaning Kramanon g'oridan topilgan shu nom bilan ataladigan paleoantropologik topilma hisoblanadi. Biroq, ushbu tipdagi odamlarning genezisi masalasi qozirda jumboqligicha qolmoqda. Jismoniy jixatdan zamonaviy odamlarga eng yaqin gominidlar tipi - arxaik ko'rinishga ega bo'lgan *homo sapiens* arxaiklardir. Monosentrik nazariyaga ko'ra *homo sapiens* arxaiklar bundan 200 -150 mingyillar muqaddam Markaziy Afrikada paydo bo'lganlar (Saqroi-Kabir qudularidan topilgan paleoantropologik topilma misolida). So'ngra ushbu tipdagi gominidlar bundan 100-80 ming yillar burun Yaqin Sharqqa kirib keladilar. Ammo shu yerda arxaik *homo sapiens*larning izlari yo'qolib, ularning keyingi taqdirlari qozircha fanda noma'lum.

Xozirgi vaqtda yurtimizdagi Obiraxmat g'oridan topilgan paleoantropologik topilmalar xususida qator fikrlar bildirilmoqda. Adabiyotlarda ushbu topilmaning (OR-1) neandertal odami bilan zamonaviy odamning chatishuvi natijasida dunyoga kelgan gibridligi yoki bo'lmasa, neandertal odamlarining zamonaviy odamlarga aylanishi jarayonidagi bir bo'qin bo'lganligi qaqida fikrlar bildirilmoqda. Biroq, paleoantropologik va paleogenetik mutahassislar ushbu topilmaning qaysi individga xosligi xaqida aniq va dadil fikr aytishdan qozircha o'zlarini tiyishmoqda. Bundan tashqari, hozirgi kunda ushbu paleoantropologik topilmaning DNK taqlillari amalga oshirilganicha yo'q. Obirahmat odami qaqidagi bugungi ma'lumotlar odamning paydo bo'lishi borasida nazariy qarashlarga asos bo'lish uchun etarli emas, deb qisoblamiz. Bundan tashqari, qali umum e'tirofqa sazovor bo'lmagan yug'oridagi ma'lumotlar paleoantropologiya fanining ikki asrlik ilmiy tajribasini yo'qqa chiqara olmaydi.

O'rta tosh asrida O'zbekistonda Markaziy Farg'ona, Sazag'on va Qizilqum kabi mustaqil madaniyatlar shakllangan va tarihimizning keyingi neolit davri madaniyatlarining shakllanishini ta'minlaganlar. Mezolit davri yodgoriklarimiz toshga ishlov berish texnikasining eng yuqori cho'qqisi hisoblangan mikrolit qurollar yasashning niqoyat darajada ravnaq topganligi bilan xarakterlanadi. Bu davrda o'q-yoy, ayrim yovvoyi xayvonlarni xonakilashtirish bilan birga, tasviriy san'at paydo bo'ldi. Zarautsoy, Sarmishsoy, Morguzar kabi tog'lar qoya toshlaridagi suratlar o'sha davr aqolisining xo'jaligi va madaniy xayoti, urf-odatlar, dunyoqarashi, mexnat faoliyatlari va boshqa ko'plab muxim ma'lumotlarni beradi.

Yangi tosh davriga kelib O'zbekiston xududlarida Kaltaminor, Sazag'on va Markaziy Farg'ona kabi mustaqil madaniyatlar shakllanadi. Shu davrdan sopol ishlab chiqarish boshlanadi. Bundan tashqari, ularga naqshlar yordamida zeb berish paydo bo'ldi. Yashash uchun ixtisoslashgan imoratlarda isitish tizimiga ega

markaziy olovli va ma'lum bir konstrukciyalı uy joylarning qurila boshlanishi bu davrda me'morchilikning paydo bo'lganligidan dalolat beradi (Jonbos 4). Ta'kidlash joizki, yaqin kunlarga cha Kaltaminor madaniyati janubdagi Sinhron, lekin o'troqlashgan yodgorliklar bilan taqqoslanib, unga nisbatan "primitiv neolit" va ba'zan taraqqiyotdan ortda qolgan neolit, iborasi qo'llanilib kelindi. Biroq keyingi tadqiqotlar Kaltaminorliklarni nafaqat ovchi va baliqchilar, balki chorvadorlar xam bo'lganliklarini ko'rsatmoqda (Oyoqog'itma materiallari). Aytish mumkinki, janubning o'troq va primitiv deqqonchilik bilan shuqullanuvchi qabilalari bilan doimiy madaniy aloqada bo'lgan Kaltaminorliklar mohir chorvadorlar va baliqchilar bo'lishganlar. Ilk golosen davridagi qulay iqlim sharoitlariga ega "ming ko'llar mamlakati" bo'lgan Qizilqum xududlari neolit davri jamoalarini ana shunday xayot tarzi yuritishlariga asos bo'lgan va bu o'sha davr aqolisining kundalik turmush tarzi talablariga to'la mos kelgan.

O'zbekistonda tosh asri yodgorliklari qator o'ziga xosliklari bilan qo'shni xududlar materiallaridan ajralib turadi. Bu narsa avvalo, ularning xronologiyasida namoyon bo'ladi. Dunyoning boshqa qit'alari uchun qabul qilingan xronologik ishlanmalar yurtimiz yodgorliklariga mos kelmaydi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston o'rta paleoliti uchun Yevropada qabul qilingan va bizda xozirga qadar shablon sifatida qo'llanilib kelinayotgan jadval o'zini oqlamayapdi. Xozirgacha qo'limizdagi faktik materiallar asosida bu davr bizda bundan 60-50 ming yillar muqaddam boshlangan deyish mumkin. Demak, yurtimizda o'rta paleolitning boshlanishi shu davrning o'rtalariga to'g'ri keladi. So'nggi paleolit davri materiallari xaqida xam huddi shunday fikrni aytish mumkin. Xozirgacha bizga ma'lum so'nggi paleolit davri yodgorliklarining eng qadimiysi 27 ming yillar bilan belgilangan, qolgan yodgorliklar sanasi esa, yug'orida ta'kidlaganimizdek, davrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Mezolit davri boshqa xududlarda er. av. 12 ming yillikdan boshlansa, O'zbekistonda bu davr yodgorliklarining eng qadimiylari er . av. 11 ming yilliklar bilan belgilanadi va bu xam ko'pchilik mutahassislar tomonidan shubxa ostiga olinganligini yug'oridagi boblarda ko'rib o'tdik.

O'zbekistonda tosh asri yodgorliklaridan topilgan moddiy manbalar xam o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, paleolit davrida yashagan gominidlar tosh qurollar yasash uchun hom-ashyoning nisbatan sifatsiz jinslaridan foydalanganlar. Bu xol ularning sifatli materiallarni bilmasliklaridan emas, balki sifatli tosh jinslar zaxiralarining tanqisligidan deb qabul qilishi lozim. Negaki, yodgorliklarda kam miqdorda bo'lsada, ishlov berilgan sifatli hom-ashyo - kremniy na'munalari uchraydi. Biroq, ular xaddan tashqari ishlangan kichik xajmlarga ega yoki ular xaddan tashqari tejamkorlik bilan ishlatilgan. Bu narsa, yurtimizda paleolit davridanoq hom ashyoni tejash bilan bog'liq paleoekonomikaning kuchayishiga olib kelgan.

O'zbekistondagi o'rta va so'nggi paleolit davri yodgorliklari tosh buyumlari orasida avvalgi davrlarga hos bo'lganlari ko'p uchraydi. Yevropa xududlarida esa aksincha, ma'lum bir davrga hos buyumlar boshqa davrga kelganda butunlay

muomaladan chiqariladi. Yodgorliklarimiz ana shunday an'anaviy hususiyatlariga xam ega bo'lib, bu ko'p xollarda ularga arxaiklik ko'rinishini beradi.

Yurtimiz xududlaridan tosh asriga oid antropologik materiallar juda kam. Ammo topilgan barcha topilmalar bu erda tosh asrida yevropoid irqiga mansub axoli yashaganligini ko'rsatmoqda.

Shunday qilib, O'zbekiston xududlari tosh asri yodgorliklariga juda boy va ular insoniyat taraqqiyotiga bebaxo xissa qo'shgan materiallarga ega. Bu yodgorliklar rang-barangligi, o'ta qiziqarliligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йук. «Фан» Т1998.
2. Алексеев В.П. Положения Тешик-Ташской находки в системе гоминид \\ Антропологическая реконструкция и проблемы палеоэтнографии. М.: 1973.
3. Алексеев В.П. Человек. Эволюция и таксономия М.: 1985.
4. Батыров Б.Х., Батиров А.Р. Ископаемые млекопитающие пещеры Сел-Унгур \\ Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988.
5. Батыров Б.Х., Батыров А.Р. Промысловые виды млекопитающих Узбекистана в эпоху камня \\ Проблемы взаимосвязи природы и общества в э каменном веке Средней Азии. ТД посвященной 50-летию открытия Тешик-Таша ташкент. “ФАН”. 1988.

6. Береговая Н.А. Палеолитические местонахождения СССР. МИА. № 81. 1960.
7. Бижанов Е.Б. Неолитические памятники Юго-Восточного Устюрта \ Древняя и средневековая культура Юго-Восточного Устюрта. Ташкент. 1978.
8. Бижанов Е.Б. Мезолитические и неолитические памятники Северо-Западного Устюрта \ Археология Приаралья. Ташкент. 1982.
9. Виноградов А.В. Охотники и рыболовы среднеазиатского междуречья. М. 1981.
10. Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Первобытный Лявлякан: Этапы древнейшего заселения и освоения внутренних Кызылкумов. М. 1975.
11. Виноградов А.В., Итина М.А., Яблонский Л.Т. Древнейшее население низовий Аму-Дарьи. Археолого-палеантропологическое исследование. М.: "Наука", 1986.
12. Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург. 1996.
13. Григорьев Г.П. Тешик-Таш и мустье Средней Азии 1988 \ Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988.
14. Деревянко А.П., С.В. Маркин, С.А. Васильев. Палеолитоведение: Введение и Основы Изд-ВО "НАУКА" Новосибирск, 1994.
15. Деревянко А.П., Маркин С.В., Васильев С.А. Палеолитоведение: введение и основы. Новосибирск, 1994.
16. Деревянко А.П., Аноikin А.А., Кривошапкин А.И., Милютин К.И., Исламов У.И., Сайфуллаев Б.К. Новые данные о палеолитических индустриях пещеры Пальтау (Республика Узбекистан) // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Изд-во Института археологии и этнографии СО РАН. Новосибирск, 2002.
17. Джуракулов М.Д. Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии. Ташкент. 1987. Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Тепакул 3 неолит манзилгохи ўрганилиши натижалари // Тарих фанининг долзарб муаммолари. Самарканд. СамДУ. 1997.
18. Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Тепакул 4 неолит манзилгохи (Ўрта Зарафшон воҳаси) // Тарих ва истиклол. Илмий мақолалар тўплами. Самарканд, 2000.
19. Джуракулов М.Д. Раскопки стоянки Сазаган \ АО 1980 г. М.: 1981а.
20. Джуракулов М.Ж. Исследование археологической экспедиции СамГУ неолитической стоянки Сазаган 2 в 1981 г. \ Материалы научной конференции профессорского-преподавательского состава ист. Фака СамГУ им. А. Навои, посвященной 60 летию образования СССР. Самарканд. 1992.
21. Джуракулов М.Д. Некоторые итоги археологических исследований СамГУ в 1970 г. \ Труды СамГУ, новая серия, вып. 218. Самарканд. 1972.
22. Джуракулов М.Д., Холюшкин Ю.П. Топоры и рубящие орудия Самаркандской верхнепалеолитической стоянки // Труды СамГУ. Нов. серия. Вып. 218. Самарканд, 1972.

23. Джуракулов М.Д., Холюшкин Ю.П., Холюшкина В.А., Батыров Б.Х. Самаркандская стоянка и ее место в позднем палеолите Средней Азии // Палеолит Средней и Восточной Азии. Новосибирск, 1980.
24. Джуракулов М.Д., Мамедов Э.Д. Геология археологических памятников Зеравшана. Ташкент, 1986.
25. Джуракулов М.Д., Холматов Н.У. Мезолит и неолит среднего Зарафшана. Ташкент. 1991.
26. Джуракулов М.Д., Холюшкин Ю.П. предварительные результаты статистического подсчета и характер развития неолитической индустрии Сазаган 1 \\\ Материалы по истории Узбекистана (археология, древняя история, этнография). Труды СамГУ. Новая серия, вып. 307. Самарканд. 1976.
27. Джуракулов М.Д., Аванесова Н.А. Работы СамГУ \\\ АО, 1986 г. М.: "Наука". 1988.
28. Джуракулов М.Д., Ходжаев Т.К. Культура и населения неолитической стоянки Сазаган \\\ Вопросы этнографии и археологии (на узб. языке). Самарканд, 1984.
29. Исламов У.И. Обиширская культура. Ташкент. 1980.
30. Исламов У.И. Результаты раскопок пещерных стоянок мезолитического времени в Узбекистане \\\ УСА. № 1. 1972в.
31. Исламов У.И. Мезолитические памятники Ферганской долины \\\ ИМКУ № 9. Ташкент. 1972а.
32. Исламов У.И. Пещера Мачай. Ташкент. 1975а.
33. Исламов У.И. Первая нижнепалеолитическая пещерная стоянка в Ферганской долине \\\ ОНУ. №8. 1984. Исламов У.И., Крахмаль К.А. Некоторые проблемы палеоэкологической реконструкции ашельской стоянки Сель-Унгур \\\ ОНУ. № 12. 1990.
34. Исламов У.И. Кельтеминарская культура на Махандарье. Научн. Работы и сообщения (АН УзССР, отд. Обществ. Наук). Кн. 4. Ташкент. 1961а.
35. Исламов У.И. Открытие неолитической культуры на Махандарье. ОНУ, вып 1. 1961б.
36. Исламов Г.Ф., Тимофеев В.И. Культура каменного века Центральной Азии. Ташкент. 1977.
37. Исламов У.И. Неолитическая культура в низовьях Зарафшана. Автореф. Канд. Дисс. Л.: 1963б.
38. Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сель-Унгур \\\ Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск. 1992.
39. Исламов У.И., Крахмаль К.А. Дрекепалеолитические орудия труда из Ферганской долины \\\ ОНУ. № 4. 1987.
40. Исламов У.И., Оманжулов Т. Пещерная стоянка Сель-Унгур \\\ ИМКУ. Вып. 19. 1984.

41. Исламов У.И., Зубов А.А., Харитонов В.М. Палеолитическая стоянка Сель-Унгур в Ферганской долине \\\ ВА. Вып. 80. 1988.
42. Исламов У.И., Тимофеев В.И. Стоянки каменного века южной части Центральной Ферганы. ИМКУ, вып. 13. Ташкент. 1977.
43. Итина М.А. Памятники первобытной культуры верхнего Узбоя ТХААЭЭ, т. 2. 1958б.
44. Кабиров Ж. Ибтидоий давр беҳзодлари. Фан ва турмуш. 1-сон, 1970.
45. Кабиров Дж. Наскальные изображения Каратау. АО, 1970 г. М.: изд-во "Наука". 1971.
46. Кабиров Дж. Наскальные изображения Сармичсая. ИМКУ № 9. Ташкент. Изд-во "ФАН" 1972.
47. Кабиров Дж. К датировке петроглифов Узбекистана III-II тыс. л. до н. э. ТД сессии, посвященной итогам полевых археологических исследований 1972 г. в СССР. Ташкент. Изд-во "ФАН" 1973.
48. Кабиров Дж. Исследование наскальных изображений в Узбекистане \\\ Автореф. Дисс. Канд. Ист. Наук. Ташкент. 1974.
49. Кабиров Дж. Древние наскальные изображения Каратау \\\ АО 1970 г. М.: изд-во "Наука", 1971.
50. Кабиров Дж. Древнейшая наскальная живопись Зараутсая \\\ в кн.: Первобытное искусство. Новосибирск. 1976.
51. Касымов М.Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. \\\ ИМКУ. Вып. 7. 1966.
52. Касымов М.Р. Многослойная палеолитическая стоянка Кульбулак в Узбекистане \\\ МИА. № 185. 1972б.
53. Касымов М.Р. Результаты работ Ахангаранского палеолитического отряда по данным раскопок 1975 г. \\\ ИМКУ. № 14. 1978.
54. Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана \\\ Автореферат док. Дисс. Новосибирск. 1990.
55. Касимов М.Р. Кремнеобрабатывающие мастерские и шахты каменного века Средней Азии. Ташкент. 1972.
56. Кривошанкин А. Обирахматский человек: загадка эволюции// Наука и жизнь Узбекистана. Ташкент, 2008. №3-5. –С. 26-30.
57. Лев Д.Н. Самаркадская палеолитическая стоянка \\\ ИМКУ. Вып. 6. 1965.
58. Лев Д.Н. Древний палеолит в Аман-Кутане. (Исследования 1953-1954 гг.) \\\ Труды Узбекского гос. Ун-та. Нов. Серия. Вып. 61. 1956.
59. Мирсаатов Т.М. Древние шахты Учтута. Ташкент. 1973.
60. Насриддинов Х.К. Грот Оби Рахмат \\\ ИМКУ. Вып. 5. 1964.
61. Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) \\\ Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949.
62. Окладников А.П. Амир-Темир новый памятник каменного века вгорах Байсун-Тау (Узбекистан) \\\ КСИИМК. Вып. 28. 1940в. .

63. Окладников А. П. Неандертальский человек и следы его культуры в Средней Азии. (Предварительные данные выводы о раскопках в гроте Тешик-Таш) \\\ СА. Вып. 6. 1940 а.
64. Окладников А.П. Находка неандертальца в Узбекистане \\\ ВДИ. № 1. 1939а.
65. Окладников А.П. Следы каменного века в райлне Термеза \\\ Термезская археологическая экспедиция. Ташкент. 1945.
66. Пошка А. Пещера Сел-Ун-Хур \\\ ВА вып. 2. 1960.
67. Ранов В.А. О восточной границе мустьерской культуры \\\ Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1990.
68. Ранов В.А. Памир и проблема заселения высокогорной Азии человеком каменного века \\\ страны и народы Востока. № 16. 1975.
69. Ранов В.А. Каменный век Таджикистана. Обобщающий доклад по работам представленным к защите на соискание уч. Степени канд. Ист. Наук. Душанбе. 1963.
70. Сайфуллаев Б.К. Палеолит долины оеки Зарафшана и Северо-Восточных Кызылкумов \\\ автореферат канд. Дисс. Самарканд. 2003.
71. Сайфуллаев Б.К. Палеолит долины реки Зарафшана и Северо-Восточных Кызылкумов. Автореф. Канд. Дисс. Самарканд. 2003.
72. Сайфуллаев Б.К., Хушвақтов Н.О., Курбонбаев И.М. Поздний палеолит Узбекистана (по материалам новых технико-типологических исследований индустрии верхних (I-III) слоев Кульбулака. ИМКУ. №36. Самарканд. 2007.
73. Сулейманов Р. Х., Гланц М. Грот Ангиллак в Китабском районе Кашкадарьинской области. ОНУ. Вып. 00.2003.
74. Сулейманов Р.Х. Мустьерская стоянка Ангиллак. ОНУ. Вып. 00. 2004.
75. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. 1980.
76. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. М.: 1948а.
77. Холматов Н.У. Неолитическая стоянка Джангал 1 (новые данные о культурных контактах населения равнин и предгорий) \\\ Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке Средней Азии. ТД конференции посвященной 50-летию открытия Тешик-Таша. Ташкент. “Фан”. 1988.
78. Холюшкина В.А. Неолитическая стоянка Сазаган \\\ ТД XXXI студентческой конференции (исторические науки). Самарканд. 1972.
79. Хўжаназаров М.М. 2003, 2004, 2005, 2006 йилларда Оёқоғитма ёдгорлигида олиб борилган археологик ишлар ҳисоботи \\\ Архив ИА АН РЎз. Ф.2. 01. Д. 162, 163, 164,165, Самарқанд. 2004, 2005, 2006, 2007;